

See discussions, stats, and author profiles for this publication at: <https://www.researchgate.net/publication/336106749>

Ritorika

Book · May 2019

CITATIONS

0

READS

32,534

1 author:



Lalihon Mukhamedjanova

National University of Uzbekistan

86 PUBLICATIONS 11 CITATIONS

[SEE PROFILE](#)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

La'lixon Muhammadjonova

RITORIKA

TOSHKENT – 2019

RITORIKA

MUALLIF: f.f. n. L. A. Muhammadjonova

TAQRIZCHI: f.f.d. M.Qaxxorova

dots. f.f.n. D.S. Qodirova

Darslik Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti ilmiy uslubiy kengashida ko‘rib chiqildi va nashrga tavsiya etildi.

KIRISH

Globallashuv asri kishisining jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlaridagi har qanday faoliyatiga beriladigan baho avvalambor, uning tashqi jihatlariga e’tibordan boshlanadi, ya’ni har bir kadrni malakali mutaxassis bo‘lib yetishishda ritorika fanining o‘rni beqiyos. Shu sababli ham ritorikani o‘rganish insonda notiqlik san’ati qoidalarini go‘zal hatti-harakatlar bilan uyg‘unlashtiruvchi sohalardan birini egallahga muvoffaq bo‘ladi. Zero, kishilarning o‘zaro munosabati agar u ijobiy tus olsa, jamiyat va shahs ravnaqi uchun muvaffaqiyatli kechadi.

Albatta, chiroyli muomala, sof qalb, go‘zal xulq-atvorni o‘rganib bo‘lmaydi. Ichki madaniyatni rivojlantirish yuksak insoniy sifatlarni shakllantiruvchi tarbiyaviy ishlar majmuasidan o‘rin olishi kerak Insonning muomalasi xulq-atvorining ko‘zgusi, - deyiladi. Shunday ekan, kishining har bir ishida qalbining go‘zalligi, sof tuyg‘ulari, yuksak g‘oyasi va madaniyati ko‘rinib turishi lozim. Shuningdek, har bir soha egasi nafaqat notiqlik san’atini qonun qoidalarini bilishi, unga amal qilgan xolda fikrini yetkazib bera olishi lozim.

“Ritorika” nomi bilan taqdim etilayotgan ushbu darslikda ritorikaning vujudga kelishi va rivojlanishi, uning usullari, uslublari, chiroyli muomala qilsh madaniyati, taqdimot marosimlari va uning turlari, taqdimotchi imijiga doir zamonaviy mavzularning ham ilmiy asoslari tahlil qilingan.

Mavzu - 1 Ritorika fanining tadqiqod doirasi, maqsadi va vazifalari.

REJA

1. Kirish.
2. Ritorika fanining maqsad va vazifalari.
3. Ritorika fanining tekshirish obekti.
4. Adabiy til me'yorlari.

KIRISH

Ritorika avvalo insondagi mavjud qobiliyat va iste'dodni shakillantirishga karatilgan soxa. Ritorika notiqning iste'dodi, qobiliyati hamda iste'dodini o'rganuvchi ilim bo'lsa, nutq madaniyati adabiy til va uning me'yorlarini o'rganuvchi ilmdir. Ritorika murakkab san'at bo'lib, uni egallahash kishidan qunt va chidam, malaka va tajriba talab etadi. Hakikiy nutq katta maxorat va puxta tayyorgarlikning maxsulidir. Oddiy, madaniy va savodli so'zlashni o'rgangan notiq, notiqlik san'atini egallahsga birinchi qadamni qo'ygan hisoblanadi.

Notiqlik san'ati (ritorika) fan sifatida qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi IV-V asrlarda paydo bo'ldi. Ammo notiqlik san'atiga ehtiyojning paydo bo'lishini insoniyat tarixidagi ilk davlatchilikning shakllanishi davri bilan bog'lash mumkin. Nutq davlatni boshqarish, xalqni hokimiyat atrofida birlashtirish va muayyan maqsadlar sari yo'naltirish, turli toifadagi odamlar o'rtaqidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish kabi ishlarning barini amalga oshirishning bosh vositasidir. Bugungi kunda ham har qanday rahbar ishining samarasi ko'p jihatdan uning notiqlik mahoratiga bog'liq.

Umumadaniyatni belgilovchi asosiy omil hisoblangan ritorika shuningdek, nutq odobi, muomala madaniyati, ularning o'zaro munosabati kabi masalalarning o'zgarishi xozirgi kunda O'zbekiston mustaqillikka erishgan, o'zbek tili ana shu mustaqil mamlakatning davlat tili maqomini olgan paytda ayniqlsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixaan ma'lumki, Ismoil Gasprali turkiy xalqlarning til birligi – umumturkiy til masalasini milliy g'oya va mafkuraning ajralmas qismi sifatida olib qaraydi, unga juda katta e'tibor beradi: «*Til birligi masalasi bizim hayotimizda hayot - mamot*

*masalasidir Va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chYokinmaymiz!» - deb yozgan edi u. Birinchi Prezident I.A.Karimov ham o‘z asarlarida ona tili haqida shunday fikrni keyatiradilar : “*Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibayon bilan singaon. Ona tili - bu millatinig ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan xar handay millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar*”¹*

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi to‘g‘risidagi qonun 1989 - yil 21-oktabrda qabul qilindi. Davlat tiliga hurmat va e’tiborinig birinchi namunasi shu tilda tug‘ri, chiroyli so‘zlash va yozishdir. Davlat tilining imlo va talaffuz qoidalarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi tasdiqlaydi va ular barcha uchun majburiydir. Shuningdek xap yil 21-oktabr til bayrami sifatida nishonlanadi.

O‘zbek tilini hurmat qilgan, uning boyliklaridan oz bo‘lsa-da baxramand bo‘lgan va shu asosida unga mexr qo‘ygan xar bir kishi, xar bir ziyoli bu tilning taqdiriga bafarq qaray olmaydi. Bu til O‘zbekiston hududida istiqomat qilayotgan turli xalqlar Shevalari vakillari uchun shakllanadi. Shuning uchun ham hamma

Shevalar vakillari shu tilda gaplasha oladilar va bir-birlarini tushuna oladilar. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi respublikamizda davlat ishlarini o‘qish-o‘qitish, ta’lim-tarbiya, targ‘ibot-tashviqot ishlarini shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Shu bois o‘zbek tiliga munosabat tubdan o‘zgardi, uning imkoniyatlari kengaydi, o‘rganiish ishlari keng ko‘lamda olib borilmoqda. Xar qanday jamiyatda tilni rivojlantiruvchi kuch nutq hisoblanadi.

Nutq - bu til deb ataluvchi, o‘ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining bog‘lash, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan muhim munosabatda nomoyon bo‘lishidir. Nutq jarayoni - tilning o‘z vazifasini bajarish hamda amalga oshirish jarayonidir.

Til va nutq bir-biriga bog‘liq hodisadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas. Til – bu qurol. Til nutq uchun moddiy materialdir. Lekin, shu bilan bir qatorda ular bir-biridan farq ham qiladi. Til kishilarga doimo o‘zaro aloqa, munosabat, madaniy-ma’naviy zaruriyat, jamoa bo‘lib birlashish, kurashish quroli bo‘lib ham Xizmat qiladi.

¹ Qosimov Begali. Ismoilbek Gaspirali -T.:G’.G’ulom nomidagi Nashriyot matbaa birlashmasi. 1992.B 34

Tilning hosilasi hisoblanmish so‘z haqida Sharq allomalari qimmatli fikrlarni bayon etganlar. "Qobusnoma" muallifi Kaykovus hamma xunarlaridan so‘z xunari - notiqlikni a’lo deb bilgan: "Bilgilni hamma xunardan so‘z xunari yaxshi"¹ – deb bejiz ta’riflamagan.

Ritorika - bu so‘z san’ati, so‘z san’ati bo‘lganda ham ohangdan libos kiyib, talaffuz bilan jilolangan so‘zlar yig‘indisidir. Tilning imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Shirin muomalada bo‘lish ham katta sanat. Shirinsuxanlik, inson faoliyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki uning aql - saxovati, fikr - tuyg‘ulari, bilimi va madaniyati, saviyasi tafakkuri ma’lum darajada, so‘zda ifoda etiladi. Yaxshi so‘z bilan kishilarning ishonchi va qalbini egallashi mumkin. So‘z tilning tayanchi hamda go‘zalligidir. So‘z, yuz va ko‘z, tilning ko‘rki hisoblanadi. "So‘zning otasi **aql** onasi til" deyishadi keksalar. Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo‘lsa ham suyakni tebratadi.

Ritorika fanining maqsadi.

Ritorika faniining asosiy maqsadi ommani umummadaniy saviyasini yuqsaltirishga hissa qo‘shishdir. Shu bilan birga, uning maqsadi talabalarga Ritorika tarixidan ma’lumot berish, ulkan notiqlar, adiblar, so‘z ustalarining nutq madaniyatini rivojlantirish borasidagi xizmatlarini e’tirof etish va ularning boy merosidan umuman foydalanishdan iboratdir.

Ritorika- amaliy jixatdan chiroqli nutq tuzishning qonuniylari, sirlari, til me’yorlari, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo‘lgan nuqsonlar va talaffuzga doir muammolarni xal etish yuzasidan baxs yuritadi.

Ritorika fani tilning hamma soxalari buyicha adabiy til me’yorlarni tadqiq qilib boradi. Eng maqbul hodisalarning adabiy me’yorini mustaxkamlash uchun tavsiyalar beradi. Biroq bu fan adabiy me’yorlarni yaratmaydi, ba’zi bir hodisadarni me’yor sifatida majburan kirgizmaydi. Balki, o‘zbek milliy adabiy tili faoliyati, uning rivojlanishini kuzatib boradi, ob’ektni qonunlarini kashf etadi, shular asosida ta’lim

¹ Kaykovus. Qobusnoma. T.:Istiqlol 994. B 29

beradi.

Ritorika o'zbek tilshunosligining nazariy bilimlariga suyangan holda to'g'ri va chiroyli nutq tuzish sanatini o'rgatadi. Shu bilan birga bir jixatdan nutq san'atining hilma-hil muammolarini tadqiq qiluvchi fandir. Tarbiyashunoslikning ma'lum soxasi sifatida chiroyli nutq sifatlari, nutq uslublari, kamchilik va xatolari, nutqiy asoslari, urunishlari, ko'rinishlari, talaffuzga doir muammolalari yuzasidan bilim beradi.

Ritorika fani o'zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, ob'ektni qonunlarni kashf etadi, shular asosida tavsiyalar beradi. Kishilarda madaniy nutq malakasini shakillantirish, ya'ni adabiy til, umumtil mezonlariga, mavjud qoidalarga to'la amal qilgan xolda nutq tuzish malakasini shakillantirish notiqlik san'atining asosiy vazifalaridir. Shu bilan birga yaxshi nutqni baxolash va targ'ib qilish ham uning vazifasi doirasiga kiradi.

Til va nutq

Til va nutq bir-biriga bog'liq hodisadir. Ularni bir-biridan ajratish mumkin emas, Til - bu quroldir. Til nutq uchun moddiy materialdir, lekin, shu bilan bir qatorda ular bir-biridan farq, ham qiladi. Til kishilarga doimo o'zaro aloqa, munosabat, madaniy-ma'naviy zaruriyat, jamoa bo'lib birlashish, kurashish quroli bo'lib ham xizmat qiladi. Alisher Navoiy ham o'zining "*Mahbub – ul - qulub*" asarida tilga shunday baxo beradi. "*Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir*"¹

Nutq tildagi mavjud ifoda vositalaridan foydalangan xolda mavjudlikka aylangan fikrdir, nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'lgan ruhiy hodisa tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tkach, xaqiqatga aylanadi.

Til insonlar o'rtasida aloqa vositasi bo'lib, jamiyat a'zolarining bir-biri bilan fikr almashuviga xizmat qiladi. Til o'zida behisob tushunchalarni mujassamlashtiradi. Til butun jamiyat a'zolarining ongli hayot kechirishi, his-tuyg'ularini ifoda etishi, kurashish va rivojlanishida o'ziga hos benazirligi va buyukligi bilan ajralib turadi.

Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo'lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq ommaviy aloqa vositasini yaratishdir. Adabiy tildan

¹ Alisher Navoiy. To'liq asarlar to'plamni T.13 B.68

rasmiy davlat tili sifatida foydalanish bu tilning ijtimoiy - siyosiy soxalar tili, rasmiy – muomala va yozishmalar tili, idoraviy ishlar va xujjatlar tili, og‘zaki targ‘ibot va tashviqot tili, ilmiy uslublar tili, badiiy adabiyot va saxna tili, maorif, madaniyat tili kabi ko‘p yo‘nalishlarda rivoj topishi uchun yo‘l ochadi. Adabiy tilsiz nutq madaniyatini, notiqlik sanatini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Adabiy til nutq madaniyatining - to‘g‘ri so‘zlash va yozishning o‘lchovi, mezonidir.

Nutq sofligi

Adabiy til uchun begona unsurlari bo‘lmagan ahloq me’yorlari tan olmaydigan so‘zlardan holi bo‘lgan nutq, sof nutq deyiladi. Ba’zi xolatlarda nutq sofligiga kuydagilar putur etkazib turadi.

- A) Maxalliy dialekt va Shevalarga hos so‘z, ibora, shuningdek grammatik Shakllar, so‘z va so‘z birikmalarining talaffuzi, urg‘usi;
- M: Oka! qalaysiz? yoki aka aqa - baqa bormaymizmi?
- B) O‘rinsiz ko‘llangan chet so‘z va so‘z birikmalari; M: Umuman deyish o‘rniga voobshe, xo‘sh o‘rniga tak.
- B) Jargonlar; M: O‘zingni olma.Tashavossanmi?
- G) Vulgarizmlar; Bugungi kunda vulgar so‘zlarning ishlatilishi nutqimiz tozaligiga salbiy ta’sir kilmoqda. Og‘zaki nutqda uchrab turadigan so‘kinish, xaqorat so‘zlari jamiyatning axloq me’yorlarga to‘g‘ri kelmaydigan hodisadir.
- D) Nutqda ortiqcha takrorlanadigan parazit so‘zlar; M: parazit so‘zlar - ya’ni, demak, xo‘sh, v.x.k.
- B) Kanselyarizmlar. M:Idoraviy atamalar ham nutqning tozaligiga doimo haf solib turadi. Ulardan rasmiy ish qog‘ozlari uslubida foydalanish juda kulay. Ammo og‘zaki nutqda qo‘llash tavsiya etilmaydi.

Nutqning ta’sirchanligi. Nutqning yuzaga chiqishida aniq bir maqsad - tinglovchi ongiga ta’sir etish vazifa qilib qo‘yiladi. Shuning uchun ham ta’sirchanlik nutqning asosiy sifatlaridan biri sanaladi. Nutqning ta’sirchanligi deganda, asosak og‘zaki nutq jarayoni nazarda tutiladi. Shu bilan birga uning tinglovchi tomonidan qabul qilinishidagi ruhiy vaziyatni e’tiborga olish ham muhimdir. Omma tushina

oladigan tilda gapisirish, ularni ishontira olish notiqlar oldiga qo‘yiladigan asosiy shartlardan hisoblanali.

Nutqning tinglovchilarga qanday ta’sir qilishida notiqni o‘zini qanday tuta bilishi, imo -ishoralari, hatto qiyinishi ham asosiy omillardan biridir. Samimiylik, xushmuomalali, odoblilik, tinglovchilarga hurmat bilan qarash kabi fazilatlar nutqning kishilar tomonidan e’tibor bilan tinglanishiga sabab bo‘ladi.

Til madaniyati va nutq madaniyati

Kishilarda madaniy nutq malakasini shakillantirish ya ’ni adabiy til, umuman til mezonlariga, mavjud qoidalarga to ’la amal qilgan holda nutq tuzish malakasini shakillantirish notiqlik san ’atining asosiy vazifasidir.

Shu bilan birga, yaxshi nutqni baxolash va targ‘ib qilish ham uning vazifasi doirasiga kiradi, chunki ana shu nutq va uning sifati, belgilari namuna sifatida olinadi va kishilarda ana shunday nutqqa havas uyg‘otadi, ularning nutq odobi shakillantiradi. Nutqning adabiy til bilan munosabati bu fanning asosiy masalasidir. Chunki namunali nutqning barcha xususiyatlari (to‘g‘rilik, aniqlik, soflik, tushunarllilik kabilar) nutqning adabiy til bilan munosabati natijasi sifatida yuzaga keladi.

Ritorika – amaliy jixatdan nutqning hilma-hil muamolarini tadqiq qiluvchi fan. Tilshunoslikning mustaqil soxasi sifatida chiroyli nutq tuzishning qonuniyatları, sirlari, til me’yorlari, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashishi mumkin bo‘lgan kamchilik va xatolar, nutqiy asarlarning qurilishlari, nutqning talaffuziga doir muamolar yuzasidan baxs yuritadi.

Ritorika asoslari fan sifatida o ‘z tekshirish ob ’ekti va vazifalariga ega. Uning tekshirish predmeti nutqning til qurilishi, adabiy til me ’yorlari va nutqning komunikativ (aloqa uchun kerakli) fazilatidir.

Adabiy til va uning me’yorlari, ulardan foydalanish haqidagi qoidalar barcha uchun majburiy yagonadir. Ularni xar kim o‘zicha, o‘zi bilganicha o‘zgartirib qo‘llashi mumkin emas. Adabiy til ikki hil ko‘rinishga ega:

- 1.yozma adabiy til;
- 2.og‘zaki adabiy til.

Adabiy tilning bu shakllari nutqiy faoliyat nuqtai nazaridan: yozma nutq va og‘zaki nutq deb ham yuritiladi. Nutqning ikkala shakli ham yagona adabiy til me’yorlariga tayanib ish ko‘radi. *Nutq madaniyati soxasidagi yozma nutq madaniyati doirasiga ilmiy nutq, rasmiy nutq, publistik nutq, qisman badiiy nutq, shuningdek radio va televideenie uchun tuzilgan yozma matnlar turi kiradi.*

Og‘zaki nutq dastlab ikki tipga ajratiladi: 1. *Oddiy so‘zlashuv nutqi;* 2. *Adabiy so‘zlashuv nutqi.* Oddiy so‘zlashuv nutqi o‘zbek tilida tabiiy xolda mavjud bo‘lgan og‘zaki nutq ko‘rinishlaridan iborat. Ularga turli o‘zbek Sheva va laxjalari tili, ya’ni dialektik nutq ko‘rinishlari, Shevachilik unsurlari tasirida bo‘lgan kundalik so‘zlashuvning boshqa ko‘rinishlari va b.

Oddiy so‘zlashuv nutqining til bazasini adabiy til tashkil etmaydi. Shuning uchun oddiy so‘zlashuvdan biz talqin qilayotgan nutq madaniyati talab qilinmaydi. Oddiy so‘zlashuv oldiga qo‘yiluvchi nutqiy talablar aniq laxja va shevalarning tabiiy me’yorlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Adabiy so‘zlashuv nutqi – adabiy til madaniyatiga, ya’ni adabiy til me’yorlariga amal qilgan xolda gapirishdir. *Adabiy tilda so‘zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir. Buning sabablari:*

1. Og‘zaki nutqda shevachilikning ta’siri kuchli bo‘ladi;
2. Og‘zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o‘ylab ish tutish imkonini kam bo‘ladi.
3. Og‘zaki nutqning o‘ziga hos grammatik tuzilishi, qurilish tartibni mavjud. (Nutqda gap bo‘laklarini tushirib qolishi, qisqarib ketishi, o‘rin almashishi, aksincha keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo‘lishi va b.) M: Qo‘limga qilvoring. Anavi, manavi, masalan, shunday qilib, anaqa, manaqa.

1. Og‘zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o‘ynaydi.
2. Og‘zaki nutqning yuzaga chiqishi so‘zlovchining kayfiyati nutq so‘zlanayotgan vaziyatga, so‘zlovchi nutqiy a’zolarining sog‘lomligiga bog‘liq;

Og‘zaki nutqning quyidagi vazifasiy ko‘rinishlari mavjud:

1. Kundalik so‘zlashuv nutqi
2. Lektorlar nutqi
3. Radio va televideenie nutqi.

4. Saxna nutqi.

Ritorika nazariyasida til me'yori markaziy tushunchalardandir. Til madaniyatining asosiy tekshirish obekti adabiy til me'yorlari, ushbu me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etish kerak. Til me'yori tushunchasi murakkab muammolardan bo'lib, ko'p o'lchovli, ko'p rejali, ya'ni obektiv-tarixiy, madaniy-sotsiologik va sof lingvistik hodisadir.

Tilni ifodalashni boshqa usullari ham bor. Ulardan eng mashxuri - bu *yozuvdir*. Yozuv avval axborotni saqlash vositasi edi va shu mavqeda u qadimgi davlatlar va tamaddunlarning ma'muriy maqsadlariga xizmat qildi. Hujjatlarda o'tmish haqidagi axborot saqlanadi. Ular yordamida bugungi kun voqealari to'g'risida ham ma'lumotlar olish mumkin. *Yozuv* – xatni qog'ozga yoki boshqa materialga ko'chirishgina emas, balki o'z-o'zidan qiziq hodisa bo'lib, yozma hujjatlar va matnlar ba'zi jixatlardan og'zaki nutqdan mutlako farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Nutqning ta'siri xar qachon so'zlar ifodalangan muayyan matn bilan cheklanadi. G'oyalar va tajribani avloddan-avlodga yozuvning yordamisiz erishib bo'lmaydi. Matnlar asrlar davomida yashashi mumkin. Masalan Ijil matnlari g'arbning keyingi ikki ming yillikdagi tarixini muhim qismini tashkil qiladi. Yunonistonning Buyuk dramaturqlarining bizgacha etib kelgan asarlarini o'qib hayratlanamiz.

Xar bir davr adabiy tilining o'z me'yorlari bo'ladi, ba'zi bir hodisalar uzoq davrlar me'yor sifatida qo'llanib kelishi mumkin. Alisher Navoiy ijod qilgan XV-asr o'zbek adabiy tilining tarakqiy etish davri hisoblanadi.

Shuni alohida aytish kerakki, notiqlik faqat chiroyli so'zlarni qo'llay olishdangina iborat emas, balki notiq so'zning ta'siri, uning ijtimoiy ahamiyatiga ham katta e'tibor berishi kerak. Zero, notiqning saviyasi, iqtidori, salohiyati va insoniyligi u so'zlagan matnning nechog'li ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, *Ritorika* – shaxsnинг til imkoniyatlarini yuqsaltirish, til madaniyatini shakillantirish, fikrlash doirasini kengaytirish va ulardan nutq sharoitiga mos moxirona foydalana olishga xizmat qiladi.

Tayanch iboralar

Ritorika, Nutq, Kundalik so‘zlashuv nutqi, lektorlar nutqi, radio va televidenie nutqi, saxna nutqi, og‘zaki nutq, yozma nutq oddiy so‘zlashuv nutqi; adabiy so‘zlashuv nutqi, shevalarga hos so‘zlar, chiroyli nutq, madaniy nutq, til, nutq, og‘zaki nutq, talaffuz, ohang, imo-ishora, so‘zlovchi, kayfiyat, so‘zlanayotgan vaziyat.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Ritorika o‘zbek tilshunosligining nazariy bilimlariga suyangan xolda to‘g‘ri va chiroyli nutq tuzish san’atini o‘rgatuvchi fan sifatida.
2. Ritorika axloqshunoslikning ma’lum soxasi sifatida.
3. Chiroyli nutq sifatlari, nutq uslublari.
4. Kishilarda madaniy nutq malakasini shakillantirish.
5. Ritorika fanining tadqiqot doirasi haqidagi fikringiz.
6. Ritorikani o‘ziga hos fan sifatidagi o‘rni haqida fikr bildiring.
7. Ritorika fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
8. Ritorika ning boshqa ijtimoiy fanlar bilan a’loqolari va hamkorligi haqida nimalarni bilasiz?
9. Notiq kim?
10. Til nima? talaffuzchi?
11. Yozuv nima?
12. Suxandonlik nima?
13. Nutq sofligi deganda nimani tushunasiz?

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar va axborot manbalari.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev SH.M. – Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., O‘zbekiston. 2017.

3. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunasi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” (*O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 9-son, 94-modda*)lex.uz
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. -T., Ma’naviyat. 2008.

Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:

1. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018y.
2. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.
3. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
4. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
5. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018.
6. Bekmirzasv N. Ritorika asoslari. -T.: Yangi nashr, 2008.
7. Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat, 2005.
8. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati.T.: Ta’lim nashriyoti, 2009.
9. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.: O‘qituvchi, 1992.
10. Qudratov T. Nutk madaniyati asoslari. -T. “O‘qituvchi”. 1993.
11. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.:O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
12. Pulatova D.A., Jalolova O‘.K., Ro‘zmatova G.M. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma – T.: Premier print, 2011.
13. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtieod-molil, 2009.
14. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma – T.: Universitet, 2014.

15. Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o‘quv qo‘llanma. –T., Universitet. 2012.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

1. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. - T “O‘zbekiston”. 1981.
2. Apresyan G.R. Oratorskoe iskusstvo.- M 1978
3. Husain Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. T.: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2010.
4. Aristotel Ritorika. - M 1998
5. Abdiev M. Til boyligi el boyligi. “Muloqot” № 5 2001 B31-32
6. Aserenseva S. Oratori Gretsii. – M. «Xud. lit» 1985.
7. Golub I.B. Kniga o xoroshey rechi - M 1997.
8. Ivanova S.F. Uchitsa ubejdat. Beseda ob oratorskom iskusstve – M.1989.
9. Qur’oni Karim – T.”Cho‘lpon” 1992
10. Bobomurod A. – Islom odobi va madaniyati. - T. “Cho‘lpon” 1995
11. Bezmenova N.A. Ocherki po teorii i istorii ritoriki.- M. Nauka 1991
12. Mixnevich A.E. O krasnorechi v shutku i vseryoz. – M. Znanie. 1989
13. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - T “O‘qituvchi”. 1995.
14. O‘zbekiston Milliy Endiklopediyasi. T. 6. 2003

Mavzu -2. Qadimgi dunyoda Ritorikaning paydo bo‘lishi. Buyuk mutafakkir notiqlar xususida.

Reja:

1. Qadimgi Gretsya notiqlik san’ati.
2. Sofistika haqida. Notiqlar Protagor va Demosfen xususida.
3. Aristotel va Lisiy notiqlar haqida.
4. Qadimgi Rimdagi notiqlik san’ati, Sitseronning notiqlik san’ati.

Ritorika tarixidan.

Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Qadimgi san’at turlaridan biri notiqlik dastlab Misr, Assuriya, Bobilon kabi qadimiy davlatlarda rivoj topgan bo‘lsa, keyinchalik Gretsya (Yunoniston)da va

Rimda rivojlandi, nazariy asoslari yaratildi. Nutq oldiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi. Perekl, Kleon, Lisi, Demosfen, Gipperid kabi davlat arboblari notiqlikni san’at darajasiga ko‘tardilar.

Shu bois, notiqlik san’at nazariyasi haqidagi dastlabki malumotlar, asosli fikr - mulohazalar Yunoniston Ritorika tarixi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, jaxon ijtimoiy taraqqiyoti va madaniyati tarixida hech bir davrda Ritorika Yunoniston mamlakatidagi kabi yuksak taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilgan emas. Ritorikani rivojiga quldarlik tizimining rivojlanishi, quldarlik demokratiyasi ham sabab bo‘ldi. Bu davrda davlatning savdo-sotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etish notiqlik san’atini yuqori darajaga ko‘tardi. Yunonistonda demokratik tizimi o‘rnatish tufayli, xalq majlislarida, kengashlarida, sud yig‘inlarida erkin ravshda so‘zlash imkoniyatlari tug‘ildi. Ritorikaga ehtiyoj Afinada, ayniqsa, juda kuchli bo‘lgan. Xalq to‘plangan fuqaro oldida va’zxonlik qilgan davlat arboblarining g‘alaba yoki mag‘lubiyatlari hammadan burun ularning so‘zga chechanliklari bilan belgilangan: keskin dalillar keltirib, fasoxat bilan so‘zlagan, davlat arboblari xalq nazarida martaba ortirganlar, gapga no‘noqlari nazardan qolib sharmanda bo‘lganlar.

Shundan qilib Ritorikaning ikki turi maydonga keldi: bulardan biri siyosiy notiqlik, ikkinchisi sud notiqligi, keyinchalik epidektiv ya’ni tantanali marosimlarda ulug‘ zotlarni vasf etuvchi, mashxur voqealar haqida nutq so‘zlovchilar maqtov notiqligi ham paydo bo‘la boshladi.

Yetuk inson bo‘lishi uchun, albatta notiqlik san’atini egalashi shart qilib qo‘yiladi. Ana shu ehtiyoj sababli notiqlik nazariyasi yaratildi va qo‘yidagi jarayonlar belgilandi:

- Materialni xar tomonlama tayyorlash;
- Materialni joylashtirish rejasini belgilash;
- Materialni o‘zlashtirish, nutq qurilishini to‘g‘irlash;
- Notiqning nutq materialini o‘rganishi;
- Materialni so‘z bilan ifodalash;
- Nutqni talaffuz qilish, ya’ni nutq jarayoni.

Bu talablar xozir ham o‘z kuchini saqlab kelmokda. Ma’muriy notiqlik

san'atining taraqqiyotida Grek sud rasmiyatchiligining roli ham e'tiborlidir. Eramizga qadar Solon hukumronligi yillarda amaldagi mavjud qonunga binoan xar bir Afinalik sudda o'zini himoya qila olish huquqiga ega edi. Tabiiyki bu jarayon kishilarini madaniyatli, o'z navbatida, ta'sirli nutq ijod qilishga majbur qilar edi. Biroq bu jarayonga hamma ko'nika olmadi. Chunki hamma ham notiqlik maxoratini to'liq egallay olmasdi. Shuning uchun Gretsiyada nutq matnini yozib beruvchilarga ehtiyoj tug'ildi. Notiqlar yuristlar, sudlanuvchilardan muayyan moddiy mablag' evaziga nutq matnini ko'chirib bera boshladilar. Sudlanuvchi bu matndan foydalanib, sud jarayonida o'zini himoya qiladigan bo'ldi. Tabiiyki bu vazifani ham hamma uddalay olmadi. Natijada notiqliknin eplay olmaydigan kishilar uchun sudda boshqa shaxs himoyachi sifatida qatnashishga ruxsat berila boshladi.

Gretsiyada boshqa san'at turlari kabi notiqlik ham o'z qadr qimmatini topa boshladi. Biroq chiroyli nutqdan ko'ra, mazmunli fikrni e'tirof etgan greklar nutqning ko'proq shu jixatlariga e'tibor berar edilar. Ayniqsa, yosh avlodga notiqlik san'atini mukammal o'rgatishni mas'uliyatli vazifa deb qarardilar. Shu bois, Gretsiyada maxsus notiqlik maktablari ochilib, so'z san'atini mukammal egallagan notiqlar o'quvchilarga saboq bera boshladilar. Qadimgi Gretsiyaning dastlabki notiqlari xaqida Pomerning "Illiada" va "Odisseya" asarlarida asosli ma'lumot keltirilgan. Bunda eramizdan avvalgi XIII - XII asrlarda Yunonistonda dong taratgan Nestor, Meneley, Odissey, Ahill, kabi notiqlar haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Gomerining «Illiada» va «Odisseya» asarlari bizga Gretsiyaning birinchi notiqlari haqida ma'lumot beradi. Taniqli Rim notig'i, nazariyachi va pedagog Kvintellian Gomer asarlarida chiroyli gapirish va nutq so'zlashning dastlabki namunalarini ko'rdi. «Illiada» turli xildagi notiqlar haqida ma'lumot beriladi. Unda chol Nastor nutqiga ko'tarinkilik xos bo'lsa, asardagi ikki Buyuk qahramon – Odissey va Menelay nutqi boshqacha namoyon bo'ladi. Ya'ni Menelay qisqa va aniq so'zlashni yoqtiradi, ko'p so'zlilikni, asosiy mavzudan chet ga chiqishni yoqtirmaydi. Odisseyda esa jo'shqinlik kuchli: «Nutqlar qor quyunidek og'zidan otilib chiqadi».

Ayrim tadqiqotchilarni ko'rsatishicha, Gomer poemalarida notiqlik san'atining asosiy tiplari o'z ifodasini topgan. Gretsiyaning qadimiyligi Gomer davri

notiqlari haqidagi ma'lumotlar, shu kunlar uchun ham muhim bo'lgan ayrim xulosalar chiqarishga asos beradi:

Birinchidan, og'zaki nutq san'ati o'z-o'zini chegaralay bilish san'atidir: aniqlik va qisqalik – og'zaki nutqning fazilatidir.

Ikkinchidan, turli temperamentli notiqlar bo'ladi. Birovlarda vazminlik va hotirjamlik ustun tursa, boshqalar haroratli va jo'shqni bo'ladi. Shuning uchun ham nutq so'zlaganda yoki ma'ruza qilganda notiq temperamenti xususiyatini hisobga olish lozim: chunki bir notiqqa ma'qul bo'lgan usul boshqasiga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Notiqlik san'atini birinchi marta adabiy janr darajasiga ko'targan va unga ilmiy tus bergen kishilar sofistlar bo'lganlar. Ular o'zlaridan oldin o'tgan va o'sha kezlarda ijod qilayotgan so'z ustalarining faoliyatları namunasida notiqlik san'atining nazariy asoslarini, ya'ni ritorika ilmini yaratdilar. Avvallari "Ritor" so'zi umuman notiqlarga nisbatan ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik notiqlik san'atiga o'rgatuvchi maxsus muallimlarni shu nom bilan ataydilar. Ritorlarning asl vatani Sitsiliya oroli bo'lgan. Qadimgi ritorikaning asoschilari deb Sitsiliyalik **Koraks** hamda **Tissiy** degan notiqlarni ko'rsatadilar. Arastuning fikricha ritorika fanining birinchi asoschisi Empidokl bo'lgan. Lekin uing bu sohdagi ishi bizgacha umuman etib kelmagan. Empedoklning Shogirdi Koraks ritorika haqida yangi ish yozgan bo'lib, u ham bizgacha etib kelmagan. Koraks chiroyli nutqni «*Ishontiruvchi xizmatkor*» deb ta'riflaydi. Hayot faoliyati to'g'risida fan olamida oz -moz iz qoldirib ketgan va keyinchalik, ritorikaning eng birinchi ulug' namoyondasi sifatida tanilgan kishi – Koraks hamda Tissiylarning vatandoshi sofist Gorgiydir. (taxminan 483 - 376) Gorgiy 427 yili o'z shahri Leotina uchun xarbiy yordam so'rab maxsus elchi sifatida Afinaga keladi va xalq majlisida gapirgan nutqi Afina yoshlarida juda kuchli ta'surot qoldiradi. Ko'p o'tmay Gorgiy butunlay Afinaga ko'chib keladi va shu erda ritorika maktabini ochadi. O'z Shogirdlariga so'z san'atini o'rgatish barobarida notiqlik bilan shug'ullanadi. Gorgiyning aytishicha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish, rom qilishdir. Maftun etishning asosiy vositasi sifatida u birinchi o'ringa uslubni ko'yadi va shu maqsad bilan o'zining asarlarida "go'zal"

uslubning namunalarini namoyish qilmoqchi bo‘ladi. Gorgiyning so‘z to‘qish sanati zamondoshlariga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi va uzoq yillar davomida prozasining asosiy namunasi bo‘lib qoladi.

O‘sha davrda yashab o‘tgan Perikl ko‘zga ko‘ringan notiq bo‘lganligi haqida Yunon tarixchisi Fukidid ma’lumot beradi. Perikl nutqlarining birorta teksti ham bizgacha etib kelmagan. Perikl nutqi fikrning chuqurligi, formaning soddaligi, samimiyligi bilan, tinglovchilar psixologiyasini e’tiborga olganligi bilan xarakterlanadi.

Periklning tajribasicha, yaxshi notiq faqat yaxshi gapirish bilan kifoyalanmay, balki auditori yani ham o‘zga jalb eta biladigan kishi bo‘lishi kerak.

Ritorikaning rivojiana borishi uning prinsip va usullarini kashf etishga ham urinishga olib keldi. Natijada chiroyli so‘zlash nazariyasi – ritorika maydonga kela boshladi.

Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab, shu erda ijod qilgan bir talay mashxur so‘z ustalari orasidan eng ulug‘lari deb faqatgina o‘nta notiqni tanlaganlar va ritorika ilmini o‘rganishda ularning asarlarini tavsiya etganlar. Ular qatoriga Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxin, Giperid va Dinarxlar kirgan.

Sofistika – antik davrdagi aqliy oqim. Miloddan avvalgi asrlarda Yunonistonning ko‘pgina shaharlarida zodagonlar xukmronligi o‘matildi. Quldarlik demokratiyasi o‘rnatila boshlagan vaqtan yangi saylov idoralari tashkil etila boshladi. Bu idoralar sinflar va erkin xalq partiyalari kurashida katta rol o‘ynagan. Bu tashkilotlar sud ishlarida siyosiy, diplomatik masalalarni hal etishda martabali maqomga ega notiqlik san’atini egallashda so‘z kuchi bilan raqibning savoliga javob berishni ishonarli olib borishda ham asosiy vazifani bajargan. Shu davrda siyosiy bilimlar va notiqlik san’atini targ‘ib qiluvchi ustozlar, huquqshunoslar yetishib chiqqa boshladilar. Unga asos solganlar sofistlar (“donishmandlik muallimlari”) bo‘ldi. Ular shaharma-shahar yurib, ma’lum haq evaziga ma’ruza o‘qishar va asosan tinglovchilarga nutq tuzish, notiqlik sir-asrorlaridan saboq berishar edi. Antik demokratiyaning beshigi bo‘lgan Afina shahri ularning faoliyati uchun qulay

bo‘lgan. Shuning uchun ham ayni Afinada Ritorikarivoj topdi. Sofistlar ichida eng mashhuri bo‘lgan Abderlik Protagor insonga bo‘lgan yangicha qarashni ilgari suradi. “Inson, - deydi u, - barcha narsalarning o‘lchovidir”. Bunday qarash asosida sofistlarning asosiy nuqtai nazari shakllanadi: “har qanday narsa haqida ikki bir-biriga qarshi fikrni aytish mumkin”.

Sofistlar til boyligini mohirona egallahshni va kerak paytda undan foydalanishni o‘rgatardi. Sofistlar so‘z va tilning nazariy asoslarini ham ishlab chiqdilar. Ularning ilmiy izlanishlari asosida tilshunoslik fanining ikki sohasi – orfoepiya (grammatika) va ritorika (notiqlik nutqlarini tuzish haqidagi ta’limot) Shakllandi. Orfoepiya bilan asosan Protagor va Prodik shug‘ullangan bo‘lsalar, ritorikaga Gorgiy va Frisimaxlar asosiy hissalarini qo‘shdilar. Lekin o‘sha davrda fan alohida soxalarga bo‘linmagan edi. Shunga qaramay ilm ahillari siyosiy va huquqiy ishlarni bajarish usullarini o‘rganibgina qolmay, balki falsafa va dunyoqarashning umumiylasalalari bilan ham shug‘ullanganlar. Masalan Gippiy, deb yozadi Ploton kishilarni astranomiya, geometriya va musiqa san’atiga o‘rgatgan. Kritiy esa Empidoklning psixologik qarashlarini davom ettirgan. Bunday O‘qituvchilarni o‘sha davrda sofistlar deb atashgan. Dastlab “sofist” degan so‘z biror bir kasbning moxir ustasi, Ya’ni shoirlar, musiqachilar, qonunshunoslar, donishmandlarga taalluqli edi. Sofistlar yana notiqlik san’atini ham tashviqot qilib kelganlar. *Keyinchalik sofistlar deb o‘z so‘zlari bilan haqiqatni izlovchi kishilarni emas, balki yolg‘onni haqiqatga, mulohazani isbotlangan haqiqatga yo‘yuvchi sayoz kishilarni ayta boshlashdi.*

Qadimgi Gretsiya, ya’ni Afinada hurmat va e’tiborga erishish uchun siyosiy, iqtisodiy va madaniy manbalarga tayangan xolda omma ichida chiroyli so‘zlash madaniyatiga ega bo‘lish shart bo‘lib qoldi. Buning uchun esa Ritorika va chiroyli so‘zlash xususida maktablar paydo bo‘lishini davr talab qilib qoldi.

Eng taniqli maktablardan biri - bu sofistlar maktabi bo‘ldi. Eng taniqli ofistlardan biri bu *Protogordir*. (eramizdan avvalgi 481-411yy) Protagor quyidagi falsafiy ta’limotlarni ilgari surdi: “*Inson hamma narsaning mezonidir: mavjudodlarning mavjudligi, mavjud bo‘lmaganlarning nomavjudligidir.*”¹ Shunga

¹ Берtrand Рассел, История западной философии и её связи с политическими и социальными условиями от Античности до наших дней, М., «Академический Проект», 2006 г., с.109

asoslangan xolda u mutafakkir davrigacha bo‘lgan ritorik maktablarning munozara – xaqiqatni izlashning hamda axloqiy tamoyillarni yoqlashning asosiy vositasidir, degan ta’limotini rad etdi. *Protogor* baxsda o‘z oldiga faqat yagona maqsadni ko‘yish – auditori yani notiqning xaq ekanligiga ishontirish; va shu maqsadni amalga oshirishda xar qanday yo‘ldan foydalanish lozim, deb hisoblar edi. Uni g‘oyasizlik va axloqsizlikda ayiblashganda qadimgi grek mutafakkirlari bu ayblovni quyidagicha deb bilishadi.

1. Xar qanday bilish nisbiy va vaqtinchalik ekanligi;
2. Inson ishonchining komilligi aniq xolatlarga bog‘liqligini;

Insonlarning hissiy va jismoniy xolatlari “*turli davrda turlichcha qabul qilishdandir*” degan izoxlari bilan yo‘qqa chiqaradi. Sofistlarning dastlabki maktablari Sitsiliya oroli shaharlarida yuzaga keldi. *Protogor* sofistlar matabining asoschilaridan biri edi. *U doimo kuchsiz dalilni kuchli dalilga aylantirishni Yani biror bir narsani tasdiqlash Yoki rad etish maqsadida xoxlagan narsani olib isbotlashdash iborat deb o‘rgatardi.* Shu o‘rinda Protogorning fikriga qulqoq tutsak: “*Hamma narsaning o‘lchovi insondir.*” *Men narsalarni qanday tasavvur qilsam u shunday, u qanday tasavvur qilsa narsalar u tasavvur qilganday.* Bitta shamol ikki marta esmaydi lekin shu shamolda kimdir sovuq qotsa kimdir sovuq qotmaydi. Kimdir ko‘proq sovuq qotsa, kimdir unchalik darajada sovuq qotmaydi. Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi: *shamol o‘z holicha sovuqmi? yoki nimagadir nisbatan olganda sovuqmi?* Bu savolga javob berish bilan yuqoridagi fikrlarni inkor qilish mumkin. Agar biz shamol o‘z holicha sovuq deydigan bo‘lsak unda u hammaning tasavvuriga bog‘liq bo‘lmagan bo‘ladi. Agar biz nisbatan sovuq deydigan bo‘lsak ham xato bo‘ladi. Chunki shu shamol kimgadir issiq tuyulishi mumkin¹. Umuman *Protogor* o‘z davrining yirik notiqlardan biri bo‘lib, u notiqlik san’atiga ulkan hissa qo‘shdi. Uning sofizmlari xozir ham mantiqda o‘z ahamiyatiga ega.

Tantanali notiqlikning eng yorqin vakillaridan biri Gorgiyning Shogirdi *Isokrat* (eramizdan avvalgi. 436-338 y.y) bo‘lib, Afinada ritorika maktabiga asos solgan.

¹ Берtrand Рассел, История западной философии и её связи с политическими и социальными условиями от Античности до наших дней, М., «Академический Проект», 2006 г., с.109

Aytish lozimki, bu mактабда ritorika faqat notiqlik san'atiga o'rgatuvchi fan bo'libgina qolmay, balki haqiqatni anglash va tarqatish vositasi vazifasini o'tagan.

Isokrat o'zi nutq so'zlamagan, balki notiqlikdan saboq bergen va Yunoniston bo'yab tarqatilgan nutqlarni yozgan.

Isokrat uslubi o'z hashamadorligi bilan ajralib turadi. U nutqning ohangiga, chiroyli Shakliga alohida e'tibor qaratadi.

Isokrat maktabining tajribasi IV asrdagi ommaviy notiqlikka katta ta'sir o'tkazdi. Bu davrda notiqlar ijtimoiy hayotda yetakchi o'rinni egalladi. Notiq xalq yig'inlarida nutq so'zlar, o'z qaror loyihalari muhokamaga qo'yar va shu tariqa davlat (polis)ning siyosiy yo'lini belgilab berardi. Davlatni boshqarish ana shunday siyosiy arboblar – "demagoglar" (xalq sardorlari) qo'liga o'tdi.

Notiqlik san'atini yana ham yuksak bosqichga ko'targan Buyuk zotlardan biri *Demosfendir*. Demosfen (eramizdan avvalgi 384 - 322) Afina shahrida badavlat xonadonda dunyoga kelgan. Biroq etti - sakkiz yoshlarida otasi vafot etadi. Uning bor mol -mulki unga va besh yoshli singlisiga qoldiriladi. Demosfening ta'lim - tarbiyasi onasi va vasiylar ko'lida qoladi. Vasiylar va uning tog'alari juda noinsof insonlar bo'lib, ular bolalarning o'qishi va tarbiyasi bilan shug'ullanishmaydi. U juda nimjon bo'lib o'sadi va balog'atga etganda otasidan qolgan mol - mulkdan hech narsa qolmaydi. Demosfen merosni qaytarib olish maqsadida notiqlik san'atini o'rganishga kirishadi. U notiqlik san'atini o'rganish uchun o'z davrining meros ishlari bo'yicha advokati Isey maktabida ta'lim oldi. Dars olishning dastlabki yillarini yo tamoman yolg'izlikda yoxud birgina muallim nazorati ostida mashq qilib o'tkazdi. Yosh notiqning birinchi nutqi kulgili xolda, to'palon, kulgi, kiyqiriq, xushtak chalib, masxaralash bilan qarshi olinadi. U o'z nutqini tugatolmay minbardan tushishga majbur bo'ladi. Demosfening nutqini bunday kutib olinishi tabiiy xol edi. Unda jismoniy kamchiliklar mavjud edi – ovozi past va nutqi yomon bo'lgan, "R" xarfini talaffuz etolmas, g'uldirab mujmal gapirar edi. kifti asabiy ravishda titrab turgan, Demosfen o'z nutqining kamchiliklarini boshqa takrorlamaslik uchun noto'g'ri talaffuz etayotgan so'zlar ustida qayta - qayta mashq qila boshladи. Demosfen ovozini o'stirish uchun og'ziga mayda toshlarni solib, dengiz qirg'og'ida nutq so'zlardi va to'lqin

shovqin-suronni bosib ketishiga harakat qilardi. Kiftning titrashidan qutulish uchun shiftga qilichni shunday ildiradiki, uning o'tkir uchi kiftga Yaqin turadi va kifti titragudek bo'lsa, qilichning uchi tegib og'ritardi. Shu yo'sinda olib borilgan uzluksiz mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon bergen. Nihoyat bunga erishadi. U hech qachon tayyorgarliksiz nutq so'zlamagan, xar doim yozilgan nutqni oldindan yodlab olar edi. Uning maxoratiga, irodasiga xatto dushmanlari ham tan berishgan. Demosfen o'zidan tajribaliroq bo'lgan opponentlarining jamoatda chechanlik bilan qilingan qochiriqlariga nisbatan ta'sirchanligini his qilagani bois, shunday chiqish usulini ishlab chiqdiki, unda xozirjavob aytishuvga deyarli o'rin qolmasdi. Raqiblarining qiyqiriqlari va tanbexlari bepisandlikka uchrar yoki oldindan tayyorlab qo'yilgan matnlar bilan yo'qqa chiqarilardi. *Demosfen o'zining nutqlarida jamoat chiqishida asosan odamlarning ruhiyati, ularning ixtiyori va hissiyotiga tasir qilishga kuch berar edi.* Bunday ta'sir Demosfen ovozining to'g'ri yo'lga ko'yilgani, jo'shqin va jumboqli iboralar bilan zo'r berib ishlangan nutqning matni orqali amalga oshirilar edi. *A'lo darajada ishlangan mimika va xatti - harakat bilan uygun xar bir ibora bosqichma - bosqich omma ruhiyatini notiqqa kerak bo'lgan tarafga shunday yunantirilgan ediki, xatto insonlarning o'zlari ham Demosfen nutqining tasiri ostida garchi avvalida notiqning g'oyalariiga qarshi kayfiyatda bo'lsalarda, bilmagan xolda uning tarafiga o'tib qolgan paytalarini sezmay qolardilar.* "Notiqlikning darajasi asosini nima belgilab beradi?" deb berilgan savolga Demosfen qat'iy "*Birinchidan ifodalash, ikkinchidan ifodalash va uchinchidan yana ifodalash*"¹ deb javob beradi.

Demosfen nutqlari juda ham jo'shqin va shiddatkorligidan, dushmanlari uni «yovvoyi hayvon» deb atashardi. U nutq so'zlashda maksimal ifodalilikka erishishga harakat qilardi.

30 yoshida u ilk siyosiy nutqini so'zlaydi. Shu vaqt dan boshlab, u Afinaning qizg'in siyosiy xayotiga kirib boradi. Ko'p o'tmay u siyosiy arbob darajasiga etadi.

Demosfen birinchi bo'lib, notiqlik tirbunasini dramatik estradaga aylantirdi.

¹ Демосфен // Всемирная история по новейшим сочинениям профессоров Беккера, Реймонда, Лависса, Иегера, Шиллера, Кеммеля (Шпамера), Дюрюи, Костомарова, Иловайского, Соловьева и многих других. Т.1.: Древнее время. - СПб., 1902.

Demosfendan yaxshi, kuchli notiq uchun eng muhim omil nima? deb so‘rashganda, u “*imo - ishora*” deb javob beradi.

Chiroyli so‘zlash san’atiga katta uslubiy hissa qo‘shgan Buyuk faylasuf *Arastudir*. (eramizdan avvalgi 384-322 y) Arastu o‘zining “***Tonika***” asarida dialektika, falsafa, mantiq fanlarining notiqlik bilan bog‘liq xususiyatlarini ko‘rsatsa, “***Notiqlik san’ati***” asarida u butun diqqat e’tiborini bevosita notiqlikka, notiqlik maxorati va san’atiga, notiqning o‘zini tutishi hamda davlat va jamiyat hayotidagi o‘rniga qaratadi. Jumladan, notiqlik Arastu fikricha, dialektikani bir qismini tashkil etadi. Notiqlikdan qiroat fani sifatida ijobiy va shuningdek salbiy ma’noda foydalanish mumkin. Notiq o‘z maxorati bilan hakiqatni topishga harakat qilsa, u haqiqiy dialektikaga Yaqinlashishi mumkin. Lekin notiq o‘z notiqligini xaqiqatga qarshi qaratgan bo‘lsa, u sofistikaga yaqinlashadi. *Sofistik dialektika haqiqatni o‘rnatish uchun emas, balki g‘alabaga erishish uchun safsatabozlik san’atidan foydalanishdir*. Notiqlik - deydi Arastu, *haqiqat yo‘lida ko‘llansa, dialektikaning qismiga aylanishi mumkin*¹. Uning fikricha bo‘lajak notiq kuchli xotiraga, so‘z boyligiga, shuningdek muayyan hududdagi axvoldan batafsil xabardor bo‘lishi kerak. Notiq qaysi paytda so‘z urg‘usini kuchaytirish - u, qaysi paytda yumshoqlik bilan nutq o‘qishni bilishi kerak. Bu juda muhim bo‘lib, ko‘proq tinglovchilar reaksiyasi bilan hamohang keladi. Arastu o‘z fikrini tinglovchiga etkazishda arzon harakatlar: opponentning ustidan kulish, fikrni chalg‘itish bilan emas, balki ilmiy metod orqali yondashish kerak deb hisoblaydi.

Arastuni mantig‘ining asosini sillogizm egallaydi.

Sillogizm - u yoki bu tezisda dalillar yig‘indisini namoyon qiluvchi o‘zaro bir - biriga bog‘langan aqliy xulosalar blokidir. Sillogizm 3 qismdan: katta asos. kichik asos va xulosadan tarkib topgan. Sillogizmning turlari - moduslar turli shakllarga ega. Ulardan eng mashxur modus xattoki o‘zining “*Barbara*” nomiga ham egadir:

“*Barcha odamlar o‘tkinchidir. (katta asos). Suqrot ham odam (kichik asos).* *Shunga ko‘ra Suqrot ham o‘tkinchidir.*” Arastuning (384-322) Ritorika asari ham

¹ Аверинцев С. С. Риторика как подход к обобщению действительности // Поэтика древнегреческой литературы. — М.: Наука, 1981. — С. 15-46

o'sha davrda yaratilgan. Arastuning *Ritorikasi* uch kitobdan tashkil topgan. Asarning birinchi va ikkinchi kitoblari, asosan chiroyli so'zlash, ishontirish uslublari haqida fikr muloxazalardan iborat bo'lsa, uchinchi kitobida nutq mantiqiga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, notiq tilidagi turli qorishmalar, Ya'ni so'zlarning noto'g'ri va noo'rin talaffuz qilinishi, jumlalarning mantiqan xar hil tuzilishi so'zlovchining katta xatosidir. Arastu notiqning hissiyot bilan so'zlashi mulohaza yuritayotgan fikrning tinglovchi qalbiga tez etishida muhim omil bo'lishini talab etadi. U notiqning hissiyot bilan so'zlashi mulohaza yuritayotgan fikrining tinglovchi qalbiga tez etishida muhim omil bo'lishini alohida uqtiradi. Bundan tashkari, Arastu notiqning auditori Yani o'ziga jalb etishi uchun xazil - mutoyiba so'zlar bilan lirik chekinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli ko'rgazmali qurollardan foydalansa, xar hil epitet, chog'ishtirish va metaforalarni qo'llasa nutqining ta'sirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar ko'payib ketib, tinglovchini zeriktirib ko'ymasligi kerakligini ham ta'kidlaydi.

Arastu notiqlik san'atini egallashni 5 qismga bo'lib, o'rgatadi:

1. Materialni kashf etish (xar tomonlama tayyorlash)
2. Materialni joylashtirish Shakli (rejasi)
3. Materialni eslab qolish (o'zlashtirish)
4. Materialni so'z yordamida to'g'ri aks etgirish.
5. Materialni to'g'ri talaffuz etish.

Aristotelning fikrlari bugungi kunda ham o'z qimmatnni yo'qotmagan.

Lisiy (taxminan 459 - 380) Sitsiliyada tug'ilgan. Uning otasi Perklning taqlifiga binoan Afinaga kelib, shu erda o'rashib qoladi. Lisiylar oilasi shaharning ancha davlatmand oilasi bo'lishiga qaramay uning a'zolari kelgindi bo'lganliklari sababli Afina fuqarosi qatoriga kirolmaydilar. O'z faoliyatini logograflik bag'ishlagan Lisiy, dastavval sud ahillarining va sutga ishi tushgan kishilarning tabiatini chuqr o'rganishga kirishadi. Ma'lumki, Afina sudida qatnashgan shaxslarning ko'pchiligi murakkab davlat qonunlarini teran bilmagan, aksar unchalik durust taxsil ko'rmagan odamlar bo'lganlar. Shu sababli ular ayyor va ustamon odamlarning sud xay'atini aldab ketishlaridan hadiksirab, ilmoqdar, dabdabali so'zlarga chuqr shubha bilan qarar va bu

hildagi so‘zlarni to‘qishda, albatta biror odam ko‘maklashgan deb gumon qilardilar. Ikkinchidan, logograflarning yordamiga muxtoj bo‘lib, ularga murojaat etgan odamlar orasida jamiyatning turli - tuman fuqarolari bo‘lgan. Binobarin, Lisiy xar bir nutqni yozishga kirisharkan bu nutqni buyurtma bergen kishining tabiatiga, ijtimoiy mavqeiga qanchalik monand kelish - kelmasligiga katta e’tibor beradi. U yaxshi biladiki, qishloqdan kelgan oddiy bir dexqon yoniki o‘rtamiyona shahar fuqarosi hech qachon kitob iboralarini ishlatib, murakkab qonunning kerakli boblaridan dalil keltirib, xashamatli nutq so‘zlay olmaydi. Bordi - yu shunday qilsa, aytgan gaplarini soxtaligi bilinib qoladi. Lisiy san’atining asosiy siri shundaki, u so‘z yozishga kirishar ekan, o‘z oldiga faqat bir maqsadni quyadi, u ham bo‘lsa so‘zlayotgan kishi haqida sud xay’atlari dilida eng yaxshi taassurotlar qoldirish, uning xar bir gapi yurakdan chiqayotgan chinakam samimiy gaplar ekanligiga ishontirishdir. Lisiyning notiq sifatidagi xususiyatlaridan biri, hamma notiqlar uchun zarur bo‘lgan usul – fikrni yangicha shaklga solishni juda oson egallaganligidir. Lisiyga buyurtma beruvchi odam kalandimog‘ aristokrat-mi, bir tiyinni ustidan o‘zini o‘ldiradigan chayqovchimi, xotinining makriga aldanib pand egan laqma ermi - notiq xar qaysisining tabiatiga, bilimiga jamiyatdagi o‘rniga mos keladigan, o‘zining monandligi bilan tinglovchilarni maftun etadigan uslubni topadi va shu yo‘sinda so‘zlovchining va uning nutqida nomlari zikr qilingan shaxslarning erkin portretini chizishga tuyassar bo‘ladi. Bas, shunday ekan, biz Lisiyning quli bilan yozilgan nutqlarning birontasida so‘zlovchining tabiatiga yopishmaydigan dabdabali, jimjimador va serxasham iboralarni sira ko‘rmaymiz. Lisiyning notiq sifatidagi ikkinchi xususiyati, hikoyachilik san’atini egallab olganligidir. U har qanday voqelikni sodda, jonli, qiziqarli shaklda qiziqarli hikoya qilishga usta edi. Uning notiqlik san’atidagi uchinchi xususiyat – uslubidagi aniqlik, soddalik va tabiiylik edi. Uning fikricha, biror masala bo‘yicha so‘zlangan nutq ikkinchi takrorlanmasligi kerak, agarda shu nutqni avvalgi tinglovchilar bir necha marta takror eshitsalar, nutq o‘z kuchini va ifodaliligini yo‘qotadi. Bu jixatdan, yani xar bir insonni o‘z tilida gapirtish va uning so‘zi orqali tabiatini ochish, qiyofasini ko‘rsatish borasida Yunon tarixida logograflarning birortasi Lisiy bilan tenglasha olmaydi.

Qadimgi sud qoidalariga ko‘ra sudlashuvchilarning nutqi asosan uch qismdan iborat bo‘lgan. Birinchi kirish qismida - xox da’vogar bo‘lsin, xox gunohkor bo‘lsin - sud hayatiga murojat qilib, uning iltifotini qozonishga o‘rinadi, butun nutqning markazi hisoblangan ikkinchi qismida bo‘lib o‘tgan voqealarning tafsiloti xikoya qilinadi va nihoyat nutqning xotimasi hisoblangan uchinchi qismida aytilgan gaplar va keltirilgan dalillarning to‘g‘riliqi isbotlanadi, raqibning dalillarini puchga chiqarib, o‘zini mumkin qadar badnom qilishga kirishiladi.

Lisiy sud ishiga aloqador bo‘lgan voqealarni gapirganida ularni nihoyatda oddiy so‘zlar bilan qisqa - qisqa xikoya qiladi. Yo‘l - yo‘lakay dalil va da’volarni shu bayonotga edirib yuboradi. Shu tarzda to‘qilgan nutq naqadar sodda bo‘lmasin, bu soddalik ostida yashirinib yotgan chinakam tabiiylik va ajoyib samimiyat sud xay’atining diliga etib boradi va gunoxkorga nisbatan uning hayrixoxligini ortiradi. Lisiy o‘z davri uchun va o‘zidan keyingi notiqlar uchun arziguek meros qoldirgan Buyuk notiqlimdir.

Akademik suhbat - diologlarning ustasi *Suqrot* hisoblanadi. (eramizdan avvalgi 469-399y), Suqrot dialektikasi “ironiya” ya’ni ilmoqli so‘zlardan tashkil totgan. Agar shu payttacha baxs yurituvchi taraflar o‘z nutqining kuchi hamda ishontiruvchanligiga diqqatni jamlash bilan raqiblarining chiqishini mohiyatiga unchalik e’tibor qaratmagan bo‘lsalar, shu vaqtga kelib esa ritorik arsenalda o‘z - o‘zidan ham asos ham asosga zidlikka olib keluvchi savollar paydo bo‘la boshladи. Raqiblar qarshi taraflarning asoslariga qulq sola boshladilar. Baxslar ashaddiy to‘palonlardan nafis va hozirjavob tomoshalarga aylandi. Misol sifatida quyida Suqrot maktabi namoyondalaridan birining ishtirokidagi yumoristik diologdan keyatiramiz.

- Shoxdor emasliginga ishonching komilmi?
- To‘liq.
- Uni yuqotmaganingga kelsak - chi?
- Yo‘qotmaganim o‘zim bilan.
- Shoxlarni yuqotmaganmisan?
- Yo‘q
- Demak ular sen bilan ekan.

Suqrotning Shogirdi Aflatun diolog san'atini yanada yuqori pog'onalarga ko'tardi. Aflatun diologlari - bu falsafiy drammalar hisoblanadi. Uning dialoglari chiroyli va aqilli so'zlarli tanlanishi, ko'llanilishi, joylanilishi bilan diqqatga sazovor. Buning isbotini uning "**Teetet**" asarida ko'rish mumkin. U bu asarida hamma fikrlarini Suqrot nomidan dialog shaklida beradi. Chiroyli so'zlashga juda katta ahamiyat beradi. Donolik mavzusi asarning asosiy qismini egallagan. Shu bilan bir qatorda maxmadonalik, bemaza fikrlardan foydalanmaslikka chaqiradi. Umuman, chiroyli so'zlash erkin bo'lishi, nima haqida so'zlasa ham fikrini aniq e'tirof eta olishi, ishontira olishi va xaqiqatga xizmat qilishi kerak deb biladi. Faylasuf notiqlarni shifokorlarga taqqoslaydi. Shifokor kasalga dori - darmon bilan yordam bersa, notiq o'zining aqilli va dono fikrlari bilan davolaydi deydi.

Ritorika taraqqiyotining keyingi odimini qadimgi Rim mutaxassislari ko'yishdi. Ular Ellada ustalarining tajribayonni o'z izlanishlarining natijalari bilan to'ldirgan xolda o'rghanishdi. Munozara grek polislarida bo'lganidek Rimda u darajada tarqalmadi.

Rimliklar uchun jamoatda chiqishning monolog tarzida bo'lishi muhim edi. Rim mактабида notiqlik san'ati bilan ritorika birlashdi. Grek ritorikasidan rimliklarga humor, mantiq va masalada tortishuv usullari kirib keldi. Notiqlik san'atidan esa nutq matnini tuzilmasini zo'rлиgi, iboralar tuzilmasini be'takrorligi, intonatsiyaning benuqsonligi, turish, xatti - harakat, mimika va boshqalar kirib keldi.

Tarixga nazar solinsa, eramizdan avvalgi asr boshlarida Rim imperiyasida quidorlik siyosati kuchaygan bir davr edi. U davr qul va quidor o'rtasidagi keskin kurashlar, qo'llarning noroziligiga sabab bo'lgan davr sifatida tarixda muxirlanib qolgan. Ana shunday keskin kurashlar jarayonida ijtimoiy - siyosiy xayotda so'z san'atiga e'tibor kuchaydi. Xalq orasida erkin fikrlash demokratik rux faollasha boshladi. Davlat arboblari shunday sharoitda xarbiy qurol aslaxalardan ko'ra, notiqlik – so'z san'ati bilan qurollanishni afzal deb bildilar. Natijada notiqlik san'atiga ehtiyoj tug'ilib, bu san'at tez rivojlana boshladi. Bu davr notiqlik maktablaridan Katon, aka - uka Grokxlar, Mark Antoniy, Sitseron kabi mashxur notiqlar yetishib chiqdi.

Rim mактаби Ritorika ikki usulga - **Osiyo** va **Attika** usuliga bo'linadi.

(Yunoniston janubi sharqidagi dengiz ichkarisiga ancha yorib kirgan yarim orol Attika deb ataladi.) Osiyo usuli Rimda eramizgacha 1- asrning 50 yillariga qadar xukmronlik qilib kelgan. Bu usulning namoyondalari o‘z chiqishlarini yorqin hamda extirosga to‘la teatr tomoshasiga aylantirar edilar, ularning yordamida o‘z g‘oyalarini ommaga unumli tarzda etkazganlar. Bu usulning notiqlaridan ko‘proq tanilgan *Mark Tulliy Sitserondir.* (eramizdan avvalgi 106 - 43) U Rimdan uzoq bo‘lmagan Arpina qishlog‘ida tug‘ildi. Uning ota - onasi shahar fuqorosining badavlat suvoriylar tonfasiga mansub kishilar edi. Ular o‘z bolalariga yaxshi bilim berish maqsadida Rimga ko‘chib kelishadi. Dastlabki taxsilini Yunon murabbiylari qo‘lida olgan Sitseron ilk bolaligidayoq Yunon tilini to‘la-to‘kis o‘rgandi. Yirik huquqshunos Kvint Mutsiy Sevola va mashxur notiq Lutsiy Litsiniy Krokdan ta’lim oladi. Notiqlik asoslarini Appoloniy Moloidan, aktyorlik maxoratini Aksiydan, Yunon falsafasini Filon Loriskiydan o‘rganadi. Sitseron Afinaga borib, yirik notiqlardan bu san’at sirlarini mukammal o‘zlashtiradi. Bilimini chuqurlashtiradi. Sitseron “*Brut*”, “*Notiq*” nomli asarlarida Rim Ritorika tarixi xaqida batafsil fikr yuritib, attikachilarining nazariyalariga tamomila qarshi mulohazalar bilan maydonga chiqdi. Uning ta’kidlashicha xar qanday notiqning ko‘zda to‘tgan asosiy maqsadi tinglovchining zavqini uyg‘otib, ularini o‘ziga moyil qilishdan iboratdir. Notiq sharoitiga qarab mavjud usullarning hammasidan barobar foydalana olishi zarur. Sitseron fikricha, “*kimki jo ‘n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o‘rta darajada, ulug‘ hodisalar haqida esa zavq - shavq, bilan gapirsa, shu odam so‘z san’atining chinakam ustasi bo‘ladi*”¹ deydi.

Sitseron bo‘lajak notiqning nimalarga e’tibor berishini quyidagi fikrlarda alohida ta’kidlaydi:

1. Notiq o‘z nutqini mavzusini chuqur bilishi va o‘ziga ishonchi mustaxkam bo‘lishi ustivor masaladir.
2. Nutq jarayonidagi fikr - mulohazalar tinglovchiga o‘rinsiz savol tug‘dirmaydigan xolda dalillangan bo‘lishi lozim.
3. Nutqqa tayyorgarlikning boshi etarli material to‘plashdir.

¹ Марк Туллий Цицерон. Три трактата об ораторском искусстве. М. «Наука», 1972. С.134

4. Nutqda fikr o‘rinli joylashishi, kompozitsiyaga e’tibor muhim rol o‘ynaydi.

Uning fikricha, nutq matni talabga javob berarli darajada mantiqli tayyorlanishi lozim. Shunda kutilgan natijaga erishish mumkin. Nutq kompozitsiyasi qurilishida quyidagilar alohida o‘rin tutadi.

1. Kirish

2. Mavzu mohiyatini to‘la qonli ifodalay bilish.

3. Rejani keyingi qismlarini ifodalash.

4. Dalillarni o‘z o‘rnida qo‘llay bilish.

5. Matnning asosiy qismini, mazmunini ocha bilish.

6. Xulosa.¹

Tinglovchilarni toliqtirib ko‘ymaslik uchun nutq davomida ko‘tarniki usulni bir parda pasaytirib, nutq mavzuiga aloqador shaxslar bo‘lsa, ularning goh salbiy, goh ijobiy xarakteristikasini berish, ilgari o‘tgan mashxur zotlar haqidagi biron latifani eslatib ketish, lozim bo‘lganda ba’zi bir xayotiy manzarani, dramatik voqealarni eslash, o‘rniga qarab biroz xikmatli so‘z, maqol Yoki qochiriq gapni qistirib o‘tish - Sitseronning eng sevgan usullaridan edi. Sitseron o‘zining salkam 40 yil davom etgan ijtimoiy va adabiy faoliyati mobaynida turli-tuman mavzularga bag‘ishlab behad ko‘p asarlar yozgan. Ma’lumotlarga qaraganda qadimgi zamonda Sitseronning 150 ga yaqin nutqi nashr etilgan bo‘lsa, bizga qadar shulardan 58 tasi etib kelgan. Bulardan tashqari falsafa mavzularda yozilgan 12 ta asar, notiqlik nazariyasi va tarixiga doir 7 ta risola va 800 ga yaqin maktublari saqlanib qolgan.

Attika usuli respublika tizimining qulashi hamda jamiyatda demokratik chiqish erkinligi udumlarining yo‘qolishi davrida ustunlikka ega bo‘lgan usulga aylandi. Attika usuli bir maromlilik va asoslarning qiyin masalalariga sodda yo‘l bilan yondashuvi, notiqning xatti - harakati va imo- ishorasi, ifodali o‘qishi bilan farqlanadi. Notiq o‘z nuqtai nazarini auditoriyaga hech qanday etibor bermagan xolda, bepisandlik, xotirjamlik va vazminlik bilan ifodalar edi. Attika usuli uning ashaddiy muxlisi bo‘lgan, imperiyani o‘z qo‘liga olgan Yuliy Sezar tufayli rusm bo‘ldi. Antik davrni

¹ Марк Туллий Цицерон. Три трактата об ораторском искусстве. М. «Наука», 1972. С.27

oxiriga kelib, Ritorika soxasidagi nazariy izlanishlar to‘xtadi. Jamoatda chiqishlar soxasining o‘zi esa cherkov tomonidan qo’lga olindi. Notiqlarning nutqi va ’zlarga, erkin munozaralar esa diniy maruzalarning muxokamasi shaklini oldi. O‘rta asrlarga tashakkur aytishning yagona sababi shu ediki, Sxolastlar uyg‘onish davri va undan keyingi davr uchun qadimgi dunyo bilimlarini saqlab qoldilar.

Uyg‘onish va yangi davr ritorikaga qiziqishning o‘sishi bilan xarakterlanadi. Biroq bunda yozma ifoda ustunlik qiladi: satira, pamfletlar, mushoxada va x.k. U davrda yangi talimot va konsepsiya darajasida shug‘ullanadiganlar yo‘q xisob edi. Yevropaning katta qismidagi cherkov va soslovniy xukumatning zanjirlari qulashi bilan inqilob jarayonlarining ta’siri ostida jamiyatdagi chiqishlar siyosiy faoliyatning cheksiz atributiga aylandi. Ritorika esa yevropaliklar xayotiga mustaxkam ravshda kirib boradi. XIX asrining o‘rtalariga kelib miting va yig‘ilishlar u bilan birgalikda so‘z ustaligi xatto teatr va adabiyot qatori dunyo madaniyatining bir qismini tashkil qila boshladi.

Ritorika va ritorikasining texnikasi esa yirik universitetlarning o‘quv qo‘llanmasiga kiritiladi.

Afsuski, Qadimgi Rim qulash kunidan keyingi asrlardagi so‘z ustaligi borasida fan tomonidan to‘plangan katta amaliy tajribaga qaramasdan, Ritorikava ritorika ta’limoti bo‘yicha sezilarli darajada ishlar qilinmagan va ta’lim berish soxasida ham uslubiy ishlar yaratilmagan.

Ritorikava ritorikaning nazariy shakllanishining shundayligicha chala ishlanishiga qaramay, oxirgi 200 yillik – shiddatli taraqqiyot davridir. XIX asrning Attika usuli sof xolda faqatgina britaniya Ritorika maktablarida saqlanib qolgan xolos, uning yorqin nomoyondasi konservativ partianing rahnamosi Dizraeli edi. Yevropaning quruq qismida Fransuz inqilobi davridan beri osiyo usuli ustunlik qiladi. Bu usulning ko‘zga ko‘ringan notiqlaridan bo‘lgan fransuz sotsialistlari doxiysi Jan Jores edi.

Qadimgi davrlardagi o‘zgarishlarga nisbatan jiddiy o‘zgarishlarga uchragan yagona milliy maktab, Shimoliy Amerika maktabi bo‘ldi. Qishloq sherifidan tortib, to mamlakat prezidentigacha – xukumat tarmoqlarining barcha organlar saylov tizimi va kompaniyalar saylovoldi jarayonlarining o‘tkirligi, AQSH axolisida

saylovlarda ishtirok etayotgan xar bir nomzodning notiqlik darajasiga nisbatan yuqori talabchanlikni shakillantirdi. Amerikalik notiqlarga axolining turli qatlamlari - etnik (anglo - sakslar, irlandlar, yaxudiylar, italiyaliklar va x.k.) va ijtimoiy (bir tomoidan saylovchilarning asosiy kismini - ya'ni boy bo'lмаган insonlarni o'z tomoniga og'dirishga, ikkinchi tomoidan - saylovoldi kompaniyalar uchun pul topish faqat tadbirkorlarni o'z ko'llanmasi bilan qiziqtirish orqali) oraliqda o'zlarini chiqishlarini qabul qilish jarayonida o'zaro farqni hisobga olishlariga to'g'ri kelardi. Zexn - idrok yashash darajasi, milliy va diniy mansublikdan qat'iy nazar saylovchilar kategoriyalarining barchasini yoqlashga bo'lgan ehtiyoj, Amerikalik notiqlarda yangi sintetik chiqish uslubini vujudga keltirdi. Unda osiyo usulining jo'shqinligi va attitsizmning axborotga boyligi birlashadi. Bunga protestant vaz'xonalarining qo'llaniladigan usuli qushiladi.

XIX asrda Fransiya, Italiya, Olmoniya va Avstraliyada burjua demokratik revolyusiyasining g'alabayondan keyin Ritorika yuksak darajada rivojlandi. Shuning uchun bu davr notiqlik san'atining gullah davri ham deyiladi.

Tayanch iboralar:

Mazmundor nutq, Qadimgi Gretsiya, Rimda nutq madaniyati, Qadimgi Xindiston, Xitoydagi notiqlik san'ati, Qadimgi Gretsiya ritorika ilmi, Antik davrdagi aqliy oqim – sofistika, Protagor va Demosfen, Aristotelning "Ritorika" kitobi, Lisiy va Empidok, Rimdagagi notiqlik san'ati, Sitseron, Osiyocha uslub, Attika uslubi, sud notiqligi.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Kishilarning chiroyli, mazmundor nutq masalasining tarixiyligi.
2. Qadimgi Gretsiya va Rimda nutq madaniyati nazariy asoslarining yaratilishi.
3. Qadimgi dunyoda nutq oldiga qo'yiladigan talablarning ishlab chiqilishi.
4. Qadimgi Xindiston va Xitoydagi notiqlik san'ati.
5. Qadimgi Gretsiya ritorika ilmi haqida nimalarni bilasiz?
6. Antik davrdagi aqliy oqim - sofistika haqida nimalarni bilasiz?
7. Protagor va Demosfening notiqlik san'atiga qo'shgan xissasi haqida nimalarni bilasiz?

8. Aristotelning "Ritorika" kitobi haqida fikringiz.
9. Lisiy va Empidoklning notiqlik borasidagi fikrlari. Suqrotning notiqlik san'atiga olib kirgan yunalishi haqida nimalarni bilasiz?
- 10.Qadimgi Rimdag'i notiqlik san'ati, Sitseron haqidagi fikringiz.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar va axborot manbalari.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev SH.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
3. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunasi qoidalari tasdiqlash to'g'risida” (*O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda*)lex.uz
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T., Ma'naviyat. 2008.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018y.
2. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O'quv qo'llanma - T.: Universitet, 2017.
3. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2017.
4. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
5. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
- 6.Bekmirzasv N. Ritorika asoslari. -T.: Yangi nashr, 2008.

- 7.Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat, 2005.
- 8.Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati.T.: Ta’lim nashriyoti, 2009.
- 9.Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev YO. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.: O‘qituvchi, 1992.
- 10.Qudratov T. Nutk madaniyati asoslari. -T. “O‘qituvchi”. 1993.
- 11.Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
- 12.Pulatova D.A., Jalolova O‘.K., Ro‘zmatova G.M. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma – T.: Premier print, 2011.
- 13.Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtieod-molil, 2009.
- 14.Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma – T.: Universitet, 2014.
- 15.Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o‘quv qo‘llanma. –T., Universitet. 2012.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

- 1.Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. - T “O‘zbekiston”. 1981.
- 2.Apresyan G.R. Oratorskoe iskusstvo.- M 1978
3. Husain Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. T.: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2010.
- 4.Aristotel Ritorika. - M 1998
- 5.Abdiev M. Til boyligi el boyligi. “Muloqot” № 5 2001 B31-32
- 6.Aserenseva S. Oratori Gretsi. – M. «Xud. lit» 1985.
7. Golub I.B. Kniga o xoroshey rechi - M 1997.
- 8.Ianova S.F. Uchitsa ubejdat. Beseda ob oratorskom iskusstve – M.1989.
- 9.Qur’oni Karim - T. “Cho‘lpon” 1992
- 10.Bobomurod A. - Islom odobi va madaniyati. - T.”Cho‘lpon” 1995
- 11.Bezmenova N.A. Ocherki po teorii i istorii ritoriki.- M. Nauka 1991
- 12.Mixnevich A.E. O krasnorechi v shutku i vseryoz. – M. Znanie. 1989
- 13.Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - T “O‘qituvchi”. 1995.

- 14.O‘zbekiston Milliy Endiklopediyasi. T. 6. 2003
- 15.Demosfen // Vsemirnaya istoriya po noveyshim sochineniyam professorov Bekkera, Reymonda, Lavissa, Iegera, Shillera, Kemmelya (Shpamera), Dyuryui, Kostomarova, Ilovayskogo, Soloveva i mnogix drugix. T.1.: Drevnee vremya. - SPb., 1902.
- 16.Bertran Rassel, Istorya zapadnoy filosofii eyo svyazi s politicheskimi i sotsialnimi usloviyami ot Antichnosti do nashix dney, M., «Akademicheskiy Proekt», 2006 g., s.109
- 17.Mark Tulliy Sitseron. Tri traktata ob oratorskom iskusstve. M. «Nauka», 1972. S.134

3 – Mavzu. O‘rta asrlar musulmon sharqi mutafakkirlarining Ritorika

xususidagi ta’limotlari.

Reja:

1. O‘rta asrlar musulmon Sharqida notiqlik san’atining vujudga kelishi.
2. Mavorounnaxrda badiiy notiqlik.
3. Abu Nosir Forobiy: fikrni qanday bayon etish kerak.
4. Ibn Sino va Beruniyning notiqlik san’atiga qo‘sghan xissasi.
5. Kaykovus: notiq so‘zining ma’nolari.
6. Navoiy so‘z xususida.
7. Maktub yozish madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari
8. Qur’oni Karim va Hadisi sharifda muomala, chiroyligi so‘z xususida.
9. Tasavvufda hilmlik, muloyimlix, shirinso‘zlik to‘g‘risida.

O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi ham so‘zga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelganlar. O‘sha davrda ritorika voizlik, notiqlar voizlar, nutq esa va’z deb atalgan.

O‘rta Osiyo xalqlari, xususan, IX - XV asrlarda dunyo madaniyati taraqqiyotining eng oldingi, yetakchi saflarida turish darajasiga ko‘tarila oldi. O‘rta asr fani madaniyati Xorazmiy, Farg‘oniy, Farobi, Ibn Sino, Beruniy Maximud Qoshg‘ariy, Jomiy, Navoiy kabi ulug‘ siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi. Bu mutafakkirlar yashagan davr Sharq tarixida Uyg‘onish davri deb ataladi. Bu davrda madaniyat ilm-

fan ravnaq topdi. Fan va madaniyat targ‘ibotchilar – voizlar yetishib chiqdi. Voizlikni qadrlovchi fikrlar vujudga keldi. Sharqda, jumladan Mavorounnaxrda badiiy, ilmiy ijodning tarakiyoti bilan, shuningdek, va’zxonlik, "Qur’on" ni targ‘ib qilish bilan mushtarak xolda so‘zning ahamiyati, ma’nosи va undan maksadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko‘p yaxshi fikrlar aytilgan. Insoniyatni boshka maxluqotlardan ajratib turadigan ham so‘z bo‘ladi. Insonga fikrini ijro etish uchun so‘zga ko‘shib aql berdi. Nutq esa til orqali amalgalashadi. Buyuk allomalar Beruniy, Farobi, Ibn Sino, Xorazmiy, Qoshg‘ariy, Zamaxshariy tilga, lug‘atga, grammatikaga va mantiqshunoslikka bag‘ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa soxaga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

Sharqning mashxur mutafakkiri *Abu Nasr Farobi*dir. U iqtisodiy va siyosiy ziddiyatlar kuchaygan bir davrda yashab ijod etdi. Farobiylar ilmning turli soxalarini mukammal bilgan va ular haqida mustaqil fikrlar bayon qilgan Buyuk insondir. Farobiylar axloqli kishilarning 12 muxim sifatini ko‘rsatadi va shundan beshinchisi sifatida tilga olingan notiqlik haqida gapirib: "*so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin.*" – deydi. Farobiyning chiroyli, tartibli, tasirchan qilib so‘zlash masalalari haqidagi mulohazalari ritorika, poetikaga oid asarlarida uchraydi. Farobiyning o‘zi esa, manbalarda zikr ztilishicha, shirin so‘z, xozirjavob, xar qanday qiyin masalalarni ham bir zumda xal etib beruvchi faylasuf - notiq bo‘lgan.

O‘rtalasharqining Buyuk allomalari orasida mashxur tabib, faylasuf shoir *Abu Ali Ibn Sino* alohida o‘rin tutadi. Uning turli soxalar bilan birga ta’lim - tarbiya, axloq va nutq haqida ham fikrlari mavjudki, ularni o‘rganib chiqish notiqlik sanati tarixi saxifalarini yana ham boytgan bular edi. Ibn Sino yaxshi tarbiyachi, notiqni yaxshi do‘st sifatida tilga oladi va notiq kunidagilarga amal qilishi lozim deb biladi:

1. Nasixat (nutq) ko‘pol ohangda berilishi kerak emas;
2. Suhbatdoshning ilm darajasini xisobga olish zarur;
3. Nasixatga ko‘p berilmaslik kerak, uni o‘rtoqlik suhbati tarzida olib borish kerak;
4. Nasixatni muloyim ohangda, yolg‘iz olib borish kerak;

5. Agar ta'na kilmoqchi bo'lsang, boshqalar kamchiligi bilan kiyoslab ta'na kil;
6. Agar o'z e'tiqodingni aytmokchi bo'lsang, faqat bir ma'lumotga tayanma, balki ko'p masalalar bilan isbotla, suhbatdoshingni buni yuragiga Yaqin olishiga, shu narsa haqida o'ylashga va xaqiqatni izlashga ishontir.
7. Agar suhbatdoshing sening gaplaringga e'tibor bilan qulq solayotgan bo'lsa, suxbatni oxirigacha davom ettir va hech nimani sir saqlama, lekin uning e'tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga bur.¹

Ibn Sino suhbat o'tkazishdan ilgari, suhbat o'tkazuvchi kishinnig o'z suhbat karatilgan predmetni, shaxs faoliyatini chuqur, har tomonlama o'rganishi, biror kamchilikin ham chet lab o'tmasligi lozimligini, suhbatning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lishini aytadi. Suhbat mavzunda e'tibordan chet ta qoldirilgan, lekin aytish lozim bo'lgan kamchiliklarni Ibn Sino "*Sirti tuzalgan, lekin ichidan yiringlab ketgan yara*" ga o'xshatadi. "*Vaqti bilan yiringga o'xshab kamchilik kuchga kiradi va o'zining yaramas va be'mani qiyofasini ko'rsatadi*" – deydi u. Ibn Sinoning fikricha ayniqsa hukmdorlar ana shunday suhbatlarga tortilishi lozim. Odamlar hukmdorlardan qo'rqlishi tufayli, - deydi Ibn Sino, ularning kamchiligi ko'rsatilmaydi.

Buning natijasida ular o'z qilmishlarini benuqson deb xissoblaydi va xulqlari buzila boshlaydi. Bu xol davlat ishiga yomon ta'sir qiladi. Bunday paytda qo'rmasdan xatolarni ko'rsatish davlatning mustaxkamlanishida katta ahamiyatga ega ekanligini uqtiradi. Bu esa o'z davrida Ibn Sino notiqlikda demokratik fikrga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bu fikrni aytish ham katta jasoratni talab qilar edi chunki o'sha davrda tengsizlik hukmron edi.

Buyuk qomusiy olim *Beruniy* (1973-1048) o'zining "Geodeziya" asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lishi va tarmoqlanib ko'payishi haqida so'z yuritib xar bir fanning inson xayotidagi zaruriy talabi yuzaga kelishini aytadi.

Beruniy nutqning ikki hil nasr, nazm ko'rinishi borligini ko'rsatadi. Nutqning bu turlari ma'lum qoidalar asosida shakllanadi. Nazm naxv qonun-qoidalari, nazm aruz

¹ M. Baratov. Ibin Sino etikasi. T.:1969. B 20-21

talablariga binoan tuziladi. Aruzga qaraganda naxvning ta'sir doiralari keng, u nasr uchun ham, nazm uchun ham zarur. Beruniy yozadi: “*Naxv (grammatika) nasrda va aruz (she'r o'lchovi) nazmda (aytilgan) so'zning me'yorini o'lchovchi va xatosini aniq ikkita mezon bo'lib qoladi, lekin naxv bular ikkisining umumiyyrog'i idir, chunki u nasrni ham nazmni ham birgalikda o'z ichiga hamrab oladi*”¹.

Beruniy shakl va mazmun birligiga katta ahamiyat beradi. Uningcha shaql mazmunga xizmat qilishi kerak. Mazmunsiz xar qanday chiroylı shaql ham el orasida e'tibor qozonmaydi. *Nutqning nasriy shaklida ham, nazmiy shaklida ham mazmun bosh mezondir.*

Qadimgi sharq notiqlik san'atiga katta xissa qo'shgan mutafakkirlardan yana biri *Kaykovusdir*. Uning notiqlik va nutq haqidagi fikrlari "Qobusnama" asarida bayon etilgan. Kaykovus notiq so'zning ma'nolarini xar tomonlama o'rgangan bo'lishi kerak deb hisoblaydi. "*Ey farzand so'zning yuz va orqa tomonnni bilgil, ularga riosa qilgil, so'zlaganingda manali gapir, bu notiqlik alomatidir. Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilsang, qushga o'xshaysan, bunday qushni to'ti deydilar*". "*Shunday kishini notiq (Suxango'y) deymizkim, uning xar so'zi xalqqa tushunarli bo'lsin va xalqning xar so'zi unga ma'lum bo'lsin. So'zlaganda o'ylab, xar bir fikrdan kelib chiqadigan xulosani ko'z oldiga keltirib gapirgan notiq pushaymon bo'lmaydi. O'ylamasdan so'zlama, xar bir so'zni o'ylab gapir, to aytgan so'zingdan pushaymon bo'lmagaysan*". "*Bilag'onlik*" qilib tildagi so'zlarni buzib so'zlamaslikka, hamma vaqt mavjud til me'yorlariga amal qilishga chaqiradi: "*Agar so'zni va ilmni yaxshi bilsang ham hech bir so'zni buzma to'g'ri ta'rifla. So'zni bir hil gapir*"²- deb uqtiradi alloma.

Kaykovusni «Qobusnama» asarining «Suxandonlik bilan baland martabali bo'lmoq zikrida» deb nomlangan yettinchi bobda suxandonlikning mohiyati, zarurati, shartlari va xususiyatlari bilan bog'liq muhim fikrlarni ilgari suradi. Suxandonlikning muhim shartlari – rostgo'ylik hamda nomaqbul rostni aytishdan

¹ Beruniy to'la asarlar. T.:T.3 1982 B.64

² Kaykovus. Qobusnama. T.:Istiqlol 994. B37

tiyilishda, so‘zni g‘oyatda ulug‘ligini xis qilish hamda so‘zni uvol qilmaslikda, so‘zning o‘rnida qo‘llay olish hamda undan oqilona foydalanishda deb biladi¹.

Qobusnomada aytishicha ***birinchidan*** notiqlikni egallashning yo‘li tinimsiz mexnat, o‘rganishdir.

Ikkinchidan, nutqing go‘zal bo‘lsin. So‘zning ikki tomoni bordir: biri go‘zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin.

Uchinchidan: Xar bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to‘g‘ri yo‘l topa bilish, shaqlga e’tibor berish masalasi, Yani bir so‘zni bir ibora bilan aytsa eshitgan kishining ko‘ngli parishon bo‘ladi, shu so‘zni boshqa bir ibora bilan aytsa, eshitgan kishining ko‘ngli baxra oladi.

To‘rtinchidan: xar bir so‘z to‘g‘ri va asosli bo‘lmog‘i lozimligi uqtiriladi.

Beshinchidan: Bilmagan ilmdan gapirmagil... Bilmagan ilm ma’rifatni bilanan deb da’vo qilsang hech narsa hosil bo‘lmaydi va bexuda zaxmat chekasan.

Oltinchidan: Ilgari o‘ylash bir nav karomatdir. Ya’ni tayyorgarliksiz nutq bo‘sh chiqadi.

Ettinchidan: kamtarlikin ulug‘lab: Xar qancha dono bo‘lsang ham, o‘zingni nodon bilgil, toki senga ilm o‘rganish eshigi ochiq bo‘lgay.

Sakkizinchidan: Amaldorlar bilan amaldordek, oddiy odamlar bilan oddiy odamlardek so‘zlashgil, donishmandlik chegarasidan chiqma, so‘zingni eshitgan kishiga og‘ir tuyulmasin.

To‘qqizinchidan; nutqda qisqalik va aniqlik bo‘lishi kerakligi aytadi. Ko‘p bilu, oz so‘zla . Shunday so‘zlagilni, so‘z bekor ketmasin.

O‘ninchidan: So‘z eshitishdan qochma, kishi so‘z eshitish bilan notiq bo‘ladi. Odamlar orasida o‘zingni odamlardek tut, insonga insondek munosabatda bo‘l. Nutqni egallahidan maqsad, xalq diliga yo‘l topa bilishdir, deb biladi va "agar ko‘ngillarga sevimli bo‘lishni istasang, xaloyiqning maqsadini so‘zla ",² - deydi.

Umuman "*Qobusnama*"da notiq bo‘lish fazilatlari va yo‘llari haqidagi

¹Kaykovus. Qobusnomalar. T.:Istiqlol 994. B36

² O‘sha manba. B 39-41

nasixatlar cheklangan bo‘lishiga qaramay, xozirgi kunda targ‘ibot va tashviqotda, notiqlarning o‘z faoliyatlarini yo‘lga ko‘yishlarida muhim ahamiyatga ega.

Notiqlik va Ritorika borasida ham Sharq, xususan Mavorounnahr va Xuroson maktabi namoyondalari jahon madaniyatining gultojisi sifatida ajralib turadi. Bu borada notiqlik san’atida o‘ziga xos maktab yaratgan *Husayn Voiz Koshify* (1440-1505) butun Xuroson diyorida Husayn Bayqaroning voizi, ta’birchisi, maslahatchisi sifatida mashhur edi. U musulmon xalqlariing muqaddas kitobi qur’oni Karimga oddiy xalq tushunadigan qilib, soddalashtirib, to‘rt kitobdan iborat sharh yozgan. Koshify o‘z zamondoshlaridan farqli o‘laroq, yuzni o‘qish san’ati bo‘yicha ham ibratlari fikrlarni bayon qilgan. Voiz Koshify insonning chehra, soch, qulqoq, tishiga qarab axloqini, fe’l-xuyini aytib berish iste’dodiga ega bo‘lgan ajoyib xislat sohibi edi. Uning nomi ismi hozir ham tillardan tushmaydi.

Koshify Voiz sifatida o‘z davrining mashxur kishilaridan bo‘lish bilan birga, o‘z davrining zabardast olimi, astranomi, shoiri ham edi. Navoiyning e’tarof qilishicha, Xusayn Voizning "*Ozfan bo‘lgaykim, daxli bulmag‘ay, hususan, vaz, insho va nujumki aning xaqqidur va xar qaysisida mutaayin bor*" Uning nutqlari jo‘shqin va extirosli bo‘lganligidan kishilarni ko‘plab jalb etar edi. Xusayn Voiz Koshifiyning nutqlarini ta’sirchanligi va jozibadorligini, uning o‘gli Faxriddin Ali Safiy "*Latoyifut tavoyif*" nomli asarida shunday voqeani keltiradi:

"Kunlarning birida axli majlisga Mavlono Sayid G‘iyosiddin degan mashxur so‘z ustasi ancha kechikib kelgan. Shu majlisda Abduraxmon Jomiy ham bor ekan. Sayid G‘iyosiddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so‘rabdi:

Nechuk kechikdingiz, Mavlono G‘iyosiddin?

Meni ma’zo‘r tuting, ustod, - debdi G‘iyosiddin, kelayotgan edim, masjidi jome’da Xusayn Voiz nutq suzlayotgan ekan, shunga maxliyo bo‘lib qolibman"

Ko‘rinadiki, Xusayn Voiz Koshifiyning nutqlari o‘zining jozibadorligi bilan xar qanday kishini jalb qila olgan. Xusayn Voiz Koshify notiq sifatida shunday e’tiborli bo‘lganki, Xondamirning yozishicha, u aniq jadval bilan ishlashga majbur bo‘lgan. Koshifiyning "*Futuvvatnomai Sultoniy*" yoxud javonmardlik tariqati asarida suhbat odobi haqida shunday deyiladi.

Bilgilni, odamzodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga riosa qilmagan odam bu sharafdan bebahradir. So 'z hamma vaqt savob uchun ishlatalishi, to 'g'ri va haqqoniy bo 'lishi kerak. Agar shunday bo 'lmasa jim turgan maql. Agar martabaga erishganlar suhbatda qaysi qoidalarga amal qilishi kerak, deb so 'rasalar, aytgil, quyidagi sakkiz qoidani saqlashlari kerak:

1. Xar kimning axvoliga qarab, munosib so 'z aytsin.
2. Dag 'allik kilmasdan, lutf va muloyimlik bilan gapirsin.
3. Gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin.
4. Ovozini baland ko 'tarmasin. Eshituvchilarga malol keltirmaydigan qilib gapirsin.
5. Odamlarga naf'i tegadigan ma 'noli gaplarni gapirsin.
6. Agar so 'zning qimmati - qadri bo 'lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug 'larning so 'zi bamisoli urugdir, agar urug puch Yoki chirigan bo 'lsa, uni qaerga ekmang unib chiqmaydi.

Agar martabaga etmaganlarning suhbat odobi nechta deb so 'rasalar, bu ham sakkizta deb aytgil.

1. So 'ramagunlaricha gapirmsasin.
2. Gapirayotganida ovozini baland ko 'tarmasin.
3. Gapirayotganida o 'ngu - so 'liga qaramasin.
4. G 'arazli va kinoyali gaplarni gapirmsasin.
5. Qattiq gapirmsasin va betga choparlik qilmasin.
6. Pushaymon bo 'lmaslik uchun o 'ylab gapirsin.
7. Odamlar gapini bo 'lib so 'z kotmasin.
8. Ko 'p gapirmsasin. Chunki ko 'p gapiresh aqli noqislik belgisidir. Oz bo 'lsa ham, ammo soz gapireshni shior etsin.

Agar qaysi til bilan so 'z so 'zlaysan deb so 'rasalar, sidqu sadoqat tili bilan, deb aytgil. Agar so 'zni qaysi qulqoq bilan eshitasan deb so 'rasalar, qabul qulog 'i bilan, deb aytgil.

Agar so 'z senikimi Yoki sen so 'znikimi, deb so 'rasalar, aytgil: men so 'zni va so 'z menikidir. Chunki so 'z insonlik daraxtining mevasidir. Daraxtni mevadan,

mevani esa daraxtdan ajratib bo‘lmaydi. Agar nuksonli so‘z qaysidir, deb so‘rasalar, xudo va Rasulning so‘ziga muvofiq kelmaydigan so‘z, deb javob bergil.

Agar yaxshi so‘z qaysi, deb so‘rasalar, kishilarga naf‘i tegadigan so‘z, deb aytgil. Yomon so‘z qaysi, deb so‘rasalar birovga zarari tegadigan so‘z deb javob bergil"¹

Koshifiyning nutqlari mazmundorligi, ta’sirchanligi, o‘ziga jalb etish quvvatini mujassam etganligi uchun uning texnikasini o‘rganish xozirgi davr notiqlari uchun ham xarakterlidir.

Yusuf Hos Xojib XI asrning atoqli shoiri, mutafakkiri, davlat arbobidir. Uning qalamiga mansub "Qutabg‘u bilig" (Baxt saodatga eltuvchi bilim) asarining etginchi bobi "*til odobi*" deb ataladi. Unda shoir o‘qish va bilim olishda tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli so‘zlash, tilga ortiqcha erk bermaslik va boshqalar haqida ibratli o‘gitlarni aytib o‘tadi.

Ortiq so‘zda aslo bularmi foyda

Ziyondan bo‘lak yuq so‘z ortiq joyda²

Yusuf Hos Xojib shoir sifatida badiiy so‘zning qimmatini, ta’sir kuchini aloxida ta’kidlaydi, yaxshi so‘zni xar qanday oltin va kumushdan ham qimmatliroq deb biladi. Uning fikricha notiq - zimmasiga mas’uliyat yuqlangan shaxsdir.

Bu tildan qadr topar qut kishi,

Noo ‘rin esa - chi yorilar boshi.³

Inson tili tufayli baxt - saodatga erishadi, qadr topadi. Agar aksincha bo‘lsa Ya’ni tilga e’tiborsizlik, noo‘rin so‘zlash "*boshni yoradi*" insonni obro‘sizlantiradi. Ezgu so‘zli kishi mangu yashaydi. Shuning uchun u kishilarni so‘zgasa tilga e’tiborli bo‘lishga chorlaydi.

Tug‘ulgan o‘ladi, kolarmi nishon,

So‘zing ezgu bo‘lsa, - mangusan ishon⁴.

So‘z eng johil kishilarni yumshata olish, insonlarni xayrli ishlarga chorlash kuchiga ega. Yusuf Hos Xojibning quyidagi fikrlari bunga yaqqol misoldir:

¹ Koshifiy "Futuvatnomai Sultoniy" yoxud javonmardlik tariqati. T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi.1994. B.57-58.

² Yusuf Hos Xojib. "Qutabg‘u bilig" T.: "Yulduzcha".1990. B.12

³ O‘sha manba. B.16

⁴ Yusuf Hos Xojib. "Qutabg‘u bilig" T.: "Yulduzcha".1990. B.16

*Qoraboshning yovi qizil tildir,
U qancha boshlarni edi, yana ham eydi.
Boshim omon bo 'lsin desang tilingni extiyot kil,
Tiling istalgan bir kunda boshingni eydi.*¹

So‘z mulkining sultonisi Alisher Navoiy ijodida so‘z, nutq, notiqlik masalalariga katta e’tibor berilgan. Uning nutq madaniyati, nutq odobi haqidagi fikrlari “Maxbub ul-kulub” asaridagi bir kecha bob nutq odobi masalalariga bag‘ishlangan: *Insonining odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so‘zi, nutqidir... Befoyda so‘zni aytma va foydali so‘zni ko‘p eshiturdan kaytma.*² Navoiyning fikricha, voiz quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim:

1. Voizning so‘zlari ta’sirchan va foydali bo‘lmog‘i lozim “*Voiz kerakki, Qolallox so‘z aytsa*”
2. Nutq tinglovchi uchun Yangilik bilimlar va o‘zgarishlar xabarchisi bulmog‘i lozim. “*Va’z bir murshid va ogoh ishidur va aning nasixatin qabul etgan maqbul kishidur*”
3. Notiqning o‘zi biror soxani egallagan bo‘lishi va undan so‘ng va’z orqali kishilarga ta’sir etishi lozim. “*Avval bir yo ‘lni bormoq kerak, Andin so‘ng elni boshqarmok kerak*”
4. Notiq olim va bilimdon xar narsadan xabardor kishidir. “*Voizkim, bulgoy olim va muttaksh - aning nasixatidin chiqkan shakiy*”
5. Notiqning so‘zi bilan ishi bir bo‘lmog‘i lozim. Aks xolda nutqning tasiri bo‘lmaydi. “*Ulki buyurib, o‘zi qilmag‘ay hech kimga foyda va asar so‘zi qilmag‘ay*”³
6. Alisher Navoiy notiqlikda qisqalik va ravshanlikni yoqtiradi. Bu jixatdan uning “*Maxbub ul qulub*” asaridagi 60 - tanbexi o‘rinlidir.

“*Chin so‘z mu’tabar, Yaxshi so‘z qisqa muxtasar, kimning miyasida illat bo ‘lsa – so‘zida mantiq bo ‘lmaydi. Ko‘p deguvchi mumil, mukarrar deguvchi la ‘ya qil*” Ya’ni chin so‘z e’tiborli, yaxshi so‘z qisqa bo‘ladi. Ko‘p so‘zlovchi zeriktiruvchi, qayta

¹ O‘sha manba. B.18

² A.Navoiy. “Maxbub ul-qulub” T.: “Fan” 1987. B. 82

³ A.Navoiy. “Maxbub ul-qulub” T.: “Fan” 1987. B. 74

gapiroq - aqldan ozgan deb takidlaydi.¹

Navoiy so‘zning hashamadorligidan ko‘ra haqqoniyligini ulug‘laydi.

O‘sha davrning mashxur notiqlaridan biri Mavlono Riyoziyning notiqlik faoliyatida nutqni harakat bilan, mimika bilan qo‘shib olib borish ustun bo‘lgan. Navoiying yozishicha, «Va’z aytib, minbarda o‘z ash’orin o‘qub, yig‘lab vajdi xol qilur».²

Navoiy tuturiqsiz gap bilan kishilarining g‘ashiga teguvchilarni aqli past, nosog‘lom kishilardir deb baholaydi. "Ulkim, dimog‘ida habt -so ‘zida yo‘q pabm" Ya’ni kimning dimog‘ida illat bo‘lsa, so‘zida bog‘lanish yo‘qdir deb ta’kidlagan. "Dimog‘i sahih - guftori fasih" ya’ni miya sog‘lom bo‘lsa, gap so‘zi ham yoqimli va xatosiz bulur. "So ‘zi hisobsiz, o‘zi ixtisobsiz" yoki "So ‘zida parishonlik, o‘zida pushaymonlik"³ va boshqalarni keltirish mumkin.

Navoiy ijodida suhbat va nutq odobi qoidalari qiyomiga etkazib bayon etilgan. Navoiy so‘zning xashamadorligidan ko‘ra, haqqoniyligini ulug‘laydi. *Fikrning xalq uchun foydali va tushunarli bo‘lsin desang, sodda tilda gapir* deydi.

Navoiyning til va nutq odobi, nutq madaniyati, nutq san’ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyati borasidagi boy va noyob merosi maxorat bilan umumlashtirilgan.

Maktub yozish madaniyati – yozma madaniyatning beba bo‘lagi hisoblanadi. Maktub avvalo fikrlashga, atrofga razm solib qarashga, yaxshi-yomonni tanishga, har narsaga mustaqil baxo berishga, o‘z fikriga ega bo‘lishga, kuzatuvchanlikka o‘rgatadi. Shular barobarida maktub yozish inson ijtimoiy faolligining eng yorqin ko‘rinishlaridan biridir.

Daholarning bir birlari bilan bo‘lgan yozishmalariga nazar tashlasak. Ular mazmun va mohiyat jihatidan Yuksak darajadagi insonparvarlik, vatanparvarlik, sadoqat tuyg‘ularining go‘zal madaniy namunaini ko‘rishimiz mumkin. Bu borada Abu Rayhon Beruniyning Ibn Sino bilan yozishmalari, Ibn Sinoning Bahmanyor al-

¹ A.Navoiy. "Maxbub ul-qulub" T.: "Fan" 1987. B.75

² O‘sha manba B. 84

³ O‘sha manba. B.78

Ozorbayjoniya bitgan maktublari va hokazo xiradmand va donishmand kishilarning bir-birlari bilan ilmiy, ma'rifiy va maishiy sohalarga doir maktublari xalqimizing madaniy yodgorligi sifatida qadrlidir. Ayniqsa, Hazrat Navoiyning «Munshaot» deb nomlangan asariga jamlangan maktublar o‘zining ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma'rifiy hamda jamoatchilik manfaatlariga ko‘ra Yuksak ahamiyatga ega. Navoiyning maktublari ko‘proq sultanat valiahdlariga bitilganligi qayd qilinadi. Xususan, Badiuzzamon Mirzoga yozgan insholaridan Navoiyning o‘z zamonasining fozil, hokisor va mehribon hukamo kishisi bo‘lganligini ilg‘ash qiyin emas. Navoiy o‘z xatlarida davr nuqtai-nazaridan turib bebosh shahzodalarni tartibga, shafqatga, adolatga va hamkorlikka chaqiradi: bu xatlar Navoiyning ijtimoiy va insoniy qarashlarini ifodalaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning asrimiz boshlarida yozib qoldirgan o‘quvchilar uchun tuzilgan «Kitobal-ul atfol» darsligi va unda bayon etilgan xat yozish shartlari va maktub odoblarini xalqimiz muomala madaniyatining ziynati sifatida qadrlash mumkin. Chunonchi, mazkur darslikning «Xat yozmoq shartlari»da «yozilaturgon so‘zlar ichig‘a har kim bilmayturgon lug‘at mumkin qadarincha yozmasg‘a va inchunin, avomcha va ko‘chagi iborat va ayb sanalaturgon kalima va laqablarni yozmas»likni aytadi. Shuningdek, «Maktubg‘a haqorat, ta’na, hazl, fisq va gunohga taluq so‘zlar aslo yozilmasun» deb uqtiradi. Behbudiy taklif etgan maktub odobining go‘zallagini qo‘yidagi matnlar orqali bilishimiz mumkin:

Farzandning otaga yo‘llaydigan maktubida

«Mehribon otajonim xizmatlarig ‘a!

Tangrim soyai davlatingizni boshimdin eksik etmagay, aziz qiblagohim!

Bu aqshom uyg‘a janobi halifamni ziyyoratg‘a taklif qildim. Onajonim dedilarki, go‘sht va birinj yo‘qtur, marhamat aylab, taomg‘a kerakli nimasalarni olib xizmatkordan yuborsalar, hursand bo‘lur edim, afandim.

qulingiz...» deya murojaat qilish kerakligi uqtiradi.

Farzandning onaga yo‘llaydigan maktubida esa:

«Sevikli onam huzuri sharifalarina!

Parvardigorm doim sizni eson saqlasun.

Onajon!

Mehribon opamni uyig‘a borganingizga o‘n kun bo‘ldi. Men sizni ko‘b sog‘indim. Boray desam, maktabdan qolurman. Ani uchun iltimos qilarmanki, emdi uyg‘a kelsangiz, yo‘lingizg‘a ko‘z tutarman, validajonim!

Mushfiq opamg‘a salom aytarmen.» degan samimiyl fikrlar bildirilishi maqsadga muvofiq.

Shogirdning ustoziga yo‘llaydigan maktubining odobi qo‘yidagicha aks etishi talab etiladi:

«Janobi ustodi kiromim huzuri anvorlarina!

Parvardigorim fayzu muhabbatu ustodonalarini bizdin eksik etmagay.

Boisi donish va saodatim, janobi mavlom!

Hazrati vohib-al-atoyi o‘tgan aqshom bandangizg‘a bir o‘g‘ul birodar ato etdi. Shul sababli bukun janobi validam xizmatlariga turmog‘im lozim bo‘ldiki, maktabg‘a borolmag‘animga janobingizdan afu tilarman, afandim!»¹

Mahmudxo‘ja Behbudiyning mazkur qaydlari xalqimiz azaldan so‘zga, matnga, matn mazmuniga jiddiy e’tibor bilan qaraganligidan dalolatdir.

Bugungi kunda kompyuter texnikasining imkoniyatlari qog‘oz orqali maktublar yozish uchun deyarli ehtiyoj qoldirmadi. Endilikda bir-birimizga qiladigan yozma muloqotimiz elektron pochta, E.mail, SMS orqali amalga oshirilmoqda. Ammo, texnikaning bunday imkoniyati insonning yozma nutq madaniyatini yuqsaltirdi, desak xato qilgan bo‘lamiz. Chunki, bugungi kunga kelib kundalik faoliyatimizda ishlatilayotgan so‘z boyligimiz shunchalik nochorki, yozma matn haqida gapirmsa ham bo‘ladi. Vaholangki, yozma nutq madaniyatimizga ta’sir ko‘rsatuvchi vosita va omillarning o‘zi tahrirga muhtoj.

Qur’oni karim va Hadisi sharifda ham so‘z va nutq haqida fikrlar berilgan. Qur’oni karimda insonning aytilgan so‘zini, xar bir xatti-harakatini, qiladigan ishini, tartibga soluvchi qator hukumlar bor. Islom me’yor, mezon va mutanosiblikni mushtarak etuvchi bir manzuma sifatida insonning og‘zidan chiqadigan xar bir kalimani muayyan asoslar bilan izga soladi. Qur’oni karimda *"U biron bir kalimani so‘zlay*

¹ Begali Qosimov «Karvonboshi» // Yoshlik. 1990. №1. B.66

boshlar ekan, yonida uning so‘zlarini taftish qiluvchi nazoratchi turadi" degan oyat mavjud. Oyatning mazmuni shundan iboratki, og‘izdan chiqayotgan xar qanday so‘zlar odamlar orasida tezlik bilan o‘z bahosini oladi. Shunday ekan, inson yoqimli, foydali, zaruriy mavzularda so‘zlamog‘i, behuda va ma’nisiz so‘zlardan extiyot bo‘lmog‘i lozim. Hadisi sharifda ta’kidlanishicha: "So ‘zning foyda - zasarini o‘ylab so‘zlagan kishi odamlar oldida Buyuk o‘rin olgani kabi Alloh maolo qoshida ham marhamatga tegishli odam bo‘ladilar. Aqli bor odam xar vaqt o‘ziga zasar keltiradigan so‘zlardan saqlanur... Musulmon odam, o‘zini Allohga topshirgan kishi yolg‘on so‘zlashga yo‘l qo‘ymas. O‘ziga foydali, zasarli bo‘lishiga qaramasdan xar vaqt to‘g‘ri so‘zlar. Yolg‘on so‘zlamoqlik qo‘lidan ish kelmaydigan tuban kishilar odatidir. To‘g‘ri so‘zlaydigan odam o‘z ishini bajaruvchi, ishida sobit turuvchidir. Shuning uchun u va ’da qilsa, va ’dasini amalga oshirur"¹.

Mavlono Muin Voiz nutqning ijrochilik tomoniga alohida e’tibor qilgan va butun xattig‘harakatlarini, mimikasini ishga sola bilganki, garchi u o‘zini «Muin devona» deb e’lon qilgan bo‘lsada, uning «devona sifat» gaplari xalq qalbiga Yaqin bo‘lganligidan yig‘ilganlarga manzur bo‘lgan.

Tasavvufda muomala madaniyati. Tasavvuf – holislik ta’limidir. Tasavvuf – muomala madaniyati hamdir. U til va dil yumshoqligiga, o‘zgalardan keladigan ranju ozirlarni ham xalimlik bilan, bartaraf qilishga o‘rgatadi. Axmad Yassasiyda shunday deyiladi:

*Sunnat ermish, kofir bo‘lsa, berma ozor, Ko ‘ngli qattiq dilozordan xudo bezor.*²

Hadisi sharifda ham so‘z va uning qudrati xakida ajoyib fikrlar keltirilgan: "*Munofiqning belgisi uchtadir: yolgon so‘zlash, va ’dasini ustidan chiqmaslik va omonatga hiyonat qilish*".

"Tangri nazdid eng yaxshi gap rost gapdir".

"Qaysi birlaringda jaxlu g‘azab qo‘zisa, darxol u sukut saqlashga o‘tsin."

"So ‘zda sehr bor, she’rda esa xikmat".

¹ Quroni Karim T."Cho‘lpon" 1992 B.121

² Axmad Yassaviy hikmatlar. T.: G‘ofur G‘ulom 1991.B.9

"Quloqqa yomon eshitiladigan gapdan saqlan". "Kishining go'zalligi uning tilidan bilinur".

"Sizlarning yaxshilaringiz – xushxulq, shirin suhbatlilaringizdir. Yomonlarigiz esa og'zini to'ldirib, ezmalik ila ko'p gapiruvchilaringizdir." "Tilini to'zatgan kishiga tangrini raxmati bulsin".

"O'z maqomida so'zlab, fursatni g'animat bilgan, o'rinsiz so'zdan saqlanib, salomat yurgan kishiga Tangri rahmu shavqat qiladi."

"Muloyimlik xikmatning boshidir".

"Odamlar bilan xushmuomala bo'linglar. Odamlarga qattiq qullik qilib, bexayo so'zlamanglar¹".

Sharq notiqligining ko'zga ko'ringan namoyondalari juda ko'p bo'lgan. Ulardan bir qismi voizlikdan tashqari, voizlik haqida yozgan asarlari bilan ham mashhur bo'lganlar. Chunonchi, "Abvobul jinon" risolasining muallifi Voiz Muhammad Vafil, "Zilolu maqol"ning muallifi Voiz Qazviniy, "Axsanul ahodis"ning muallifi Voiz Shirovniy, "Hidoyatul takvil"ning muallifi Muhammad Bobir Binni Muhammad Voiz, "Anisud voizin"ning muallifi Mulla Kalon Voiz Samarqandiy, "Miftaxun najjox"ning muallifi Qozi O'shiy va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, o'tmishning Baxouddin Valad, Jaloliddin Rumiy, Abulfayz Zunnun, Anas Junayd, Shibliy, Sirriy, Ruzbexon Nisaviy, Sheroziy, Xo'ja Muayyad Mexnagiy, Mavlono Irshod, Ibroxim Balxiy, Xotam Asom, Muhammad Bobur, Mavlono Riyoziy, Husayn Voiz Koshifiy, Muin Voiz kabi o'nlab notiqlarning nomini tilga olish maqsadga muvofiqdir.

Notiqlik san'atining ijtimoiy mavqeini diniy notiqliksiz tasavvur etish qiyin. Diniy notiqlik. Diniy notiqlik xutba hamda va'z, deb aytildi.

Xutba musulmon sharqida keng tarqalgan diniy nutq ko'rinishlaridan biri bo'lib, uzoq tarixga ega. Xutba nutqining asosiy siyosiy axborot qismida esa xatib tinglovchilar davlat Yangiliklari, xalqaro axvol, mahalliy axborotlarni bayon qilgan. Tinglovchilarini avvalo, nutqning ana shu qismi qiziqtirganligi shak-shubhasiz, albatta. Chunki radio, televiedeniya va matbuot bo'limgan bir davrda xatibning

¹ Axloq odobga doir hadis namulari. T. "FAN"1990. B 46-48-118

siyosiy axborotlari eng inobatli va deyarli yagona ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun xutba nutqining ham, xatib notiq shaxsining hurmati va e'tibori ham g'oyat Yuksak bo'lgan. Xutbaning e'tibori shu qadarki, xatto podshoxlar ham o'z hukmronligini bildirish uchun xutbadan foydalangan. Xutba nutqining diniy, ma'lumotni etkazish xususiyatlardan tashqari axloqiy jihatni ham borki, bunda xatib o'z tinglovchilariga axloq-odob masalalarda ham pand-nasihat qilgan. Ularning ibratli tomoni shundaki, birinchidan, bu nasihatlarning aksariyati oddiy xalqni axloqiy jixatdan tarbiyalash, muayyan miqdorda ularni ongini o'stirishga xizmat qilgan. Ikkinchidan, xutba nutqlari quruq va rasmiy tilda emas, aksincha shirador tilda, hikoyat, rivoyat, sarguzasht, hujjat va boshqa ibratli va ayni paytda qiziqarli materiallar bilan asoslangan xolda so'zlangan. Bu esa xutba nutqlarining nutqiy va estetik-badiiy qimmatni oshirgan.

Xatiblar aslida juda katta olim, notiq kishilar bo'lib, hokimiyat va omma o'rtaida turgan asosiy ma'lumot etkazuvchi vositachi hisoblanganlar.

Va'z diniy notiqlikka mansub ikkinchi nutq ko'rinishidir. Va'z nutqlari ham asosan masjidlarda va diniy ayyomlardagi marosimlarda so'zlanib, bu nutq ham diniy qobiqda bo'lgan, albatta. Ammo va'zlar asosan keng ommaga mo'ljallanganligi uchun diniyligi jihatdan xutbaga nisbatan ancha erkin. Va'zlarning nechog'li diniyligi Yoki ma'lumotlarga boyligi quruqligi Yoki badiyliги va'z eshituvchi kishilarning saviyasi va va'z aytuvchi voizning bilimi, mahorati Yoki shu kabi omillarga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan.

Bugungi kunda voiz-va'zzon ataluvchi kishilar diniy bayramlar va marosimlar – Ramazon va Qurbon hayitlari, Amri ma'ruf, Mavlud an-nabiy, Xatmi Qur'on kabi islomiy marosimlarda diniylik bilan zamonaviylikni uyg'unlashtirgan xolda ilm, ma'rifat, shariat va axloq masalalariga doir mavzular asosida suhbat quruvchilardir.

Tayanch iboralar:

Musulmon Sharqida notiqlik san'ati, diniy – hadisiy yo'naliш, notiqlik san'atining tasavvufiy mohiyati, Qur'oni Karim va Hadisi sharif, muomala, hilmlik,

muloyimlik, shirinso‘zlik, samimiylilik, xushmuomalalik, odoblilik, hurmat. Mavorounnaxr, badiiy notiqlik, fikrni qanday bayon etish,

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. O‘rta asrlar musulmon Sharqida notiqlik san’atining vujudga kelishi xaqida nimalarni bilasiz?
2. Diniy – hadisiy yo‘nalish vakillarining Notiqlik san’atiga munosabati xaqidagi fikringiz.
3. Nutq madaniyati va notiqlik san’atining tasavvufiy mohiyati.
4. Qur’oni Karim va Hadisi sharifda muomala, chiroyli so‘z xususida qanday fikrlar bildirilgan?
5. Tasavvufda hilmlik, muloyimlik, shirinso‘zlik to‘g‘risida nimalar deyilgan?
6. Mavorounnaxrda badiiy notiqlik.
7. Abu Nosir Forobiy: fikrni qanday bayon etish kerak.
8. Kaykovus: notiq so‘zining ma’nolari.
9. Navoiy so‘zga qanday ta’rif bergen?

Asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar va axborot manbalari.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev SH.M. – Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., O‘zbekiston. 2017.
3. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunasi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” (*O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 9-son, 94-modda*)lex.uz
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. -T., Ma’naviyat. 2008.

Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:

1. L.A.Muhammadjonova,D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018y.
2. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.
3. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
4. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
5. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018.
6. Bekmirzasv N. Ritorika asoslari. -T.: Yangi nashr, 2008.
7. Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat, 2005.
8. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati.T.: Ta’lim nashriyoti, 2009.
9. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.: O‘qituvchi, 1992.
- 10.Qudratov T. Nutk madaniyati asoslari. -T. “O‘qituvchi”. 1993.
- 11.Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
- 12.Pulatova D.A., Jalolova O‘.K., Ro‘zmatova G.M. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma – T.: Premier print, 2011.
- 13.Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtieod-molil, 2009.
- 14.Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma – T.: Universitet, 2014.
- 15.Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o‘quv qo‘llanma. –T., Universitet. 2012.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. - T “O‘zbekiston”. 1981.

2. Apresyan G.R. Oratorskoe iskusstvo.- M 1978
3. Husain Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. T.: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2010.
4. Aristotel Ritorika. - M 1998
5. Abdiev M. Til boyligi el boyligi. “Muloqot” № 5 2001 B31-32
6. Aserenseva S. Oratori Gretsii. – M. «Xud. lit» 1985.
7. Golub I.B. Kniga o xoroshey rechi - M 1997.
8. Ivanova S.F. Uchitsa ubejdat. Beseda ob oratorskom iskusstve – M.1989.
9. Qur’oni Karim - T. “Cho‘lpon” 1992
10. Bobomurod A. - Islom odobi va madaniyati. - T.”Cho‘lpon” 1995
11. Bezmenova N.A. Ocherki po teorii i istorii ritoriki.- M. Nauka 1991
12. Mixnevich A.E. O krasnorechi v shutku i vseryoz. – M. Znanie. 1989
13. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - T “O‘qituvchi”. 1995.
14. O‘zbekiston Milliy Endiklopediyasi. T. 6. 2003

4-mavzu - Notiqlik san’atining xususiyatlari va turlari

Reja

1. Ichki nutq, tashki nutq.
2. Til boyligi va Sheva haqida.
3. Og‘zaki nutqning xususiyatlari haqida.
4. Imo-ishora nima?
5. Ijtimoiy - siyosiy nutq, akademik nutq.
6. Huquq tartibot tashkilotlarda qilinadigan nutqlar xususida.
7. Ijtimoiy hamda urf - odatlarga asoslangan nutq va diniy nutq orasidagi farq.

Nutq - insonlarning til orqali bir - birlari bilan muomala va aloqa qilish usulidir. Inson nutq yordamida o‘zining fikri, xis-tuyg‘ulari, mayl va istaklarini boshqalarga aytib beradi va boshqalarning fikrlarini, xoxish va istaqlarini anglab oladi. Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash insonning doimiy ehtiyoji bo‘lib, bu aloqa fikr almashuviga xizmat qiladi.

Xar bir kishining yoshiga, bilimiga, umuman madaniy saviyasiga qarab, uning nutqi o‘ziga hos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Xar bir kishining o‘z nutqi bor. Nutqda xar qanday fikr mantiqan asoslangandagina uning ta’sirchanligi kuchli bo‘ladi. *Aniqlik izchillik va dalillilik - to ‘g‘ri fikr yuritishning zaruriy hususiyatidir.* Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun fikrlar aniq va muayyan, bir - biriga izchil suratda bog‘langan bo‘lishi lozim, fikr yurgizalayotgan mavzudan chet ga chiqmaslik zarur, mazmunida ziddiyatlar va poyma - poy, dudmal gaplar bo‘lmasligi kerak. Xukmlar va xulosalar asosli bo‘lmog‘i lozim, yo‘ksa ishonarli bo‘lmay qoladi. *Demak nutq – bu notiqning tinglovchilarga bilim, ko‘nikma va malaka berishi, ularda yangi xaqiqatlarni ocha bilishiga qodir bo‘lgan ijodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyasidir.*

Nutq boyligi tildagi imkoniyatlar, Yani boylikni unda kay darajada o‘z aksini topganligi bilan belgilanadi. Nutqda tildagi rang-barang vositalar o‘z ifodasini topgan bo‘lsa bunday nutq boy nutqdir. Xar bir kishi o‘z nutqiga e’tibor qilsa, nutq tuzish ma’suliyatini his etsa, nutqning boy bo‘lishini ta’minlashi mumkin. Zero so‘zga, nutqka e’tiborsizlik bilan qarash uni qashshoqlashtiradi. Bu esa tilning qashshoqlashishi uchun ham sabab bo‘ladi. Adabiyotshunos O.Sharofiddinovning quydagi fikrlariga e’tibor qiling. *"So ‘z juda o‘jar narsa bo‘ladi. Unga befarq qarasang manosidan bir chimdim yashirib qolishiga, hamma rangni nomoyon qilmaslikga o‘rinadi. Shunday so‘zlar borki, ular kappalakga o‘xshab jumladan jumlaga engil ko‘chib yuraveradi, tayinli xizmati bo‘lmaydi"*¹.

Til - ijtimoiy hodisadir. Tilning ijodkori xalqning o‘zidir. Xar bir avlod o‘zidan oldingi avlod foydalangan muomaladagi tilga duch keladi va uni egallab oladi. Ya’ni o‘zining nutqida shu tildan foydalanadi. Nutq bilan til bir-biridan farq qiladi, ayni vaqtda ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi, nutq va til bir-biriga bog‘langan, ular birgalikda mavjuddir. Bu birlik shundan iboratki, xar bir til tarixiy taraqqiyot davomida odamlarning nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash protsessida vujudga kelgan va o‘sib borgan. Xar bir tilning yashab turishi kishilarning shu tilda gaplashuviga bog‘liq Agar odamlar biror tilda gaplashmay ko‘ysalar bu til yo‘k bo‘lib ketadi. M: qadimgi grek (Yunon), lotin tillari mana shunday o‘lik tillardir.

¹ O.Sharofiddinov. Birinchi mujiza. T.: G‘ofur G‘ulom 1991.B 294

Til nutq uchun moddiy materialdir. Bu material asosida nutq tashkil topadi. Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo‘ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud. Morfema, fonemalarning kishi xotirasidagi obrazlari ruhiy material hisoblanadi. Nutq yaratish jarayonida ma’lum tovush to‘plami (kompleks) nomoyon bo‘ladigan so‘z *Shakllari, morfemalar, tovushlar moddiy materialidir*. Bunda til bir tomondan hodisa bo‘lsa, ikkinchi tomondan ruhiy hodisadir, degan xulosa kelib chiqadi. Tilning ruhiy hodisaligi – uning ongda saqlanishidir. Moddiyligini esa nutq jarayonida yuzaga keluvchi mavjud (real) tovushlar belgilaydi.

O‘zbek tilida takrorning ikki hil turi mavjud. A) grammatik takror; B) badiiy takror.

Takrorning birinchi turi **grammatik** ma’no odatda ko‘plik ma’nosini ifodalaydi; *mashina-mashina qovun tushurdik*. Takrorining ikkinchi turi **badiiy takror** turli hil ma’nolarni ifodalaydi;

Tong Yaqin, tong Yaqin, oppoq tong Yaqin. Yoki *Ko ‘m ko ‘k, ko ‘m ko ‘k, ko ‘m kuk ko ‘klam quyoshidan ko ‘kargan qirlar ko ‘m ko ‘k.*

Fonema grekcha "Pxonema" so‘zidan olingan bo‘lib - nutq tovushi degan manoni anglatadi xar bir tilda fonemalarni ma’lum miqdori mavjud. O‘zbek tilida 31 ta fonema bor. (6 unli 25 ta undosh) Fonemani tovushdan farqlamoq kerak. Fonema so‘zi ma’nosini farqlash uchun xizmat qiluvchi tildir.

Sinonim so‘zi grekcha "*Sinonimos*" so‘zidan olingan bo‘lib bir nomli degan ma’noni anglatadi. Sinonim so‘zlar nutqning ta’sirli bo‘lishiga yordam beradi. Shakli xar-qil bo‘lsa ham, ma’nosi bir-biriga Yaqin so‘zlar sinonim so‘zlar deyiladi.

Qarama-qarshi manoli so‘zlar antonim so‘zlar deyiladi. Antonim so‘zi grekcha anti (zid, qarama - qarshi) va onim (nom) so‘zlaridan tuzilgandir.

Odatda u yoki bu tilning boyligi gapirilganda asosan shu tildagi so‘zlar ko‘zda tutiladi. Tilda so‘z miqdori qancha ko‘p bo‘lsa o‘sha tilni boy til tarzida talqin qilish keng tarqalgan. Bu talqin ma’lum ma’noda tug‘ridir. Chunki tildagi so‘z mikdori til boyligining ta’minlovchi asosiy omillarlan biri bo‘lsa, til boyligi shu bilangina cheklanmaydi. Bu o‘rinda albatta o‘zbek tilining sinonimlarga fraziologizmlarga nihoyatda boy ekanligi ular ma’nolarining shuningdek, umuman o‘zbek tilidagi so‘zlarning ko‘p manolilik darajasi nihoyatda yuqori ekanligi ham hisobga olinadi.

Ma'lum xududdagina ishlatilib, faqat shu erda yashovchi kishilarga tushunarli bo'lgan so'zlar *Shevaga* hos so'zlardir.

Yozuvchilar badiiy asarlarida qaxramonlarning qaerlik ekanligini, tilidagi xususiyatlarini ko'rsatish uchun ularning nutqida ba'zan *Shevaga* hos ko'shimcha va so'zlarni ishlatadilar. O'zbek tilining maxalliy Shevalari ko'p. Ba'zan bir tushunchaning o'zi maxalliy Shevalarda xar-hil so'z bilan ifodalaniladi. M: *Narvon* – (Toshkentda) *Shoti* – (Farg'onada), *Zangi* – (O'rganchda)

Nutq mavjud ifoda vositalaridan foydalangan xolda mavjudlikka (*xaqiqatga*) aylangan fikrdir. Nutq a'zolarining harakati jarayonida paydo bo'ladi. Ruhiy hodisa bo'lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o'tgach xaqiqatga aylanadi.

Til boyligi deganda nimani tushunmok kerak? Odatda u yoki bu tilning boyligi gapirilganda asosan shu tildagi so'zlar ko'zda tutiladi. Tilda so'z mikdori qancha ko'p bo'lsa O'sha tilni boy til tarzida talqin qilish keng tarqalgan. Bu talqin ma'lum ma'noda to'g'ridir. Chunki tildagi so'z mikdori til boyligining ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Bu o'rinda albatta o'zbek tilining sinonimlarga, fraznologizmlarga nihoyatda boy ekanligi ular ma'nolarining shuningdek, umuman o'zbek tilidagi so'zlarning ko'p ma'nolilik darajasi nihoyatda yuqori ekanligi ham hisobga olinadi.

Insonning nutqiy ko'rinishi uch turda namoyon bo'ladi. So'zlash deyilganda so'zlovchiga ma'lumot, maslaxat berish, buyurish Bular: *so'zlash, mutolaa va eshitish*. o'ziga nomalum bo'lgan narsalar haqida so'rash anglashilali. So'zlanganda so'zlovchining bilimi, madaniyati, odobi yuzaga chiqadi.

So'zlash manologik va diologik ko'rinishda bo'lishi mumkin. Monologik nutqda bir kishining mulohazalari qarshi savollarsiz yoki javoblarsiz yuzaga chiqadi. Suhbatdosh tomonidan bulinmaydi. Diolog nutqda Muloqot qiluvchi navbat bilan goh tinglovchi, goh so'zlovchi bo'lib turadi.

Ma'lumki, nutq og'zaki va yozma ko'rinishga ega. Og'zaki nutq gapirib turgan vaqt birligidagina mavjud bo'lib, bu jarayon tugashi bilan nutq ham tugaydi.

Og'zaki nutq tezkorlik bilan amalga oshadi. Tushunchalar bilan "uning libosi" bo'lgan so'z birgalikda "yashin tezligida" tilga kela boshlaydi.

Og'zaki nutqda so'z birikmalari va gaplarning modellari aytilmoqchi fikrlarga

monand xolda tezkorlik bilan tanlanadi. Gap qurilishini, modellarni aql nazorat qilib boradi. Fikrni aytganlarini xotirada ushlab turgan xolda rivojlantirishga to‘g‘ri keladi.

Og‘zaki nutq taxrir imkoniyatidan maxrum. U qanday shaqlida borlikka kelgan bo‘lsa shundayligicha tinglovchiga havola qilinadi.

Og‘zaki nutqda odatda, muloqot uchun eng zarur narsalarnigina zuxur etiladi. Bu bir tomondan vaqt iqtisodi bilan ikkinchidan nutq kuchini tejash bilan bog‘liq. Shunga ko‘ra unda uzundan - uzoq kirish, keng izohlar ham uchraydi. Ayniqsa, hodisalarning narsalarning o‘zaro bog‘liqlik darajalari, ularning tinglovchi va so‘zlovchiga ravshanligi darajasi hisobga olinadi.

Og‘zaki nutq so‘z boyligi jixatidan yozma nutqka nisbatan ancha kambag‘al bo‘ladi. Unda bir hil so‘zlar, bir hil Shakllar bir qadar ko‘proq takrorlanadi, bu xol til vositalarini tanlash qiyinchiliklari bilan bog‘liqdir.

Og‘zaki so‘zlovchining faol nutqiy harakati tuxtam (pauza), ohang, urg‘u, turli-xil imo-ishoralar asosida tinglovchiga etib boradi.

To‘xtam - ovozning vaqtincha to‘xtashi bo‘lib, bu davrda nutq a’zolari to‘xtaydi, nutq oqimi uziladi. To‘xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagi qismini talaffuz qilishga xozirlik ko‘riladi. To‘xtamdan turli maqsadlarda foydalilaniladi. Nutqning bir nafas tugaguncha aytilgan qismidan so‘ng Yangi nafas olish uchun qilingan tuxtalish, nafasni rostlash to‘xtami deyiladi. Nafas rostlash tuxtamida o‘pkaga xavo to‘ldirilib olinadi. Bunday to‘xtamdan radio-televideniya suxandonlari yaxshi foydalananadilar.

Yozma nutq og‘zaki nutqdan quydagи xususiyatlari bilan ajralib turadi. Nutqni yozayotgan muallif vaqt jixatdan bemalol fikrlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. U o‘z nutq qismlarini va butun nutqni qayta -qayta taxrir qilish, fikr uchun eng mos imkoniyatlarni tanlashi, gap tuzilishini ko‘paytirishi mumkin. Shuning uchun ham yozma nutq og‘zaki nutqdan ravondir.

Kishilarning nutqiy faoliyati monolog, diolog, polilog ko‘rinishda amalga oshadi.

Monolog - so‘zlovchining o‘ziga yoki tinglovchiga qaratilgan nutqidir. Monolog nutqda so‘zlovchi o‘ziga ma’lum bo‘lgan voqeа-hodisalar, o‘z ichki kechinmalari

haqida ma'lumot beradi.

Ichki monolog adabiyotda ko'llaniluvchi uslubiy usullardan biridir. Bu usul yuz bergen aniq voqealarni, ularning zamirida qaxramon ichki kechinmalarida paydo bo'lgan fikrlar sifatida bayon etish imkonini beradi. Ichki monolog so'zlovchining ichki nutqidir.

Tashqi monolog so'zlovchining tashqi nutqidir. Unda til imkoniyatlari harakatga keladi.

So'zlovchining ichki xis-tuyg'ulari, ruhiy kechinmalarini ifodalovchi tashki nutq *lirik monolog* deyiladi. Lirik monologda shaxsning orzu umidlari, tashqi dunyodan olgan ta'ssurotlari, keljak rejalari aks etadi. So'zlovchining yuz bergen voqeal-hodisalar haqida xikoya qilib berishi *xabar monologi* hisoblanadi. Xabar monologi xikoyachilik, qissachilikda ko'proq ko'llaniladi.

So'z bo'g'inlaridan birning boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan ayttilishi urg'u deyiladi. So'zning urg'u tushgan bo'g'ini urg'uli bo'g'in, qolganlari urg'usiz bo'g'in deyiladi. O'zbek tilida ypg'y asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zlarga ko'shimcha kushilsa urg'u ham kuchayadi.

Diolog nutq shakllaridan biri bo'lib, unda xar-bir fikr to'g'ridan to'g'ri suhbatdoshga karatilgan bo'ladi. Diolog nutqning sintaktik qurilishi monologik nutqqa qaraganda sodda tuziladi. *Dialog deganda ikki va undan ortiq kishilarining o'zaro suhbat tushuniladi.* Diologda xar bir shaxsning gapi xat boshidan tire kuyib yoziladi.

Imo-ishora deb, nutq jarayonida ixtiyorsiz ravishda namoyon bo'ladigan ko'l va gavda harakatlariga aytildi. Imo-ishoralar yordamida fikr bildiriladi.

Nutqning quyidagi turlari mavjud bular:

1. **Ijtimoiy - siyosiy nutq** - Siyosiy, iqtisodiy mazmundagi ma'ruzalar, siyosiy nutq, Diplomatik nutq, xarbiy vatanparvarlik nutqi, siyosiy sharx, mitinglardagi nutqlar, agitator nutqi.
2. **Akademik nutq** - Ilmiy doklad, ilmiy ma'ruza, ilmiy ma'lumot, oliy ta'lim O'qituvchilarining ma'ruzalari.
3. **Xuquq tartibot tashkilotlari dagi nutq** - Prokuror yoki qoralovchi nutqi,

jamoatchi qoralovchi nutqi, himoya yoki oqlovchi nutqi, jamoatchi oqlovchi nutqi, o‘z - o‘zini himoya qilish nutqi.

4. *Ijtimoiy va urf - odatlarga asoslangan nutq* - yubiley va maqtov nutqi, dasturxon atrofidagi tilaqlar, ta’ziyadagi nutq.

5. *Diniy nutq-* Amri mu’ruflar, naxiy munkar, machitlardagi ma’ruzalar.

Ijtimoiy - siyosiy nutq - Siyosiy nutq, diplomatik nutq, xarbiy vatanlarvarlik nutqi, siyosiy sharx, mitinglardagi nutqlar, agitator nutqi, davlat arbobining, siyosiy arbobning, siyosiy sharxlovchining, siyosatchinnig nutqi bo‘lib, u o‘zida iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy, madaniy - ma’rifiy, axloqiy - ma’naviy, xayotiy mazmundagi, ilm va fandagi yutuqlar xususida bo‘lishi mumkin. Qaysi mazmundagi doklad, ma’ruza, sharx bo‘lishidan katiy nazar, unda asosiy maqsad, echimiki kutadigan masalalar ko‘tarilishi kerak. Aytilgan fikrlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, u boshqalar tomonidan o‘rganilishi, mushoxada qilinishi yoki tanqidga uchrashi mumkin.

Akadsmik nutq - Ilmiy doklad, ilmiy ma’ruza, ilmiy ma’lumot, oliy ta’lim O‘qituvchilarining ma’ruzalari bo‘lib, unda u yoki bu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar aniq, ravshan beriladi.

Xuquq tartibot tashkilotlaridagi nutq, - Prokuror yoki qoralovchi nutqi, jamoatchi qoralovchi nutqi, himoya yoki oqlovchi nutqi, jamoatchi oqlovchi nutqi, o‘z - o‘zini himoya qilish nutqi. Sud jarayoni o‘ziga hos bir munozara maydoni bo‘lib, unda umuminsoniy axloq mezonlariga mos keladigan, xalq va davlat, ayni paytda, ayblanuvchi va jabrlanuvchi manfaatini himoya qiladigan adolat xaqiqat tushunchalari xukumron bo‘ladi. Bu jarayondagi barcha vositalar, jumladan nutq ham ana shu adolat va xaqiqatning tantanasiga qaratilgan bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan huquq tartibot tashkilotlaridagi nutqlar tomonlar manfaatini himoya qilish mohiyatidan kelib chiqib, muayyan o‘ziga hoslikka ega. Bu o‘ziga hoslik nutqda til birliklarini tanlash, gap qurilishi, sudda hakamlik qilishga nisbatan murojaatning o‘ziga hos lingvistik usullardan foydalanishda ko‘rinadi.

Ijtimoiy va urf - odatlarga asoslangan nutq - yubiley va maqtov nutqi, dasturxon atrofidagi tilaqlar, ta’ziyadagi nutq bo‘lib, urf - odatlarga asoslangan xolda fikr bildiriladi. Masalan tug‘ilgan kun munosabati bilan bo‘ladigan tantanalarda

notiq o‘z nutqida u insondagi fazilatlar, chiroyli va ibratli xatti- harakatlari, erishilgan yutuqlari haqida fikr bildiradi. Taziyada ham insonning qilgan yaxshi amallari haqida sanab o‘tiladi. Dasturxon atrofida bildiriladigan tilaqlarga she’rlar, rivoyatlardan, ibratli so‘zlardan foydalanish mumkin. Ijtimoiy va urf-odatlarga asoslangan nutq o‘zining tasirchanligi bilan boshqa nutqlardan tubdan farq qiladi.

Diniy nutq - Amri mu’ruflar, Naxiy munkar, machitlardagi ma’ruzalar o‘z ichiga oladi. Bunday nutqlar diniy bilimga ega kishilar tomonidan obrazli qilib, mimikalardan foydalanilgan xolda fikr bildirilsa nutq yana ham ta’sirchan chiqadi.

Tayanch iboralar:

Nutq madaniyati, nutqning aniqligi, ritorika va san’at, ichki nutq,tashki nutq ,til boyligi, sheva, ijtimoiy - siyosiy nutq , akadsmik nutq ,huquq tartibot tashkilotlarida qilinadigan nutq, ijtimoiy hamda urf - odatlarga asoslangan nutq, diniy nutq, ibora, grammatik shakllar, so‘z va so‘z birikmalari talaffuz, urg‘u, o‘rinsiz qo‘llangan chet so‘zlar, jargonlar, vulgarizm, parazit so‘zlar, kanselyarizmlar.

Mavzu buyicha savollar:

1. Nutq madaniyati va ritorika fanining premeti.
2. Nutqning aniqligi deganda nimalarni tushunasiz?
3. Ritorika va san’at.
4. Ichki nutq nima?
5. Tashki nutq nima?
6. Til boyligi nima?
7. Sheva nima?
8. Ijtimoiy - siyosiy nutq qanday bo‘lishi kerak?
9. Akadsmik nutq haqida nima deya olasiz?
10. Huquq tartibot tashkilotlarida qilinadigan nutqlar xususida fikringiz.
- 11.Ijtimoiy hamda urf - odatlarga asoslangan nutq va diniy nutq orasidagi faqrni tushuntirib bering.

Asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar va axborot manbalari.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini

- birgalikda barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev SH.M. – Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., O‘zbekiston. 2017.
 3. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunasi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” (*O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 9-son, 94-modda*)lex.uz
 4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. -T., Ma’naviyat. 2008.

Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:

1. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018y.
2. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.
3. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
4. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
5. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018.
6. Bekmirzasv N. Ritorika asoslari. -T.: Yangi nashr, 2008.
7. Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat, 2005.
8. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati.T.: Ta’lim nashriyoti, 2009.
9. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev YO. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.: O‘qituvchi, 1992.
10. Qudratov T. Nutk madaniyati asoslari. -T. “O‘qituvchi”. 1993.
11. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
12. Pulatova D.A., Jalolova O‘.K., Ro‘zmatova G.M. Axloqshunoslik. O‘quv

- qo‘llanma – T.: Premier print, 2011.
13. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtieod-molil, 2009.
 14. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma – T.: Universitet, 2014.
 15. Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o‘quv qo‘llanma. –T., Universitet. 2012.

Qo‘sishimcha adabiyotlar:

1. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. - T “O‘zbekiston”. 1981.
2. Apresyan G.R. Oratorskoe iskusstvo.- M 1978
3. Husain Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. T.: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2010.
4. Aristotel Ritorika. - M 1998
5. Abdiev M. Til boyligi el boyligi. “Muloqot” № 5 2001 B31-32
6. Aserenseva S. Oratori Gretsi. – M. «Xud. lit» 1985.
7. Golub I.B. Kniga o xoroshey rechi - M 1997.
8. Ivanova S.F. Uchitsa ubejdat. Beseda ob oratorskom iskusstve – M.1989.
9. Qur’oni Karim - T. “Cho‘lpon” 1992
10. Bobomurod A. - Islom odobi va madaniyati. - T.”Cho‘lpon” 1995
11. Bezmeneva N.A. Ocherki po teorii i istorii ritoriki.- M. Nauka 1991
12. Mixnevich A.E. O krasnorechi v shutku i vseryoz. – M. Znanie. 1989
13. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - T “O‘qituvchi”. 1995.
- O‘zbekiston Milliy Endiklopediyasi. T. 6. 2003

5 - mavzu. Ritorikaning mazmuni va tuzilishi

Reja

1. Nutqdagi birinchi ma’lumot.
2. Nutqda ikkinchi darajadagi ma’lumot.
3. Nutqda muammoli vaziyatlardan foydalanish.
4. Mantiqiy fikrlash usullari
5. Fikrlashning asosiy formalari

6. Suhbat, murojaat.
7. Baxslashish qoidalari
8. Talaffuz, muhokama, munozara, tabrik nutqi.

Xar qanday nutq *birinchi navbatda ma'lumot* berishi lozim. Ma'lumotning asosiy xususiyati shundan iboratki u aniq bo'lishi lozim. Birinchi ma'lumot ijtimoiy hayotdan olinadi agar u aniq faktlarga asoslangan bo'lmasa notiqning obro'sizlanishiga olib keladi. Xar bir ma'lumotga jiddiy va ilmiy yondoshuv talab qilinadi. Bugungi kunda televidenie, radio, internet hamda gazeta va jurnallar orqali ma'lumotlar tez etib kelmoqda.

Zamonaviy notiqlik san'atidagi muammo - ma'lumotlarni to'g'ri ajrata bilish. Notiq qaerdan va qanday ma'lumotni olishi uning nutqini qurilishining asosiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Nutqdagi birinchi ma'lumotni ochib berish uchun keltiriladigan siyosiy, ilmiy, axloqiy, ma'naviy, ruhiy taxlillar orqali u *ikkinchi darajadagi* ma'lumotga aylanadi. Ya'ni birinchi ma'lumot barcha uchun tushunarli bo'ladi, u yangi sifat bosqichiga ko'tariladi, ma'lumotni ma'nosi, xaqiqatligi isbotlanadi. Nutq ma'nosi asosini - xaqiqat tashkil qiladi. Go'zal so'zlardan tashkil topgan so'zlar yig'indisi bilan insonlarni aldab bo'lmaydi.

Notiq nutqning ravonligi, ma'noli go'zal nutqi bergan ma'lumotlarining yangilagini, badiiy asarga o'xshatish mumkin.

Birinchi ma'lumotni, ikkinchi ma'lumotga aylantirdik. Endi bu ma'lumotni ochib berish uchun *muammoli vaziyatlardan* foydalanish lozim. Auditoriyaga ijtimoiy xayotdagi xolatlardan kelib chiqib, masalani o'rta ga tashlash kerak - shunda muammo yuzaga keladi. Shu muammoni xal qilish uchun xar - hil muammoli vaziyatlarni sharxlab isbotlash kerak bo'ladi. Demak berilgan birinchi ma'lumotni xaqiqatga yoki sarobga aylantirish notiqning san'atiga, bilimiga, maxoratiga bog'liq.

Nutqda xar bir fikr mantiqan asoslangan taqdirdagina, uning ta'sirchanligi kuchli bo'ladi. Mantiq - fani grekcha "*logos*" so'zidan olingan bo'lib, nutq, fikr, o'y demakdir. U- fikrlash qonunlari, shakllari va usullarini o'rgatuvchi fandir. Aniqlik, izchillilik va dalillilik – to'g'ri fikr yuritishning zaruriy xususiyatidir.

Nutq to‘g‘ri bo‘lishi uchun fikrlar aniq va muayyan, bir - biriga izchil suratda bog‘langan bo‘lishi lozim, fikr yurgizayotgan mavzudan chetga chiqmaslik zarur, mazmunida mantiqiy ziddiyatlar va poyma-poy, dudmal gaplar bo‘lmasligi kerak. Xukmlar va xulosalar asosli bo‘lmog‘i lozim, yo‘ksa, ular ishonarli bo‘lmay qoladi. *Mantiqiy fikrlash usullari bular:* - *solishtirish, analiz, sintez, abstraqlash va umumlashtirish.*

Solishtirish shunday bir mantiqiy usuldirki, bu usul vositasi bilan ob’ektni olamdagи predmetlar va voqealarning bir-biriga o‘xshashligi va bir-biridan farqi aniqlab olinadi. Solishtirish ya’ni taqqoslash natijalarining to‘g‘riligini belgilaydigan zaruriy shartlar quyidagilar:

1. Bir-biri bilan xaqiqatdan real tarzda bog‘lanishi bo‘lgan buyumlarni taqqoslash kerak.
2. Taqqoslashning to‘g‘riligini isbotlash solishtirishlikka nimani asos qilib olishlikka bog‘liq.
3. Ikki yoki bir necha buyumni bir belgi asosida olib, ayni bir nisbatda taqqoslash kerak.
4. Xar qanday solishtirish daf’atan duch kelgan belgilarga qarab emas, balki taqqoslanadigan buyumlar uchun muhim ahamiyati bo‘lgan belgilarga qarab qilinmog‘i lozim.

Analiz - shunday bir mantiqiy usuldirni, uning yordami bilan biz buyumlarni, hodisalarni fikran qismlarga bo‘lib, ularning ayrim qismlarini, belgilarini, xususiyatlarini ajratamiz.

Sintez - shunday bir mantiqiy usuldirki, predmet va hodisaning analiz bilan bo‘lingan ayrim qismlarini shu usul yordami bilan fikran birlashtirib, bir butun xolga keltirish mumkin. Analiz va sintez bir - biri bilan chambarchas bog‘liq xolda olib boriladi. Nutq qaratilgan predmet yoki hodisaning biror tomoni muhim, boshqa tomoni muhim emasligini ham farq qilish lozim bo‘ladi. Bunda abstraksiyalash va umumlashtirish usuli qo‘l keladi.

Abstraksiyalash – shunday bir mantiqiy usuldirni, bu usul yordami bilan predmet va voqealarning muhim xususiyatlari fikran ajratiladi va ularni predmetlar,

voqealarning ikkinchi darajali va ahamiyati kam xususiyatlardan chet lashtiriladi.

Umumlashtirish – shunday bir mantiqiy usuldirni, bu usul yordami bilan biz jinsdosh predmetlarning umumiyligini xususiyatlarini fikran birlashtiramiz. M: Xayvon, inson sut emizuvchi kabi tushunchalar umumiylilik asosida vujudga kelgan. Umumlashtirish predmetlarning o‘zida bo‘lgan umumiyligi narsani bilishga asoslangan taqdirdagina to‘g‘ri bo‘ladi.

Fikrlashning asosiy formalari - tushuncha, muhokama va aqliy xulosalardan iborat.

Tushunchada – predmetlarning umumiyligi va asosiy belgilari aks ettiriladi. Tushuncha so‘z bilan ifodalanadi. So‘z tushunchaning tashqi formasidir.

Tushunchaning mazmuni - bu predmetdagi asosiy belgilarning umumlashmasi haqidagi bilimdir. Agar tushunchaning mazmuni voqelikni to‘g‘ri aks ettirsa, voqelikka muvofiq kelsa, bunday tushuncha to‘g‘ri tushuncha bo‘ladi. *Tushunchaning hajmi - muhim* belgilari tushunchada aks ettan predmetlar doirasi haqidagi bilimdir. Hajm jixatdan keng bo‘lgan tushuncha, mazmun jixatdan tor bo‘ladi. M: "Daraxt" tushunchasi xajm jixatdan "olma daraxti" tushunchasiga nisbatan keng bo‘lsa-da, mazmun jixatdan tor. Chunki "olma daraxti" tushunchasi mazmunida daraxt tushunchasining barcha belgilari bo‘lishi bilan birga, o‘ziga hos belgilari ham mavjud.

Tushunchalar mazmuniga ko‘ra, *konkret* va *abstrakt* tushunchalarga bo‘linadi. Konkret: "*Toshkent*", "*non*", "*ob-xavo*". Abstrakt: "*Kattalik*", "*botirlik*", "*g‘amxo‘rlik*" kabilardir.

Ta’rif - ta’riflashning to‘rt qoidasi bor.

1. Ta’rif mutanosib bo‘lmog‘i kerak. Ya’ni aniqlanuvchi tushuncha bilan aniqlovchi tushuncha teng bo‘lmog‘i kerak.
2. Ta’rifda aylanma bo‘lmasligi kerak. M: "*Kulgi qistaydigan narsa – kulgili narsadir*".
3. Ta’rifda inkor bo‘lmasligi kerak. M: "*yorug‘lik - qorong‘ilikning yo‘qligidir*" kabi ta’rif yorug‘likning ta’rifini tushuntirib bera olmayli.
4. Ta’rif kisqa, ravshan va aniq bo‘lmog‘i lozim.

Tushuncha ta’rifdan ko‘ra mazmundorroqdir. Ta’rif tushunchani toraytiradi.

Ta’rifning asosiy vazifasi tekshirish natijalarini yakunlash, olingan bilimlarning, nutq qaratilgan predmet yoki hodisaning qisqa ifodasini berib, mustaxkamlashdir. Ta’rifda tushunchaning asosiy belgilari mustaxkamlanadi. Notiq so‘zlayotgan paytda quyidagilardan foydalanishi mumkin.

1. *Ko‘rsatish* - bevosita idrok qilinayotgan predmet bilan tanishuvning eng sodda usulidir. Ko‘rsatish predmetning xususiyatlarini tushunishda birinchi bosqichdir.
2. *Tasvirlash* - notiq xikoya qilayotgan u yoki bu predmetning belgilarini bir-bir sanab ko‘rsatishdan iborat.
3. *Tavsiflash* - bunda notiq predmet yoki voqealarning ba’zi, alohida xarakterli belgilarini ko‘rsatadi.

Buyumlarning va ularning belgilari haqida biror narsani tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr *muhokama* deb ataladi.

Aqliy xulosa. – Bu tafakkurning shunday formasidirki, uning yordamida u yoki bu hildagi muxokamalardan yangi muxokama chiqariladi. Aqliy xulosaning uch turi mavjud: *deduktiv, induktiv va analogiya*.

1. *Deduktiv aqliy xulosa* – fikr umumiyyidan xususiyga qarab rivojlanadi. M: *Hamma planetalar sharsimon. Er planeta. Demak er sharsimon.*
2. *Induktiv aqliy xulosa* - fikr xususiydan umumiylikka qarab boradi. M: *O‘tgan kuni, kecha va bugun rosa yomg‘ir yog‘di. Shu xافتada yomgir ko‘p yog‘di.* Notiq uchun sochilgan faktlarni hamrab olish va ixcham shaqlida ifodalash muhim rol o‘ynaydi.
3. *O‘xshash aqliy xulosa yoki analogiya* – fikr xususiydan xususiyga qarab boradi. Analogiya dalil emas, avtor undan o‘z fikrini tushuntirish uchun, shuningdek, extimol xulosalar chiqarish, u Yoki bu voqeani aniqroq xarakterlab berish uchun foydalaniladi. M: *Faraz qilaylik, qandaydir A predmet... V predmet.* Ishontirish, dalillash, isbotlash xar bir nutqning asosiy belgisidir. Odatda, nutqni isbotlash uchun faktik materialdan foydalanish kerak.

Isbotlash – maxsus mantiqiy usuldir. Uning yordamida boshqa muxokamalarning haqqoniyligi asoslanadi. *Isbot tezisini haqiqatan asoslab bermoq uchun bir qancha eng zarur qoidalarga rioya qilmoq kerak.*

1. Tezis aniq va ravshan tariflangan muxokama bo‘lmog‘i kerak. Aniq va ravshan ta’riflanmagan tezisni isbotlab bo‘lmaydi.
2. Isbotning boshidan oxirigacha tezis aynan birday bo‘lib qolmog‘i kerak. Ko‘p narsani isbot qilishga o‘ringan kishi hech nimani isbot qila olmaydi.
3. Tezisni mustaxkamlash uchun keltirilgan dalillar shubhadan xoli chin dalillar bo‘lmog‘i kerak.
4. Dalillar tezis uchun etarli asos bo‘lmogi kerak. Tezis dalillardan kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo‘l qo‘yiladi.
5. Dalillar rostligi tezisdan qat’iy nazar, mustaqil suratda isbot qilinadigan muxokamalardan iborat bo‘lmog‘i lozim.
6. Tezis, xulosa chiqarishning umumiy qoidalariga muvofiq, dalillardan mantiqiy suratda kelib chiqadigan xulosa bo‘lmog‘i lozim. Ishontirishdan ko‘ra, qayta ishontirish qiyinroqdir.

Biror tezisning noto‘g‘riliqi yoki asossizligini isbotlash raddiya deb ataladi.

Tezisni quyidagi besh usul bilan rad qilish mumkin.

1. Notiq o‘rtaga tashlagan tezisni rad qilishning eng to‘g‘ri va muvoffaqiyatli usuli faktlar vositasi bilan rad qilishdir.
2. Opponent o‘z tezisiga asos qilib olingan dalillar tanqid qilinadi.
3. Rad qilinuvchi isbot tezisining chinligi tezisni tasdiqlash uchun keltirilgan dalillardan kelib chiqmasligi isbot qilinadi.
4. Rad qilinuvchi tezisga zid bo‘lgan yangi tezis mustaqil ravishda isbot qilinadi.
5. Rad qilinuvchi tezisning noto‘g‘riliqi isbot qilinadi.

Suhbat - Ma’lum bir mavzu, masala yuzasidan diolog yoki (polilog) tarzila ikki yoki bir necha kishi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan nutqiy muloqot suhbat deyiladi.

Suhbatlashish muomala madaniyatini shakillantirishning muhim vositalaridan biri sanaladi.Har qanday suhbat avvalo, ma’lumotlar almanishuvidir. Suhbatlashish orqali insonlar bir-birlari bilan muloqotga kirishadilar, bir-birlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar, bir-birlarini tushunib boradilar, shu bilan birga muomala madaniyatlaridagi ayrim bo‘shliqlarni to‘ldiradilar. Suhbatdoshni gapini bo‘lmasdan uni oxirigacha tinglay olish muhim xususiyat kasb etadi. Zero, diqqat

va sabr-toqat bilan eshita olish qobiliyati suhbatdoshga nisbatan hamdardliq layoqatliliq hayrixohlikni ko‘rsatadi. Lekin bu qobiliyat faqatgina tug‘ma xususiyat kasb etmaydi – har bir inson uni o‘zida hamda farzandlarining tarbiyasida mujassam etib, takomillashtirish mumkin. Bunda axloqiy tarbiya – axloqiy me’yorlar katta ahamiyat kasb etadi.

Suhbat olib borish mahoratini o‘rganish mumkin, buning uchun qadimgi notiqlar kabi sizga zarur bo‘lgan bilimlarni egallash lozim. Ammo bu degani do‘stona uchrashuvlarni Ritorika bo‘yicha musobaqaga aylantirish shart emas. Barcha holat va narsalarga yuzaki qaraydigan jamiyatga bir oz hazil va engillik bilan ishonchli so‘zlash – bu iste’dodli odamlar ham tan beradigan qobiliyatdir. Har kimga ham aqlii gaplarni osonlik bilan etkazish qobiliyati berilmaydi. Suhbat san’atida sergaplikka yo‘l qo‘ymay mashq qilish lozim, hamsuhbat ruhiyatini hisobga olish kerak va bu etarli darajadagi tajribani talab qiladigan faoliyatdir.

Avvalambor biz o‘zimizning «men»lashimizdan qochishimiz lozim. O‘z shaxsiyligini berkitib, o‘zgalarning qiziqishiga e’tibor bermoq – bu har bir suhbatning asosiy afzalligidir. Yaxshi ohang suhbatdoshiga ko‘ngilsiz yoki uni tushkunlikka tushiradigan suhbatlardan qochishni talab qiladi. Jamoatga yoqish uchun suhbatdoshingizga yaqin bo‘lgan va uni ko‘proq qiziqtiradigan suhbat mavzularini tanlashingiz lozim. Jamiyatning yoqimsiz a’zolariga doimo hamma narsadan noliyveradigan va ayb qidiraveradigan odamlar kiradi. Ammo, muloqot qilish me’yori va tajribasiga ega haqiqiy tarbiyali inson hamisha o‘z talabalari darajasida kamtarin, mulohazalarida esa notakabbur va bag‘rikengdir. Agar jamoat sizga notanish bo‘lsa, suhbatda mavjud odamlar borasida gaplashmagingiz ma’qul, avval ularning o‘zaro munosabatlarini kuzatib, shu asosda biron bir narsa deyish mumkin.

So‘z - bu o‘zingizga qarshi qurolga aylanuvchi kuchdir. Yaqin kishini ayblashdan oldin, o‘ylab ko‘rgan ma’qul. Hasadgo‘ylik eng yomon illat. U barcha axloqiy xususiyatlarni yo‘qqa chiqaradi. Mardlik yoki ochiqlik bahonasida ko‘rolmaslik hissini ochiqchasiga ko‘rsatishni odat qilgan kishiga bo‘lgan munosabat hech qachon ijobjiy o‘zgarish kasb etmaydi. Bu faqat munosabatlarni

yomonlashishiga olib keladi. Bundan hech kim yaxshi natijaga erishmaydi. Atrofdagilar uchun notanish bo‘lgan tilda biror bir odam bilan suhbatlashish madaniyatsizlikdir.

Suhbatdagi har bir so‘z suhbatdosh uchun aniq va tushunarli bo‘lmog‘i lozim. Agar sizning nutqingizni tinglayotgan odam biror-bir so‘zni qaytarish uchun gapingizni bo‘lsa, tez orada suhbatdosh sizga bo‘lgan qiziqishini yo‘qotadi, deganini anglatadi. Bunda nutq o‘ta baland ohangda bo‘lmasligi lozim, aks holda o‘zni noqulay ahvolga solib qo‘yish mumkin. Sizning suhbatingizga uchinchi suhbatdosh qo‘silsa-yu, mavzu esa o‘ta nozik xususiyat kasb etsa, o‘zingizni iltifotli va xushmuomali jihatdan ko‘rsatganingiz ma’qul. Jamoatda barcha narsalar haqida gap ketadi, savollar chuqurlashib ketilmaydi, bir narsani har taraflama ko‘rib chiqilmaydi, balki qisqacha mulohaza yuritiladi, ammo yuzaki emas¹. Boshqalar bilan gaplashish istagi borligini yoki suhbat zerikarli ekanligini ko‘rsatmaasliq suhbat chog‘ida atrofga alanglab, qo‘lga tushgan biron narsani o‘ynab, yoki soatga qarayverish suhbatdoshni jig‘iybiron qilib qo‘yish mumkin.

Suhbat chog‘ida o‘zini ko‘klarga ko‘tarib, o‘z faoliyati, izlanishlari, mulki o‘z tanishlari doirasi bilan yoki kimnidir ismini ro‘kach qilish bilan maqtanish va yaxshi emas – bunday iboralar suhbatdosh aqlini qanchalik tor ekanligi haqida guvohlik beradi. Munozara qilinayotgan muammolar doirasi keng bo‘lishi mumkin, biroq nima bo‘lganda ham o‘zingizni ishonchli his qiladigan, o‘zingizga mos bo‘lgan mavzularda suhbat olib borishingiz maqsadga muvofiqdir.

Suhbatdoshni sog‘liqdan nolish bilan ob-havo haqidagi so‘zlar bilan charchatish ham etiketga to‘g‘ri kelmaydi. Suhbat haqiqatan ham qiziqarliroq bo‘lish uchun barcha qobiliyat va imkoniyatlarni yordamga chaqirish lozim. Shu jihatdan ham suhbatlashish etiketi bir necha qoidalarni taqozo etadi:

- Suhbatdoshingizga og‘ir botadigan, xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan, gapirishni xohlamaydigan mavzu bo‘yicha suhbatlashish vaziyatni

¹ Никитич, Людмила Алексеевна. Этика. Курс лекций: учебное пособие для студентов вузов / Л.А. Никитич. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. – 392 с. (Гриф) - Электронная библиотека – Book.ru

og‘irlashtiradi.

- Suhbatdoshingizga o‘zingizga ta’rif-tavsif berishdan, o‘z muammo va yutuqlar haqidagi ma’lumotlarga e’tiborni kuchaytirishdan qochish, suhbat chog‘ida o‘z “men” ini markaziy joyga qo‘ymaslik lozim. Bunda axloqning kamtarinlik va bosiqlik me’yorlari qo‘l keladi.
- O‘z fikrini uqtirishdan avval, noqulay vaziyatga tushib qolmaslik uchun suhbatdoshning ijtimoiy kelib chiqishi, shaxs sifatida, aytilayotgan masala yuzasidan qanday ma’lumotga ega ekanligini bilib olgan yaxshi.
- Suhbatdosh hurmat qilishga, hatto uni fikrini noto‘g‘ri deb hisoblaganda ham oxirigicha eshitish bilan shaxsning so‘z erkinligini ta’minalashga intilish lozim.
- Boshqa insonlarini g‘iybat qilishdan, ularning shaxsiy hayoti, muammosi haqida suhbat qurish ham odobsizlik sanaladi.
- Har qanday suhbat birinchi navbatda ma’lumotlar almanishuvdir. Suhbat jamoat joylarida yoki ko‘chada bo‘lsa, boshqalarni o‘ziga jalb qilmagan xolda, ovoz past ohangda gaplashish lozim. Tez Yoki haddan tashqari cho‘zilib gapirish ham ma’lumotni o‘zlashtirishga xalaqit beradi.
- Kam muomala qilinadigan, yaxshi tanimaydigan insonlar bilan muloqotda bo‘lishda barchaga tushunarli engil mavzu tanlanib olinadi. M: *Futbol, seriallar, qo‘shiqlar, teleko‘rsatuvlar v. x. k* Hech qachon oilaviy muammolar, shaxsiy xayotdagи kelishmovchiliklar, o‘zi tushunmagan va ma’lumotga ega bo‘lmagan tor mutaxassislikka oid mavzular haqida gaplashish nojoiz.
- Barcha hursand holatda suhbatlashayotgan vaqtda, kayfiyatni tushuruvchi, qo‘rqinchli voqealar, ko‘ngilsiz holatlar haqida gapirish boshqalarni kayfiyatini tushirib yuboradi.
- Bemorni ko‘rgani borganda o‘lim haqida, uning kasal tarixi, mayda-chuyda jihatlari haqida gapirish yaxshi emas. Uning o‘rniga yolg‘on bo‘lsa ham ko‘rinishini yaxshiligi, albatta yaxshi bo‘lib ketishi mumkinli haqida suhbat qurish lozim.
- Dasturxon atrofida ishtahani bo‘g‘uvchi mavzular xaqida gapirilmaydi. Ovqatni yomonlash, kamchilik axtarish yomon odat. Aksincha, uni

tayyorlagan insonni ko‘nglini ko‘tarish lozim.

Tarbiyali va madaniyatli inson tanishi haqida umumiy fikr bildirayotganda yolg‘on ishlatmaydi, uni g‘iybat qilmaydi. Bir inson haqida (hatto u yomon inson bo‘lganda ham) fikr bildirayotgan paytda to‘satdan kirib qolgan mavzu «qahramoniga», ko‘pchilik ta’sirida miyg‘ida qo‘lib, sinchkov nigoh bilan piching hamda qochiriqlar qilish ba’zida betga aytilgan haqiqatdan ham kuchliroq dilga ozor beradi.

Suhbatlashish jarayoni nafaqat suhbatlashish balki, tinglash holatiga ham bog‘liq. Tinglash faqat eshitib o‘tirishi kerak degani emas. Yaxshi suhbatdosh hamsuhbat fikrini mantiqiy tugatgandan so‘ng, o‘z fikrini to‘liq bayon qilib beruvchi insonga aytildi. Juda ham kerak bo‘lib qolgan vaqtda o‘zr so‘rab, M: *Kechirasiz, menimcha shu fikringiz.., Yoki Fikringizni bo‘lganim uchun o‘zr so‘rayman, menimcha.* .degan iboralarni qo‘llagan ma’qul. Bu vaqtda ushbu iboralarning egasi suhbatdoshiga so‘zlashga imkoniyat berishi lozim. Bunda dunyoqarash ham katta ahamiyat kasb etadi. Insonning dunyoqarashi haqida gap ketganda, albatta yoshlari bilan kattalar o‘rtasida tushunmovchiliklar bo‘ladi. Shunday paytlarda yoshlari o‘zlarini fikrlarini yoqlamasdan xo‘p deb, mavzuni boshqa yoqqa burib yuborishlari kattalarni dilini og‘ritib qo‘yishdan asraydi.

Muomalada gapning ohangi har xil bo‘lishi mumkin. Bular: takabburlik bilan, sovuq, o‘ziga qaratgan xolda, achchiq-tirziq tarzdagi ohanglar. Bir xil ya’ni monotonli gapishtirish ham boshqalar nazdida zerikarli bo‘lib, qiziqarli ma’lumotni ham xazm qilish qiyin bo‘ladi.

Muomala madaniyatining yana asosiy tavsifnomasi shundan iboratki, bu insonning manerasi, ya’ni xatti-harakatining ohang bilan uyg‘unligi. Bularga qomatni tutishi, qo‘l harakati, yuzdagagi imo-ishoralar kirib ketadi.

Hayotimizni ko‘p qismini bizga notanish bo‘lgan odamlar bilan birga – ko‘cha-kuy, transport, turli xil jamoat joylarida o‘tkazamiz. Nafaqat o‘zimizning kayfiyatimiz, balki atrofimizdagi odamlarning kayfiyati ham jamoatda o‘zimizni qanday tutishimizga bog‘liqdir. Uydan ko‘chaga chiqayotganingizda kerakli bo‘lgan narsalarni: hujjatlar, dastro‘molcha, pul solingan karmon, taroq va boshqa zarur

bo‘lgan mayda-chuyda narsalarni o‘zingiz bilan olganingizga ishonch hosil qilib olganingiz ma’qul. Kiyim bosh, oyoq kiyim, soch turmagi, xullas, boshdan-oyoq o‘zimizga razm solib, so‘ng tashqariga chiqishimiz kayfiyatni ko‘tarib, uyda tashqarida o‘zimizga bo‘lgan ishonchni yanada kuchaytiradi. Ko‘chada o‘zini tutishning eng asosiy qoidasi – bu atrofdagilarning o‘zini noqulay va noxush sezishiga sabab bo‘lmasligidir.

Davrada erkak kishi ayol kishi bilan yumshoq munosabatda bo‘lishi shart, ammo oshirib yubormasligi lozim. Haddan ziyod mulozamatlarga vaqtliroq va bosiqroq javob bermoq lozim. Bunday vaziyatlarda «*Kechirasiz, hazillarga unchalik xushim yo‘q*», «*Qaytaryapsiz*», «*Ko‘rsatuvni oxirigacha ko‘rib olmaymizmi?*»*a*– taxminan shu asnoda javob bergen ma’qul. Gapirayotganda munozaraga berilmasdan, aniq, baland bo‘lмаган ohangda, hotirjamlikni ushlab turmoq zarur. Mulozamatga «*rahmat*»deb qisqacha javob beriladi. Odatda, o‘zini haddan tashqari erkin, aqli qilib ko‘rsatishga intilgan va diqqat markazida bo‘lishini istagida qattiq uringanlar, aksincha noqulay vaziyatga tushib qoladilar. Bunday odamlarga, boshqalarining ismi-sharifiga, bo‘yiga, millati va turar joyiga, sochining rangi, ma’lumoti va avtomobil halokatiga doir hazillar qilish mumkin emasligini hamisha yodda tutishlari kerak

O‘xshamagan mutoyiba hazilga, dilxiralikka qanday javob berish kerak? Omadsiz bunday tarzdagi ifodadan so‘ng, jim bo‘lib qolishdek hech qanday holat kuchli ta’sirga ega emas. Keyin kimdir biron boshqa mavzuda gap boshlagani yaxshi. Agar «*o‘tkir fikrli*» shaxsning tinglovchilarni g‘ashiga tegishida davom etishi to‘xtamasa, unda uy egasi unga qarab: «*Bugun sen negadir o‘zingdamassan*» deb to‘xtatishi lozim. Odamlarni o‘ziga kelmasdan avval hazillarga ko‘mib tashlash kerakmas. Hazil joyida bo‘lgani yaxshi. Hozirjavob hazilning ma’nosiga etib borishda so‘zlovchining qattiq qo‘lgusi halaqit beradi.

Davrada achchiq so‘zlarni suiste’mol qilmagan ma’qul. O‘zini aqli deb biladigan bunday odamlar davrada «*qurban*» topib olib, uni mazax ostiga olish maqsadida turli savollar yoki vaziyatlarga solishga intilishi o‘zini axmoq qilib ko‘rsatishdan o‘zga narsani bermaydi. Bunda tinglovchilar gapirayotgan odamning

aybini qidirishga ko‘proq e’tibor beradilar. Erix Fromm ta’limotida bunday odamlarning ruhiyatida sadizm – zolimlik borligini – «zulm qilyapmanmi demak mavjudman» degan shior yashaydigan kishilarga nisbat beradi. Agarda bunday odamlarning harakati tashqaridan juda xunuk ko‘rinishini, mazlumni emas, o‘zini butun bir tuban xususiyatlarini ko‘rsatayotganini va undagi o‘ta omilikni tashqariga chiqarayotganini bilganida edi hech qachon bunday harakatlarni qilmagan bo‘lar edi. Zigmund Freyd jamoada o‘zini bunday salbiy tutayotgan shaxs hatti-harakatlari aslida hasadgo‘ylikdan ekanligi, bunga guvoh bo‘layotgan jamoat ham aksariyat holatda bunga to‘sinqinlik qilmasa-da, ushbu shaxs to‘g‘risida xuddi shu xulosaga kelishini ta’kidlagan. Bu bilan Freyd jamoada inson o‘zini erkinroq tutadi va badxulqlik bilan bo‘lgan barcha harakatlardan tiyilishi qiyin bo‘ladi, degan xulosaga keladi. Tahliliy ruhshunoslik asoschisi Karl Gustav Yung esa jamoada ushbu ruhiy holatni arxetiplar bilan bog‘lab, unga «trikster» degan nomni beradi. «Trikster u bu odamlar tabiatidagi eng tuban illatlar majmui, jamoaviy onglanmaganlikning tuban ruh – obrazidir». Demak jamoatda boshqalar ta’siridan o‘z salbiy illatlariga erk berish havfi kuchliroq ekan, inson bunday paytda o‘zini yo‘qotmasligi, axloqiy masalalarda mustaqil fikrga ega bo‘lishi kerakligini unutmasligi lozim ekan.

Suhbat olib borish jarayonida tashvishlari bilan band, ma’nosiz nigohlarni ko‘rsatmaslikka harakat qilgan ma’qul. Suhbatdoshga qiziqish bilan, uning so‘zlarini tushunayotganini bildirish uchun ba’zi-ba’zida savol berish yoki aniqliklar kiritib turish zarur. Agar hikoyani eshitgan bo‘lsangiz, hikoyani o‘rtasiga kelganda birdan gapni bo‘lishdan ko‘ra darhol «*Ha, aytib bergen edingiz*» qabilida gapirib qo‘ygan ma’qul. Odobli odam, garchi hikoyani avval eshitgan bo‘lsa ham, so‘zlayotgan odamni bo‘lmaydi. Tasodifan eshitib qolgan narsalarga chuqr sho‘ng‘ib ketib, munozara qilinmaydi.

Bunda axloqiy tarbiyaning ba’zi vositalarini yoki unga yaqin yo‘llarni tanlash qo‘l keladi. “Axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi – san’at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni hamrab oladi”. Zero, zamonaviy ruhshunoslik insonning jamiyat va borliq bilan bo‘lgan turli munosabatlarini nafaqat yo‘lga qo‘yadi, balki uni mustahkamlaydi ham. Misol uchun, ruhiy tahlil falsafasi

asoschisi Freyd ta'limotga ko'ra, madaniy ijod bilan birgalikda badiiy ijod jamiyat faoliyatida shahvoniy qudrat va nafsning ular o'rnini bosadigan ijobiy hodisalarga aylanish orqali, (sublimatsiya) ya'ni, tubanlikdan ulug'vorlikka o'tish natijasida vujudga keladi. Ijodkor jamiyatdagi muammolarning echimini san'at asarlari orqali obrazli tarzda jamiyatning o'ziga taqdim etish bilan topishga intiladi. Ammo shunisi muammoliki, barchaga ham iste'dod va daholik berilavermaydi. Shu jihatdan ham ruhiy tahlil bu masalaning echimni ikki yo'l bilan hal qilishni taqlif etdi. Ilmiy tadqiqotlar natijasi insonning axloqiy munosabatlarida estetik faoliyatning muhim ekanligini ta'kidlay boshladi. ZOTAN, san'at asarini idrok etish insonda ijodiylik va hozirjavoblik qobiliyatini o'stiradi.

Muomalada hozirjavoblik juda katta o'ringa ega. Aksariyat hollarda insonlar davraga kirib kelgan kishini sergaqligi va hozirjavobligiga juda katta e'tibor beradilar. Ayniqa etiketda ko'rishish va so'rashish jarayoni o'zaro ko'zatuvchanlik bilan amalga oshiriladi. Agar ulardan biri bu borada "soddalik" qilsa, odamlar orasida buni bildirishning har qanday yo'lidan foydalanishga intilishni ko'rish mumkin. Buning ruhiy-axloqiy jihat shundaki, o'z vaqtida berilmagan "javob" yoki "soddalik" boshqarilishga loyiq kishi sanalishi, boshqalar oldida "qo'lgi" bo'lish havfi bir tomondan jamiyat qo'ygan etiket qoidalarini o'z vaqtida amalga oshirishga intiltirsa, ikkinchi tomondan o'ng'aysizlikni engish uchun hozirjavoblikni qo'llash orqali badiiy ijodiylikka intiltiradi. Bu borada Freyd «Hozirjavoblik va uning onglanmaganlikka munosabati» asarida hozirjavoblikning vujudga kelishi va uning qabul qilinishdagi ruhiy holatlar talqinini berish bilan birga Freyd qo'lgililikka ham alohida to'xtalib, uning boshqa turlarini, ular orasidagi o'zaro farqlarni tushuntirishga harakat qiladi¹. Davradagi odam boshqaga murojaat qilganda yoki munosabatga kirishganda, beixtiyor suhbatdoshiga so'zlayotgan so'zlaridan birining unli yoki undosh harflarini almashtirib yuborish orqali qo'lgulilikni vujudga keltiradi. Agar bu so'z o'yini atayin, ongli tarzda amalga oshirilgan taqdirda ham

¹ A.T.Kronman. The Lost Lawyer - Failing Ideals of the Legal Profession, Harvard Uni Press, Cambridge, Massachusetts, 1993.

so‘zlovchi ijodiy jarayondagi ijodkor kabi onglanmaganlikka keng yo‘l qo‘yib beradi. Zero, bu jarayon san’atkorona mahoratni talab qiladi. Muallif so‘zlardagi unli va undosh, so‘zlarga qo‘shiladigan qo‘shimchalarni o‘zgartirish bilan juda chiroyli tarzda o‘z maqsadi yo‘lida foydalanarkan, bir jihatdan so‘zlovchining ruhiyatidagi ziddiyatlarni qo‘lgulilik orqali o‘zini dovdir qilib yoki bilmasdan gapirib yuborgan qilib ko‘rsatish bilan tashqariga, suhbatdoshiga zimdan uyushtirilgan hujum sifatida amalga oshiradi. Ikkinchi jihatdan esa, dilini og‘ritmagan holda, ochiqdan-ochiq kurashlarsiz, qo‘lgulilik orqali suhbatdoshini «silliqlik» bilan «haqiqatga» etkazib qo‘yadi. Bunday jarayon muomala etiketida to‘satdan paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘pol munosabatlarni oldini oladi. Biroq, ortiqcha xajviya, hozirjavoblik doimo to‘g‘ri kelavermasligini unutmaslik lozim.

Shirinsuxanlik ham katta san’at. Shirin so‘z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin. Unda yuz ifodasi tilning ko‘rki hisoblanadi. Muomala madaniyatida so‘z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo‘lsa ham “suyakka tegishi” mumkin.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo‘yishni, an’anaviy axloqiy me’yoriy talablarini bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko‘zga ko‘rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorkin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo‘lishi so‘z, nutq vositasida ro‘y beradi. So‘zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati – muomalaning muhim jihatlarini tashqil etadi. Shu bois, muomala odobi o‘zini, eng avvalo, shirinsuhanliq kansuqumliq bosiqqliq hushfe’llilik singari axloqiy me’yorlarda namoyon qiladi.

Muomala odobining yana biri bu – *insoniy nigoh*. Ma’lumki, odamning nigohida, yuz ifodasida, qo‘l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so‘zga aylanmagan hissiyoti, talablari o‘z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo‘l siltab ketishi yoki fikrini bo‘lib, qo‘pol muomalada bo‘lishi madaniyatsizlikni anglatadi. Suhbatdoshni fikrini noto‘g‘ri deb bilgan taqdirda ham tarbiyali va kamtar inson “*Menimcha adashdingiz?*” “*O‘zr, men boshqa fikrdaman*”, “*Kechirasiz, men sizning*

fikringizga qo'shilmayman" degan iboralar bilan murojaat qiladi. Hech qachon "*umuman noto'g'ri*", "*bu to 'g'rida hech narsani tushunmaysiz*", "*bu narsani yosh bola ham biladi*" degan iboralarni ishlatish mumkin emas.

Gapirayotgan insonni fikrini bo'lib, "*Bo'lishi mumkin emas*", "*O'zingiz ishonasizmi?*" tarzidagi iboralar bilan chalg'itish ham odobsizlik sanaladi.

Xushmuomalalik va xushfe'llilikning mug'ombirlikdan va qalbaki tortinchoqlikdan kelib chiqmasligi, samimiy, tabiiy va beg'araz, har qanday mug'ombirlik va soxta tortinchoqlikdan xoli bo'lishi kerak

Hamma davrlarda suhbat, muloqot inson muomalasining asosini tashqil qilgan. Suhbat – bu insonlar o'rtasidagi fikrlar almanishuvi bo'lib, u aqlilik va chiroyli so'zlashdan ibora bo'la olmaydi. Ba'zi insonlar qanday qilib gap boshlashni bilishmaydi, gapirganda o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Juda ko'p keraksiz so'zlarni, ishlatadilar. Bugungi kunda ba'zi yoshlarimiz nutqidan mamnun emasmiz. Chunki ularning nutqi umuman yo'q hisob, gaplari faqat jargon va xunuk so'zlardan iborat. Agar suhbatdoshingizning nutqi jargon so'zlar bilan to'lib-toshgan bo'lsa, o'zi qiynalib poyma-poy gapirsa, talaffo'zi yaxshi bo'lmasa, ohangi quloqqa yoqmasa, eng mazmundor suhbat ham o'z qimmatini yo'qotadi. Hamma vaqt aniq-ravshan, hovliqmasdan, muloyimlik va mayin ovoz bilan gapishtirishga harakat qilish kerak Hovliqib aytilgan so'zni tushunish qiyin bo'ladi, juda cho'zib, sekin gapishtir esa kishining sabr-kosasini to'lib toshiradi. Talaffo'z etilgan har bir so'z, bo'g'in va ohang aniq va ravshan jaranglashi lozim. Juda nozlanib gapishtir ham xunuk odat.

O'z ona tilini hurmat qilgan inson uni bo'zilishiga yo'l qo'ymaydi. Horijiy so'zlarning aniq ma'nosini bilgan va ularni to'g'ri talaffo'z eta oladigan kishi, zarurat bo'lsa, ularni o'z nutqida ishlatishi mumkin.

Ovoz, ohang. Suhbatning tavsifini belgilab berish uchun so'z boyligi va so'zning grammatik qurilishi etarli emas, bu erda gaplashish ohangi va intonatsiya muhim rol o'ynaydi. So'zlashish ohangi iroda va emotsiyal ta'sirni, hissiyotni aks ettiradi. So'zlashish ohangidan hatto kishining kayfiyatini bilish mumkin. Ohang ma'lum darajada kishining xulqini ham aks ettiradi. Yani suhbatdoshimizning tarbiyali yoki tarbiyasizligini ko'rsatadi. Yurish-turish vaziyatlari qanchalik

ahamiyatga ega bo‘lsa, so‘zlashish ohangi ham shunchalik ahamiyatga ega. Bitta so‘z yoki iboraning o‘zi qanday ohangda aytilganligiga qarab bizga har xil ta’sir etishi mumkin. Ko‘pincha aytilgan so‘z emas, balki haqoratomo‘z ohang kishini ranjitadi. Ohangizning chiroyligi yoki ingichkaligi bilan siz bevosita atrofdagilarda og‘ir yoki engil kayfiyat uyg‘otasiz. Ifodalanayotgan so‘zlarning ma’nosini umuman tinglovchilarga hech qanday ta’sir bermaydi. U suhbatdoshingizning javob berish imkoniyatini yaxshilash darjasida bo‘lsa bas. Haqiqiy ma’lumot so‘z ohangizdadir. Asosiy xavf shundaki na siz va na sizning suhbatdoshingiz nishonga teguvchi bu bevosita ifodalanuvchi ma’lumotni onglangan tarzda ham onglanmagan tarzda ham tahlil qila olmaysiz. Har bir zamonaviy inson o‘z ohangini o‘zgartirish imkoniga ega. Avvalambor, haqqoniy eslashga harakat qiladigan bo‘lsangiz, qachondir siz o‘z ohangizga nisbatan maqtovlar eshitgamisiz yo‘qmi buni bilib olasiz. Agar ohangizning yaxshiligiga ishonchingiz komil bo‘lsa, unda ovozingizni tasmaga yozib olib, uni eshitib ko‘ring. Birinchi eshitishdayoq ko‘pchilik o‘z ohangini hayrat bilan tanib qolishadi.

Yoqimli ohang – bunda biz ayollarni nazarda tutyapmiz – odatda nafis ohangdir, baland ham, past ham, tez ham sekin ham emas. Agar sizning ovozingiz boshqalarga yoqmasa, hayotingizdagi tutgan o‘rningizga ohangni mos kelmagandan bo‘lishi mumkin. ehtimol, siz gaplashayotganda charcharsiz. Boshqa nutqdagi qusurlar ham to‘g‘irlansa bo‘ladi. Ammo chiroyli nutq uchun faqat ohangning nafisligi etmaydi. Dunyoqarashning boyligi nutqni yanada go‘zallashtiradi. Zero, quruq so‘zlardan iborat chiroyli nutq odamlarda sizga nisbatan bo‘lgan kinoyani uyg‘otadi. Buyuk Mavlono Jaloliddin Rumiy «*Ichindagi ichindadir*» nomli asarida «So‘z – idrok qilishda so‘zga muhtoj bo‘lganlar uchundir. So‘zsiz idrok etganning so‘zga qanday ehtiyoji qoladi? Idrok eta bilgani uchun ko‘klarning, arning hammasi so‘zdir. Hafif bir sasni eshitganga baqirib-chaqirishning nima hojati bor? Dunyo ham Qur’ondagi «Bo‘l» (Uning amri bo‘l demak edi. U hamon bo‘ldi) so‘zidan bino bo‘lgandir», degan fikrni bildirib ketadi. Shunday ekan, so‘zlarni mazmun bilan boyitish ham muhimdir. Chiroyli nutq egasi o‘z nutqi bilan bir necha marotabagina odamlarni o‘ziga jalb qilishi mumkin. Lekin

mazmunsiz chiroyli so‘zlar odamlarni me’dasiga tegadi. Ish, martaba, kechinmalar va kayfiyatning yomonligi, betoblik atrofdagilar bilan qo‘pol muomalada bo‘lish huquqini bermaydi. Hatto buyruqni ham muloyimliq bosiq ohang bilan va shu qatori bir vaqtda ishga doir qat’iyyatlik bilan berish mumkin. Buyruq ohangidan faqat bajarilishi shart va majbur bo‘lgan soxalarda Ya’ni harbiylar foydalanishi mumkin.

Muhokama - ma’lum bir masala yuzasidan ko‘pchilikni fikrini tuplashni, ma’lum to‘xtamlariga kelishini anglatadi. Muhokamada baxs predmetining hamma tomonlari nazarga tashlanadi. Xar bir ishtirokchi o‘zining erkin fikrlarini o‘rtaga tashlaydi. Mavzu ishtirokchilarning turli xajmdagi diologlari, monologlari asosida yoritiladi. Muhokamada fikrni og‘zaki bayon etishning xar-hil usullaridan foydalaniadi.

Murojaat qilish – insondan ko‘p narsani talab qilmaydi. U kishini tarbiya ko‘rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasidir. Aslida murojaat qilish har – xil kechib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, suhbatdosh bilan o‘zaro munosabatdan kelib chiqqan xolda bildiriladi. Murojaat qilib aytilayotgan so‘zlar nafaqat unga bo‘lgan hurmat balki, maqsadga muvofiqlikda ham qo‘llanadi.

Murojaat qilib aytilayotgan so‘zlar nafaqat hurmat belgisi, balki, maqsadga erishish vositasi hamdir. Murojaat vaziyatga, sharoitga, jamoaga, muhitga qarab yakka shaxsga yoki jamoaga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Biroq, barcha murojaatlar axloq me’yorlariga bo‘ysingandagina ijobiy natija berishi mumkin.

Insoniy munosabatlarda aytilayotgan so‘zlar faqat axloqiy me’yorlarga tayanadi. Bu esa qarindoshlar, sevishganlar, er-xotin, do‘stu-birodar, mansabdor shaxs va xodim o‘rtasidagi munosabatlarda qo‘llaniladigan so‘zlar turlicha bo‘lishini anglatadi. Murojaat ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan munosabat turi bo‘lib, ular og‘zaki yoki yozma ko‘rinishga ega. Murojaat qilish ham bir necha turlarga bo‘linadi: *ular – rasmiy, ishonchli, intim va egasiz*.

Rasmiy murojaatlarda «xonimlar va janoblar» deb jamoatga murojaat qilinadi. Rasmiy murojaatlar mehnat jamoasida rahbarga, ishlab chiqarish korxonalarida yetakchi mutaxassisiga, ta’lim muassasalarida ta’lim beruvchi ustozga, harbiy va huquq tartibot organlarida unvoni katta zabitlarga, davlat

ahamiyatiga molik tadbirlarda jinsga qarab yoki barchaga rasmiy murojaat qilinadi. M: yakka shaxsga nisbatan janob Toxirov deb murojaat qilish mumkin. Agar familiya ishlatilmasa janob direktor, direktor xonim deb murojat qilish maqsadga muvofiq. O‘rtoq Abdullaev, o‘rtoq general, ya’ni “o‘rtoq” so‘zi harbiylar qo‘llaydilar. elchilar hamda yuqori martabali insonlarga nisbatan “*Janobi oliylari*” deb murojaat qilinadi. Rasmiy munosabatda faqat sizlab gaplashiladi. Rahbarning qo‘l ostidagi barcha kishilar bilan bo‘lgan munosabatida ham, 9 yoshdan yuqori bo‘lgan maktab o‘quvchilardan tortib, talabalar bilan bo‘lgan munosabatda ham, notanish insonga murojaat qilganingizda ham sizlab murojaat qilinadi.

Ishonchli munosabatlarda yaqin insonlar, qarindosh-urug‘, hamqishloq, vatanishlarga qilinadigan munosablarga aytildi. Bunday munosabatlarda «Sen» deb faqat oilada yoki yaqin munosabatlarda murojaat qilish mumkin. «*Amaki*», «*xola*», «*tog‘a*», «*opoqi*», «*kelinoyi*» va boshqa qarindoshlar o‘rtasida

Shevadan kelib chiqqan xolda murojaat qilish mumkin. «*Yaxshi yigit*» yoki «*yaxshi qiz*» degan so‘zlar yoshlarga qarata qo‘llaniladi. Jamoat joylarida kasbi kor darja hamda yoshga qarab shofyor, doktor, o‘quvchilar, talabalar, yo‘lovchilar, qizlar, yigitlar, bolalar kabi nomlarni ishlatish mumkin. Intim, ya’ni yaqin munosabatlarda «azizim, jonim, begin, oyim, yuldo‘zim» kabi murojaatlarni uchratamiz. egasiz murojaatlarz munosabatda –“*Kechirasiz falonchi ko‘cha qayerda?*”, “*Aytib berolmaysizmi soat necha bo‘ldi?*”, “*Ruxsat bersangiz kirsam*” va boshqalar.

Intim murojaatlarda shaxsga nisbatan chiroyli, Yoqimli, erkalash ma’nosidagi so‘zlardan foydalangan xolda murojaat etiladi: “Azizim”, “Mehribonim”, “Jonim”, “Begin” kabi so‘zlardan o‘rinda va samarali foydalanish zarur. Murojaatning bu turi insonning didli va farosatli ekanligini ham belgilaydi. Biroq, ushbu so‘zlarni bemavrid ishlatish insonni bachkanalikka olib keladi. Ayniqsa, “jonim” so‘zini barchaga nisbatan ishlatish aslo mumkin emas, bu so‘z faqatgina nikohdan o‘tgan, hayotini bir-biri bilan bog‘lagan kimsrlarga nisbatan ishlatilsa maqsadga muvofiq.

Nomsiz murojaatlarda shaxsni kim ekanligini yaqindan bilish katta ahamiyatga ega emas. Bunday murojaat qisqa mazmunda bo‘lib, biror noma’lum ob’ekt yoki sub’ektni aniqlash, u haqda muayyan ma’lumot olish uchun qo‘llaniladi.

Masalan, “Kechirasiz, Olmazor ko‘chasini ko‘rsatib yuborsangiz?”, “Hurmatli yo‘lovchilar yo‘l haqini o‘z vaqtida to‘lashni unutmang”, “Doktor bolamni ko‘rib qo‘ysangiz, issig‘i tushmayapti.” singari murojaatlarda shaxsning aniq ismi ko‘rsatilmasada, u haqdagi ma’lumotlar va aytildigan fikrlar tushunarli bo‘ladi.

Aslini olganda, O‘zbekistonda murojaatning aniq bir shakli yo‘q. Ko‘p holatlarda har bir joyning o‘zidan kelib chiqib, Shevaga hamda urf-odatga asoslangan xolda murojaat qilinadi.

Yangi tanishgan odam bilan munosabatda tushunmovchilikdan saqlanish uchun tashrifnoma juda qulaydir. Chet mamlakatlarda tashrifnoma juda keng qo‘llaniladi. Ularning rahamlari hamda o‘lchamlari qat’iy qoida bilan cheklanmagan. Inson o‘z tashrifnomasini tutqazar ekan, kelajakda shaxsiy hamda ish bilan bog‘liq aloqani qo‘llab-quvvatlayotganini bildiradi.

Bahs san’ati –“eristika” (yunoncha oristicos – bahclashuvchi) ilm sifatida shakllanishini mutaxassislar odatda eramizdan avvalgi V asr yunon faylasuflari nomi bilan bog‘laydilar. Jumladan, Abderlik Protagor “Bahs san’ati” kitobini yozganligi haqida ma’lumotlar mavjud. Ayni shu faylasuf ilk bor fikr, dunyoqarash, mulohazalar rang-barangligining tabiiyligi va inkor etib bo‘lmash haqiqiy ekanligini tushuntirgan va asoslab bergen. “Inson barcha narsalarning o‘lchovidir”, degan fikrga tayanib, Protagor: “Har bir narsa haqida ikki, bir-biriga zid fikrni aytish mumkin”, - degan xulosani chiqaradi va aslini olganda barcha narsalarning nisbiyligi haqidagi ta’limotga asos solgan. Bahs san’ati masalalarini Aristotel, Platon va boshqa antik davr mutafakkirlari ham o‘z asarlarida tilga olib o‘tishgan.

Qadimgi Xitoy faylasuflari, jumladan, Mo-szi va uning izdoshlari bahs yuritishning bir necha usullarini farqlab bergenlar. Qadim Hind olimlari esa mantiq ilmi doirasida bahslashuvchining o‘zini qanday tutishi, qanday gapirishi, o‘z fikrini asoslashi yoki raqibning fikr yuritishida mantiqsizlikni ilg‘ab, uni inkor etishi kabi

masalalar xususida jiddiy tavsiyalar ishlab chiqqanlar.

Bizning ajdodlarimiz ham bahs yuritish san'ati masalalari bo'yicha o'z qimmatli fikrlarini qoldirganlar. Garchi bizda bahs san'atiga bag'ishlangan maxsus asarlar yaratilmagan bo'lsa-da, Beruniy, Forobiy, ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Zamahshariy, Kaykovus kabi allomalar hamda Voiz Muhammad Rafi', Voiz Qavziniy, Voiz Shirvoniy, Husayn Voiz Koshifiy kabi voizlar o'zlarining tilshunoslikka, mantiqshunoslikka, falsafaga, voizlik san'atiga, she'r ilmiga bag'ishlangan asarlarida bu mavzuga doir o'z fikrlarini bildirganlar.

Bahslashish qoidalari. Bahsning asosiy qoidasi shundan iboratki, hatto juda qulay vaziyatlarda ham odamlarni fikrini o'zgartirish juda qiyin masaladir. Agar o'z qarashlaringizni boshqa birovga o'tkazishni istasangiz, uning fikrini hurmat qiling. Hech qachon odamga uning nohaqligini aytmang. Xato qilish ehtimolini o'zingizda bo'lishiga ham e'tibor bering. Bu barcha turdag'i bahslarga yakun yasaydi. Bu suhbatdoshni o'zi ham siz kabi nohaq bo'lishini tan olishiga imkon beradi.

Bahsni tug'dirmaydigan shunday iboralar ham mavjudki, ularni diqqat bilan eshitishga undaydi. Masalan: «*Sizni dilingizdan o'tayotgan fikrlarga qarshi emasman, balki men ham xuddi shunday qilgan bo'lar edim*». Bahs paytida «*Janjal bilan biron narsaga erishib bo'lmaydi*» degan iborani eslashga harakat qilish lozim. eng yaxshi natijaga erishuvning yo'llaridan biri bu – bahsdan qochishdir. Bahsdan qizishib o'z g'ururini erga urishni istamay, nohaqligini bilib turib ham tan olmaslik mumkin ekanligi ehtimoli bor. Bunga nisbatan o'z fikrini aytib qo'yishning o'zi etarli. Balki bir oz vaqt o'tib, hech qanday bosimning ta'sirisiz ham u to'g'ri xulosaga kelishi mumkin. O'zining haqligini qaysarlik bilan isbotlash yoki bahslashish – ma'lum ma'noda zo'ravonlik ham hisoblanadi va oqibatda, yagona kelishuvga olib kelmasligi mumkin. Anglashilmovchilikni madaniyat, munosabat, tavoze'lik va muloyimliq aniqlik va sovuqqonlik hamda boshqani tushunishga harakat qilish orqali bartaraf qilish mumkin.

Bahs asosli va ishonchli bo'lishi lozim. Bahsda asosan raqibni «*chaqib*» xafa qilish emas, balki undan qochishga harakat qilish shart. Bahsda keltirilgan asoslar mutlaqo to'g'ri bo'lishi lozim. Kasbiy munozara doimo asoslar zanjirini talab qiladi.

Tadqiqotchilarning gaplariga qaraganda, mantiqdan bexabar kishilarga nisbatan mantiqiy isbotlarning keltirish usullaridan boxabar kishilarni jamoatda bahsdan muvaffaqiyatli chiqib ketishlariga imkoniyat darajasi balandroq bo‘lar ekan.

Kasbga doir bahsda o‘zni tutish uslubi doimo muloyimlik kasb etishi zarur. Bosiq va mulozamatli odam doimo g‘olib keladi. So‘zamollik diqqatli jimlik bilan almashishi lozim. Jizzakilik va asabiylashishga o‘rin yo‘q. Individual bahsda asosiysi – asos, mantiq va dalillardir. Imo-ishoralar va hayqirishlarni qabul qilish mumkin emas. Cho‘zilib ketadigan bahslarda har ikkala taraf o‘zining axloqi haqida o‘ylab ko‘rishi lozim. Har holda gap bunday bahslarda singan kosa ustida ketmaydi. Janjallarga sababchi bo‘ladigan odamlar o‘zi haqida o‘ylab ko‘radigan bo‘lsa, odatda «*asablari hech narsaga yaramasligiga amin bo‘ladi*». Lekin bu degan so‘vijdon bilan ochiqchasiga urishaverish kerak degani emas. Bunday odamlarga «*nima uchun men doimo asabiyashaman?*» degan savolni o‘ziga bermoqlikka da’vat etamiz. Ko‘p holatlarda asabiyashishning asl sababini anglab etgandan so‘ng hayot o‘z yo‘liga tushadi. Harakat qilib ko‘rsa arziydi.

Munozara – biror masala yuzasidan taraflarning baxsini, tortishuvini anglatadi. Baxo jarayonida xar bir ishtirokchi o‘zining xaq ekanligini isbotlashga intiladi. Munozarada so‘zlanadigan nutq mavzu mazmunini ochuvchi dalillarga hayajonli, tinglovchilarni qiziqtiradigan va muxokamaga tortiladigan bo‘lishi lozim. Munozarada notiq o‘zini vazmin tutadi. Suhbatdoshini hurmat qiladi. Uning shaxsiga tegadigan so‘zlardan foydalanmaydi.

Munozaraga qatnashuvchi oldiga quyidagi uchta talablar kuyiladi:

- Munozara bo‘ladigan mavzuni to‘g‘ri tushinish.
- O‘z fikrlarini quvvatlaydigan ashyoviy va mantiqiy dalilar topa olishi hamda ularni til orqali to‘g‘ri ifodalay olish.
- Keltirilgan dalillardan mantiqiy xulosalar chiqara bilash.

Bu talablarga javob bermaydigan nutq tinglovchilarga ta’sir etmagandek, notiqning munozarada yutib chiqishiga imkon ham yaratmaydi.

Nutqona so‘zlash - Aytileyotgan fikrni tinglovchiga etib borishi va uning xulqiga ta’sir etishi notiqning so‘zlash maxoratiga bog‘liqdir. Oddiy gaplashishdan

notiqona nutqning farqi shundaki notiq xar bir aytilayotgan so‘zga, gapga, so‘z bog‘lamlariga alohida munosabatda bo‘ladi.

Notiqona nutqning maqsadi va xususiyatlariga ko‘ra *Tashviqiy*, *tanqidiy* va *tabrik* nutqlarga ajratish mukin.

Tashviqiy nutq – deb muallif ko‘zda tutgan biron bir voqeа – hodisani bajarishga tinglovchilarni da’vat etuvchi, undovchi nutqka aytildi.

Tanqidiy nutq – yuz bergen hodisalar, shaxslar xatti-harakatlariga e’tirozli munosabatda bo‘luvchi nutq tanqidiy nutq hisoblanadi. Tanqidiy nutq kuchli mantiqiy mushoxadalarga sunyanadi. Notiq ishonchli dalillar asosida nutq manbaini tanqid qiladi.

Tabrik nutqi – tabrik nutqida notiq turli dalillarlan foydalanadi. Bu dalillar nutq atalgan shaxsning fazilatlarini, yaxshi xulqini, xalq oldida qilgan xizmatlarini, insoniyligini ko‘rsatishga karatiladi.

Tayanch iboralar:

Nutqdagi birinchi ma’lumot, ikkinchi darajadagi ma’lumot, muammoli masalalardan foydalanish, mantiqiy fikrlash ,ovoz, ohang, tabrik nutqi, tanqidiy nutq, tashviqiy nutq, nutqona so‘zlash, munozara, bahslashish qoidalari, nomsiz murojaatlar, intim murojaatlar, rasmiy murojaatlar. Til, nutq, og‘zaki nutq, talaffuz, ohang, imo-ishora, so‘zlovchi, kayfiyat, so‘zlanayotgan vaziyat, so‘zlovchi, nutqiy, kundalik so‘zlashuv nutqi, lektorlar nutqi, radio va televide niye nutqi, sahna nutqi, mahalliy dialekt va shevalarga xos so‘zlar.

Mavzu buyicha savollar:

1. Nutqdagi birinchi ma’lumot deganda nimani tushunasiz?
2. Notiq o‘z nutqida ikkinchi darajadagi ma’lumotlardan qanday foydalanadi?
3. Nutqda muammoli masalalardan foydalanish deganda nimani tushunasiz?
4. Mantiqiy fikrlash usullari
5. Fikrlashning asosiy formalari
6. Suhbat, murojaat haqidagi fikringiz
7. Baxslashish qoidalari xaqidagi fikringiz.
8. Talaffuz, muxokama, munozara, tabrik nutqi.

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar va axborot manbalari.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. – Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O'zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev SH.M. – Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., O'zbekiston. 2017.
3. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunasi qoidalarni tasdiqlash to'g'risida" (*O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 9-son, 94-modda*)lex.uz
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T., Ma'naviyat. 2008.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018y.
2. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O'quv qo'llanma - T.: Universitet, 2017.
3. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2017.
4. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
5. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
6. Bekmirzasv N. Ritorika asoslari. -T.: Yangi nashr, 2008.
7. Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat, 2005.
8. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati.T.: Ta'lim nashriyoti, 2009.
9. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.: O'qituvchi, 1992.
- 10.Qudratov T. Nutk madaniyati asoslari. -T. "O'qituvchi". 1993.

11. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
12. Pulatova D.A., Jalolova O‘.K., Ro‘zmatova G.M. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma – T.: Premier print, 2011.
13. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtieod-molil, 2009.
14. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma – T.: Universitet, 2014.
15. Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o‘quv qo‘llanma. –T., Universitet. 2012.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

1. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. - T “O‘zbekiston”. 1981.
2. Apresyan G.R. Oratorskoe iskusstvo.- M 1978
3. Husain Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. T.: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2010.
4. Aristotel Ritorika. - M 1998
5. Abdiev M. Til boyligi el boyligi. “Muloqot” № 5 2001 B31-32
6. Aserenseva S. Oratori Gretsi. – M. «Xud. lit» 1985.
7. Golub I.B. Kniga o xoroshey rechi - M 1997.
8. Ivanova S.F. Uchitsa ubejdat. Beseda ob oratorskom iskusstve – M.1989.
9. Qur’oni Karim - T. “Cho‘lpon” 1992
10. Bobomurod A. - Islom odobi va madaniyati. - T.”Cho‘lpon” 1995
11. Bezmenova N.A. Ocherki po teorii i istorii ritoriki.- M. Nauka 1991
12. Mixnevich A.E. O krasnorechi v shutku i vseryoz. – M. Znanie. 1989
13. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - T “O‘qituvchi”. 1995.
14. O‘zbekiston Milliy Endiklopediyasi. T. 6. 2003
- A.T.Kronman. The Lost Lawyer - Failing Ideals of the Legal Profession, Harvard Uni Press, Cambridge, Massachusetts, 1993.

6 - mavzu. Ritorikaning uslublari, so‘z va xarakat birligi.

Reja.

1. Notiqlik san’atida uslub va usul.
2. Nutqdagi xissky - tutyonyiy xolatlar.
3. Nutqning psixologik madaniyati.
4. Notiqning ko‘rinishi, ko‘l harakati va yuzdagi mimika.

Ritorika – ijtimoiy xayotning barcha jabxalari uchun xizmat qiladi. Buni hech kim inkor qila olmaydi. *Nutq uslublari* aloqaning maqsadga muvofiq so‘zlovchining so‘z boyliklaridan tanlab foydalanishi tufayli nutqning tarixan shakllangan ko‘rinishidir. Til boyliklarini tanlab ishlatishga qarab nutq ko‘rinishlari bir nescha turga ajratiladi. Ana shu hilma-hilik nutq usullari (stillar) deb ataladi. *Usullar* – u shunday qurokki undan to‘g‘ri foydalana olgan notiq juda katta muvoffaqiyatlarga erishadi. Nutq tarixiy taraqqiyot protsessida, ong bilan birga, insonlarda til vositasi bilan aloqa bog‘lash, bir-birlariga biror narsani aytish ehtiyoji tug‘ilishi natijasida paydo bo‘lgan. Nutq – tilning taraqqiyoti, tafakkur taraqqiysi bilan birga rivojlana boradi. O‘z nutqini to‘g‘ri tashkil eta bilish notiqlik san’atini egallashning muhim shartlaridan biridir. Yaxshi notiqning nutqi hamisha mazmunli, tushunarli, ifodali va ta’sirchan bo‘ladi. Nutqni to‘g‘ri tashkil eta bilish Buyuk notiqlar tajribasini o‘rganishdan tashqari nutq madaniyatini uqib olishni talab etadi. Nutq madaniyati quyidagi ko‘rinishlarga ega:

1. Nutqning til madaniyati;
2. Nutqning psixologik madaniyati;
3. Nutqning aloqa madaniyati (kommunikatsiyasi)

Nutq vositasi bilan aloqa bog‘lash insonning doimiy ehtiyoji bo‘lib, bu aloqa fikr olishuvga xizmat qiladi. Notiq nutqining ta’sirchanligida intonatsiyanint ahamiyati katta. Notiq tinglovchilarga tabiat va turmushdagi biror hodisaga, narsaga qiziqish paydo qilish, nutq qaratilgan predmetning xususiyatlarini ularga to‘laligicha etkaza bilish uchun nutqga talaffuzga alohida e’tibor berish lozim.

Intonatsiya stilistik ahamiyatta ham egadir. Jumladan, intonatsiya *odatdagi va notiqlik intonatsiyasiga* bo‘linadi. *Odatdagi intonatsiya* umumiy xarakterga ega bo‘lib, kishilarning bir - birlari bilan nutqiy aloqalarida, bir - birlarini anglab

etishlarnda ko'llanilsa, *notiqlik intonatsiyasi* notiq nutqining tinglovchilar ongiga ta'sir etishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Nutqning til madaniyati lug'at madaniyatini egallahni talab etadi. Bunda notiqning individual lug'ati faol ravishda kengayib borishi, nutq so'zlarining to'g'ri va ko'chma ma'nolari ahamiyatining ortib borishi ko'zda tutiladi. Sinonimlar, omonimlar va antonimlardan to'g'ri foydalanish, terminlar va ularni to'g'ri tadbiq eta bilish, chet el so'zlari va qisqartirilgan, murakkab so'zlarni bilish hamda ularni o'z o'rnida ishlatish lug'at madaniyatini egallahning muxim shartidir. Tilda bo'lган hamma so'zlearning jami *lug'at sostavi* deb ataladi. Qaysi tilning lug'at sostavi benihoya boy va hilma - hil bo'lsa, bu til rivojlangan til bo'ladi. Xar bir notiq foydalanayotgan va foydalanishi mumkin bo'lgak lug'at sostavi qanchalik boy va tarakkiy qilgan bo'lsa, uning individual lug'ati va nutqi ham shunchalik boy va taraqqiy qilgan bo'ladi.

Og'zaki nutqning stilistik madaniyati tinglovchilarga ta'sir etishning ma'lum vositasidir. Odatdagi nutqlar :

- So'zlashuv uslubi
- Ilmiy uslub
- Badiy uslub
- Rasmiy uslub
- Publistik uslub

orqali auditoriyaga yetkaziladi.

So'zlashuv uslubi. Bu usul leksikasi, fonemasi, morfologiyasi va sintaksisi bilan xalqning oddiy so'zlashuv tilini o'zida aks ettiradi. So'zlashuv uslubi uchun oddiylik, soddalik, betakalluflik, hayajonlilik hosdir. So'zlashuvda odatda kundalik muomalada, muloqotda ko'p ishtirok etadigan, o'zaro turmush ikir - chiqirlari haqidagi munosabatlarni ta'minlaydigan, kundalik aloqa - aralashuv uchun xizmat qiladigan til birliklari ko'p uchraydi : xol - axvol so'rashlarda, o'zaro samimiylaloqlarda, uy - ro'zg'or, qo'ni - qo'shnichilik, qarindosh - urug'chilik aloqalarida, kundalik suhbatlarda uchraydigan birliklardan ko'p foydalaniladi: mayli, mayliga, xo'p, kirib turnig, chikib to'ring, so'rab qo'ying, salomat bo'ling, xudoga shukur, qoyil, boravering, yashavoring, omon bo'ling, barakalla, o'rgilay, aylanay, ishqilib,

bo‘ptida, keling, ishlab turibmiz, salom ayting, zang‘ar, qurg‘ur, qotirib tashladik, qo‘yavering kabilar ko‘p uchraydi.

So‘zlashuv uslubidagi og‘zaki nutqda ba’zan yozma nutqka, Shevaga, vulgarizm va boshqalarga hos va so‘z Shakllarining ta’siri bo‘ladi. Bu xususiyat ancha yashovchandir. Xar bir Sheva vakili jonli so‘zlashuvda o‘z Shevasida gapirishga odatlanib qolgan bo‘ladi.

Boshqa tillarga oid, kundalik turmush bilan bog‘liq bo‘lgan lug‘asiy birliklar so‘zlashuvda ko‘p uchraydi. Va aksariyat xollarda u orqali ikkinchi tilga o‘zlashadi M: ostanovka, tolka, privet, daje, ladno, dom .kabilar.

So‘zlashuv nutqida samimiylit, xalqchillik, soddalik, erkinlik ancha kuchli bo‘ladi. Ana shunga ko‘ra so‘zlar adabiy til me’yorlaridan farqlangan xolda qo‘llanadi: olib kel - obke, ko‘yib yubor - ko‘yvor. Nutq jarayonida so‘zlarni, gaplarini, qisqartirgan xolda ko‘llash ham xarakterli bo‘ladi. Dilfo‘za - Dilfo‘z, Xa!, yuq!, Albatta! Vaziyat suhbatdosh uchun katta ahamiyat kasb etadi. Bu xolatda suhbatdoshlarning imo - ishoralari, harakatlari, ovozning kuchayishi va pasayishi, to‘xtatish, sukutlar, kisqasi xar bir xolat muhim o‘rin tutadi.

Rasmiy uslub. Bu usul rasmiy xujjatlar til xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi- Elonlar, konunlar, sud va davlat idoralari xujjatlari shu uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma’lumotnama, chaqiruv qog‘obi, taqlifnama, shartnama, tarjimaiy xol, e’lon, adres, tavsifnama. hisobot kabi xujjatlar ham rasmiy uslubda bo‘ladi. Bunday uslubdagi xujjatlar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning ham o‘ziga hos leksik hamda grammatik xususiyatlari mavjuv: so‘zlar o‘z ma’nosida qullanadi, ko‘pinchalik ma’lum ayrim qisqartma so‘zlar ishlatiladi, xar bir soxaning o‘ziga hos terminlaridan foydalilanadi. Mazkur uslubning asosiy xususiyatlari eng avvalo fikrni aniq ifoda qilinishi va ifodaning bir hil kolipda bayon etilishida ko‘rinadi. Rasmiy uslub leksikasining yana bir xususiyati unda professional (yuridik, diplomatik, ma’muriy va boshqalar) terminalogi Yaning mavjudligidir: akt, guvoxnama, qaror, qidirish, aybni og‘irlashtiradigan xato, axdlashuvchi oliy tomonlar, elchi, elchixona, ishonchli vakil, nota, shartnama, bayonot, dekloratsiya, vizit, diplomatik protokol, xalqaro vaziyat va xokozo. Bu uslubda

jargonlar, og‘zaki so‘zlashuv uslubiga hos so‘zlar ishlatilmayli.

Ilmiy uslub. Ilmiy uslub fanning turli soxalariga aloqador so‘z va atamalarni ko‘proq tasarruf qilish, bayonning ko‘proq mantiqiy dalillarga suyanish bilan boshqa uslublardan aniq, qoidalar, formulalar, asosida ifodalanishi bilan farqlanadi. Ilmiy uslubda so‘zlar o‘z ma’nosida ko‘llaniladi: qoida yoki ta’rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan, ajratilgan bo‘laklar, kirish so‘z va iboralar, shuningdek qo‘shma gaplardan ko‘proq foydalaniлади. Ilmiy nutq asosan ilmiy ishlar nutqi bo‘lib, uning aniq ko‘rinishlari ilmiy maqola, ilmiy risola, dissertadiyalar, monografiyalar, ilmiy ma’ruzalar Shaklida namoyon bo‘ladi. Ilmiy uslubning xozirgi zamon taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda quyidagi umumiy xususiyatlarini ko‘rsatish mumkin:

- Axborotning ob’ektivligi, aniqligi.
- nutqning ma’lumotlarga boyligi.
- fikrning qisqa va lo‘nda ifodalanishi.

Ilmiy nutqning kitobiy uslubga tegishliligi unda aytildagan fikrinig oldindan o‘ylab ko‘yilishida, uning monologik xarakterga ega bo‘lishida, mantiqiylik, fikr bayonotining qat’iy tartibnda, adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilishda, uslubiy bir hillik xarakteriga ega ekanligida ko‘rinadi.

Publitsistik uslub. Davrning ijtimoiy-siyosiy dolzarb mavzusini aks etirish publitsistik uslubga hosdir. *Publitsistika* – so‘zi lotincha so‘z bo‘lib, ijtimoiy yoki xalq, ijtimoiy xalqchil degan ma’nolarni bildiradi. Publitsistik nutqda ta’sirchan so‘z va so‘z birikmalaridan, maqol va aforizmlardan ham foydalaniлади. Publitsistik uslubda gap bo‘laklari odatdagi tartibda bo‘ladi. Kesimlar, buyruq va xabar maylidagi fellar bilan ifodalaniladi: darak, xis-hayajon va ritorik so‘roq gaplardak, yoyiq undalmalardan, takroriy so‘z va birikmalardan foydalaniлади. Matbuot nutqi odatda ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy - axloqiy, adabiy - tanqidiy mavzulardagi ommaviy nashrlarda, notiqlarning nutqlarida, radio va TV da chiqishlarida namoyon bo‘ladi. Publitsistik va badiiy uslubning ham o‘xhash tomonlari bor. Xar ikkala uslubda ham emotsiонallik, ekspressivlik, obrazli ifodalar, tasviriy vositalar, badiiy til imkoniyatlaridan foydalishga intilish kuchli. Publitsistik uslubda gazeta tili alohida o‘rin egallaydi. Chunki gazeta va publitsistika bir - biri bilan chambarchas bog‘liq. Shu

bilan birga, gazeta uslubi publitsistik uslubning bir tarmog‘i xisoblanadi. Publitsistik uslubda til vositalaridan foydalanishda muallifning individual uslubi deyarli ajralib yoki sezilib turadi. Ayniqsa, bu xolat ocherk, feleton, badiiy publistik maqolada tez ko‘zga tashlanadi.

Badiiy uslub. Badiiy uslub nutqning boshqa uslublaridan dastlab o‘zining obrazliligi, estetikligi va ta’sir etish vazifasi bilan ajralib turadi. Badiiy nutqda til leksikalarining hamma qatlamlari ishtirok etadi.

Badiiy uslub uchun shaxsiy obrazli so‘z ishlatish xarakterlidir. Xar bir muallif o‘ziga hos usullardan foydalanadi. Bu bilan o‘ziga hoslikka, asarni o‘qimishli bo‘lishini ta’minlashga intiladi. Badiiy nutqda asosan tilning badiiy ta’sir vositalari ishlatilgan bo‘lib, boshqa uslublarga hos hususiyatlar ma’lum maqsad bilan cheklangan miqdorda, shartli ishlatiladi. Badiiy nutq usulining uchta ko‘rinishlari mavjud:

- Nasriy nutq
- Poetik nutq.
- Dramatik nutq.

Bular ichida poetik nutq tilning badiiy tasviri vositalaridan foydalanishning eng Yuksak namunasi xisoblanadi.

Tun bilan yig‘laydi ***bulbul***
G‘uncha xajri dog‘ida,
Ko‘z yoshi shabnam bo‘lib
 Qolmish uning yalrogida
Sevgi saxrosida qolmish
 Necha Majnundan ***g‘ubor,***
 Necha Farxod ***gardi*** yotgay
 Bistunning tog‘ida
 G‘unchadek chexramda Erkin
 Jon fido etgay sanam,
Qatra qonidin gul unsin
 To ***muxabbat bog‘ida.***

(E.Voxidov)

Ajratib ko'rsatilgan so'z va so'z birikmalari poetik nutqka hoslangan va bugungi kunda ham badiiylikni ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Nutqning til madaniyati *mimika va qo'l harakatlari* madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Mimika, ya'ni yuz mushaklarining harakati kishining ichki ruhiy holatini aks ettirib, u qanday hislarni boshidan kechirayotgani haqida to'g'ri axborot beradi. Mimik ifoda 70% dan ko'proq axborotni tashiydi. Boshqacha aytganda, inson ko'zlari, ko'z qarashi, yuzi aytilgan so'zlardan ko'ra ancha ko'p ma'lumotni berishi mumkin. Zehni o'tkir, hushyor tinglovchi notiqning yuziga qarab, uning o'z so'zlariga, atrofidagi odamlarga munosabatini his etadi. Kimdir xonaga do'stona ochiq yuz bilan, kimdir o'zgacha qiyofada qadam qo'yadi. Hali ma'ruza (suhbat) boshlanmasdan turib, ana shu uchrashgan odamlarning yuz ifodasi muayyan muhitni shakllantirib bo'ladi. Auditoriya, Avvalo, notiqning mimikasiga e'tibor qaratadi. "Ko'ziga qarab gapirish" iborasi behuda emas. Suhbatdoshning asl niyati, so'zlarining to'g'ri-noto'g'riliгини bilish uchun "ko'zimga qarab gapir" deymiz, odatda. Mutaxassislar fikricha agar odamning muloqot paytida suhbatdoshining ko'ziga qarab gapirgan vaqtı jami suhbatga ketgan vaqtning uchdan bir qismidan kamrog'i tashkil etsa, demak, u yo axborotni yashiryapti yoki yolg'on gapiryapti. Ko'z qarash orqali biz nafaqat axborot uzatamiz, balki axborotni qabul ham qilamiz. Notiq ko'zlari orqali auditoriyaga (suhbatdoshga) bo'lgan hurmatini, tinglovchi(lar) bilan xayrixohligini ifodalovchi signallarni uzatadi. Shu bilan birga, bunday ko'z qarash notiqning o'ziga ishonishidan, o'zining haq ekanligini anglashidan dalolat beradi. Ko'zlari to'xtovsiz harakatda bo'lgan, bir shipga, bir yerga, bir bo'shliqqa ko'z-qarashini yo'naltirgan notiq tinglovchilarda qarama-qarshi tuyg'ularni uyg'otadi. Masalan, ular notiqni manman, o'ziga ishonmagan, qo'rqayotgan, nosamimiyl, ma'ruza (suhbat) ga tayyor emas degan xulosaga kelishlari mumkin. Nutq so'zlash jarayonida qisqa muddatgagina va albatta bunga zarurat tug'ilganda, masalan, biron muhim narsani eslamoqchi bo'lganda yoki jumbushga kelgan hislarini bosib olish uchun ko'zlarini tinglovchilardan olib qochish mumkin. Aslini olganda, ruhshunos olimlarning tadqiqotlariga ko'ra inson ko'zlarining bunday sharoitdagi

harakati ongsiz ravishda sodir bo‘ladi. Inson ko‘z-qarashini deyarli mashq orqali boshqara olmaydi va shuning uchun ham boshqa a’zolarga nisbatan suhbatdoshning ruhiy-hissiy holatini ko‘pincha aniq aks ettiradi. Kishi so‘zlar bilan istagan holatini (qayg‘usini, dardini, xursandchilagini, g‘azabini) ifodalashi mumkin, biroq uni ko‘z-qarashida ko‘rsatmaslik uchun yo butun irodasini ishga solishi, yoki maxsus va uzoq mashq qilishi kerak bo‘ladi. Notiq nutqining ta’sirchanligini oshirishda mimika va ko‘l harakatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Mimika va imo - ishoralar nutqning emotsiyal (xissiy) tomonlarini ifodalab beradigan ixтиyorsiz harakatlardan yoki gapiruvchi inson o‘z nutqining ayrim joylarini uqtirmoq, bo‘rttirib ko‘rsatmoq uchun atayin qiladigan harakatlardan iborat bo‘ladi. Notikning o‘z nutqiga qanchalik berilganligi, uni kishilarga etkaza bilishi ifodali harakatlarida namoyon bo‘ladi. Notiq ifodali harakatlar yordamida nutq qaratilgan predmet yoki voqelik xaqidagi o‘z tasavvurlarini, kechinmalarinigina tinglovchilarga etkazib qolmasdan, balki shu bilan birga, tinglovchilarda ham shu predmet yoki voqelik haqidagi tasavvur tug‘dira bilishi, yangi kechinmalar paydo qilishi mumkin bo‘ladi. Kishi yoddan ko‘tarilgan biron narsani eslashga harakat qilganida ko‘zlar bexos yuqoriga yo‘naladi, hissiyotga berilganda yoki o‘z-o‘zi bilan xayolan gaplashayotganda ko‘pincha pastga qaraydi va h.k. Bunday paytda bir daqiqaga auditoriya (suhbatdosh) bilan so‘z aloqasini uzish mumkin, biroq darhol bunday aloqani tiklash kerak. Chunki tinglovchi(lar) ko‘z muloqotidagi me’yordan ortiq uzilishga darhol munosabat bildiradi. Muloqot paytida ko‘zlarning ahamiyati yana shunda ko‘rinadiki, inson qabul qiladigan axborotning 87% i ko‘z analizatori orqali o‘tadi, 9% i eshitish analizatori, qolgan 4% i esa miyaga boshqa sezgi organlari orqali o‘tadi. Shuning uchun ruhshunos olimlar suhbatdosh (tinglovchi)da ishonch va yaxshi munosabat uyg‘otish uchun muloqot paytida 70% dan kam bo‘lmagan vaqt davomida uning ko‘zlariga qarab turishni maslahat beradilar. Albatta, bunda ham vaziyatni hisobga olmoq kerak. Xususan, ko‘z-qarash davomiyligining milliy xususiyatlari ham bor. Masalan, yevropaliklar, odatda uzoq vaqt suhbatdoshining ko‘ziga qarasa, yaponlar o‘z nazarlarini ko‘proq bo‘yinga qaratadilar, bizda esa ayrim holatlarda ko‘zga (Avvalo,kattalarning va lavozimi yuqori kishilarning ko‘ziga) tik qarash odobsizlik belgisi sifatida talqin etiladi. Auditoriya

katta bo'lsa, hammaga barobar qarash qiyin-ku, degan savol tug'iladi. Ammo notiq bunga erishmog'i kerak. Buning uchun navbatma-navbat barcha tinglovchilar bilan muloqot qilish yoki alohida guruh tomonga qarab gapirish mumkin. Har holda notiq tinglovchilar tomon qarab gapirmog'i shart, shunda tinglovchilarda notiq ularning barchasini ko'rib turganidek taassurot paydo bo'ladi. Ko'z bilan bir qatorda, yuzning boshqa qismlari - peshana, og'iz, lablar, burun, dahan ham inson his-tuyg'ularini: qayg'u, g'azab, xursandchilik, hayrat, qo'rquv, baxt, qiziqish, munislik va shu kabilarni aks ettiradi. Ayniqsa,, qosh va lablar odamning haqiqiy tuyg'ularini anglashda qo'l keladi.

Muloqot jarayonida inson xatti-harakatlari va imo-ishoralarining "lug'ati" ancha keng bo'lib, ular ham juda ko'p axborotni uzatishi mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'z hislarini namoyish etmoqchi bo'lgan odamlar harakat va imo-ishoralarga murojaat etadilar. Ularni tushunish muloqot paytida odamlarga to'g'ri baho berish hamda vaziyatga muvofiq so'z ishlatish va harakat qilish imkoniyatini oshiradi. Muloqot jarayonida quyidagi harakatlar tez-tez qo'llaniladi:

- 1) baholash harakatlari (kishi olingan axborotni baholayapti, tushunishga harakat qilayapti, (dahanini silab qo'yish; ko'rsatkich barmog'ini yuziga qo'yib turish, o'midan turish va yurish va h.k.);
- 2) o'ziga ishonchni bildiruvchi harakatlar (barmoqlarni gumbaz shaklida bog'lash: o'rindiqda chayqalib o'tirish; qo'llarini orqaga olish, kaftlarini bir-biriga ishqalash va h.k.);
- 3) asabiylashish va o'ziga ishonmaslikni bildiruvchi harakatlar (qo'l barmoqlarini tugun qilib tutish, kaftini chimchilab-chimchilab qo'yish, barmoqlar bilan stolni taqillatib turish, qo'llarni musht qilib siqib-siqib qo'yish va h.k.);
- 4) inkorni bildiruvchi harakatlar (gavdani orqaga tashlab o'tirish, burunning uchini silab-silab qo'yish, qo'llarni ko'krak qismida chirmashtirib turish, miyig'ida kulib turish va h.k.);
- 5) xayrixohlikni bildiruvchi harakatlar (kaftini ko'ksiga qo'yish, suhbatdoshga qo'lini tekizib qo'yish va h.k.);
- 6) ustunlikni namoyish etuvchi harakatlar (boshmaldoqni ko'rsatish, namoyish

etish bilan bog'liq harakatlar, qo'lni keskin siltab-siltab qo'yish va h.k.);

7) nosamimiylifikni ifodalovchi harakatlar (og'izni to'sishga qaratilgan harakatlar yoki buning yashirinroq shakli bo'lgan burunga qo'l tekizib qo'yish, nazarni olib qochish, gavdani suhbatdoshdan chetga burish, ko'zlarining olazarak bo'lishi va h.k.)

Nutqning ohangi bo'lgani kabi, tana "tili"ning ham ohangi mavjud va unga qarab ma'nosi turlanishi, o'zgarishi mumkin. Mumtoz she'riyatimizdag'i bir baytni yodga olish o'rinli bo'ladi. Oshiq sevgilisiga murojaat etadi. "Dedi: qo'yay oyog'ing tuprog'ig'a bosh, Dedim: qo'y". Bunda yor qanday ohangda aytganiga qarab, "qo'y" so'zi "kerak emas" yoki "boshingni eg" ma'nosini beradi. Shunga o'xhash, masalan, kifti pastga qaragan holda qo'lni egish, bukish suhbatdoshni mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik ma'nosini beradi, ammo vaziyatga qarab hamda mazkur harakat unga "ohang" beruvchi boshqa harakatlar bilan uyg'unlashganda diqqat qilishga da'vat, aytilgan fikrga aniqlik kiritish, shoshmaslikka chaqirish, jirkanish kabi ba'zan mutlaqo bir-biriga zid ma'nolarni anglatishi mumkin.

Muloqotga kirishgan odamlarning xatti-harakatlari, "tana tili" haqida gap borganda, notiq uning yana bir xususiyatini bilmog'i kerak. Inson o'z his-tuyg'ularini muayyan harakatlar (belgi-ishoralar) orqali bildiradi. Ammo his-tuyg'u bilan uni ifodalovchi harakat-belgi o'rtasida teskari aloqa ham mavjud. Ya'ni kishi bunday harakatlarni qilish imkoniyatidan mahrum etilsa, uning ruhiy holatida ham o'zgarish sodir bo'ladi. Boshqa so'zlar bilan aytganda, nafaqat harakat inson ruhiy holatining natijasi sifatida namoyon bo'ladi, balki ruhiy holat ham harakatning natijasi o'laroq shakllanishi mumkin. Bu borada masalan, shunday tavsiyani berish mumkin: bahs, suhbat yoki muzokara olib borilayotgan paytda suhbatdoshni sizga salbiy munobat belgisi bo'lgan bir-biriga chirmashgan barmoqlarini yozish va kaftlarini ochishga majbur qilish kerak. Buning uchun, aytaylik, unga choy uzatish, qo'llariga biron narsani tutqazish mumkin. Yana bir misol: Ma'lumki, ko'ksida chirmashgan qo'llar o'ziga xos himoyalanish harakatini ifodalaydi. Agar tinglovchi (suhbatdosh) qo'llarini ana shunday tutgan bo'lsa, u yo asabiylashayapti, yo xavf sezayapti yoki gapirayotgan odamga nisbatan unda salbiy munosabat shakllangan. Qanday bo'lmasin, bunday holatda odam tinglayotgan axborotning nisbatan kam qismini o'zlashtiradi. Umuman

olganda notiqning xarakatlari tabiiy va shu bilan bir qatorda mavzuning xarakteriga monand bo‘lishi kerak. Ortiqcha va sun’iy xarakat tinglovchilarning asabiga tegadi va ularni charchatadi. Aksincha, bir me’yordagi harakatlar, mimikalar va yurish - turishlar ham tinglovchilarga yomon ta’sir etadi.

Til, nutq va tafakkur biri-biri bilan chambarchas bog‘langandir. Odam nutq va til vositalari bo‘lmasa, fikr qilolmaydi, nutq fikrlash qurolidir. Fikrni ifoda qilish uchun xizmat qiladigan artikulyasiya, tovush sostavi va intonatsiya, leksika, grammatik tuzilish va stilistik hususiyatlar til vositalaridir. Xullas, til esa bilimlarni tarqatishning muhim vositasidir.

Nutqning psixologik madaniyati. Nutqning psixologik madaniyati til vositalari yordamida talaffuz qilish protsessida yozma va og‘zaki nutqni tushunarli, ifodali va ta’sirchan qiladi. Nutqning psixologik madaniyati *nutqning mazmundorligi, tushunarligi, ifodaligi va tasirchanligini* o‘z ichiga oladi.

Nutqning mazmundorligi, avvalo ma’lum qilinayotgan faktlarning ijtimoiy, ilmiy va badiiy qimmatiga va notiqning umumlashtirish qobiliyatiga bog‘liq Nutqning mazmundorligi, shuningdek bayon qilinayotgan ma’lumotning aktualligi va xayotiy qimmatliligi bilan belgilanadi.

Nutqning tushunarli bo‘lishi, bir tomondan til hususiyatining mazmuniga va nutq o‘rtasidagi munosabatlariga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasiga ham bog‘liq. Tinglovchilarning qiziqishlari va hayotiy talablariga Yaqin bo‘lgan nutqgina juda tushunarli bo‘ladi.

Nutqning ifodaliligi til formasining mazmuniga, tinglovchilarga murojaat qilingan so‘zlar naqadar to‘g‘ri ifoda etilganligiga, ushbu sharoitning naqadar to‘g‘ri hisobga olinganligiga va nutqning kimga qaratilganligiga (Ya’ni kim gapirdi, nima uchun, kaysi sharoitda, qanday munosabatda ekanligiga) ham bog‘liq.

Nutqning ta’sir qiluvchi tomoni, avvalo, uning mazmunli, shuningdek, nutqning tushunarli va ifodali bayon etilishiga bog‘liq. Notiq nutq yordamida tinglovchilarda ongli harakatta nisbatan qiziqish uyg‘otadi.

Nutqning aloqa madaniyati (kommunikatsiya) - bu til vositasi yordamida to‘g‘ridan - to‘g‘ri aloqa qilish madaniyatidir. Ma’lumot va aloqa nazariyasi turli

sharoitlardagi muomala – munosabatlarning yordami natijasida olinadigan ma'lumotlarning umumiylarini ifoda qiladi. *Notiq* – informatsiyaning chinakam manbai, uning nutqi esa ma'lumotlarning maxsus ravishda tashkil qilingan sistemasidir.

Tayanch iboralar:

Uslub, usul, xissiy - tug‘yoniy xolat, notiqning ko‘rinishi, qo‘l harakati, yuzdagimimika, nutqda ko‘rgazmadan foydalanish, nutqning psixologik madaniyati, nutqning aloqa madaniyati, (bir tomonlama) axborot uzatish, interaktiv (ikki tomonlama o‘zaro ta’sir), perzeptiv (o‘zaro bir-birini idrok qilish), verbal muloqot, noverbal muloqot, nutqning ta’sir qiluvchi tomoni, Nutqning tushunarli bo‘lishi, nutqning ifodaliligi, nutqning mazmundorligi, nutqking psixologik madaniyati.

Mavzu bo‘yicha savollar:

1. Ritorikada uslub nima? usulchi?
2. Nutqdagi xissiy - tug‘yoniy xolatlar deganda nimani tushunasiz?
3. Notiqning ko‘rinishi, qo‘l harakati va yuzdagimimika qanday bo‘lishi lozim?
4. Nutqda ko‘rgazmadan foydalanish deganda nimani tushunasiz?
5. Nutqning psixologik madaniyati haqidagi fikringiz?

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar va axborot manbalari.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birligida barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev SH.M. – Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., O‘zbekiston. 2017.
3. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunasi qoidalari tasdiqlash to‘g‘risida” (*O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami*, 2016 y., 9-son, 94-

modda)lex.uz

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. -T., Ma'naviyat. 2008.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar:

1. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket. Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018y.
2. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O'quv qo'llanma - T.: Universitet, 2017.
3. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2017.
4. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
5. L.Muhammadjonova, F.Abidanova Etiket. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. O'zMU, 2018.
6. Bekmirzasv N. Ritorika asoslari. -T.: Yangi nashr, 2008.
7. Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat, 2005.
8. Husanov B., G'ulomov V. Muomala madaniyati.T.: Ta'lim nashriyoti, 2009.
9. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev YO. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.: O'qituvchi, 1992.
- 10.Qudratov T. Nutk madaniyati asoslari. -T. "O'qituvchi". 1993.
- 11.Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
- 12.Pulatova D.A., Jalolova O'.K., Ro'zmatova G.M. Axloqshunoslik. O'quv qo'llanma – T.: Premier print, 2011.
- 13.Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtieod-molil, 2009.
- 14.Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O'quv qo'llanma – T.: Universitet, 2014.
- 15.Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket.o'quv qo'llanma. –T., Universitet. 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. - T “O‘zbekiston”.1981.
2. Apresyan G.R. Oratorskoe iskusstvo.- M 1978
3. Husain Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. T.: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2010.
4. Aristotel Ritorika. - M 1998
5. Abdiev M. Til boyligi el boyligi. “Muloqot” № 5 2001 B31-32
6. Aserenseva S. Oratori Gretsii. – M. «Xud. lit» 1985.
7. Golub I.B. Kniga o xoroshey rechi - M 1997.
8. Ivanova S.F. Uchitsa ubejdat. Beseda ob oratorskom iskusstve – M.1989.
9. Qur’oni Karim - T. “Cho‘lpon” 1992
10. Bobomurod A. - Islom odobi va madaniyati. - T.”Cho‘lpon” 1995
11. Bezmenova N.A. Ocherki po teorii i istorii ritoriki.- M. Nauka 1991
12. Mixnevich A.E. O krasnorechi v shutku i vseryoz. – M. Znanie. 1989
13. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - T “O‘qituvchi”. 1995.
14. O‘zbekiston Milliy Endiklopediyasi. T. 6. 2003

7 - mavzu. Ritorikaning axloqiy tamoyillari

Reja

1. Chiroqli so‘zlashning axloqiy funksiyalari.
2. Nutq odobi.
3. Muomalada oddiylik.
4. Notiq shaxsiga qo‘yiladigan talablar.

Muomala axloq ko‘rki sanaladi. Har bir insonning qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi, uning boshqalarga qilayotgan muomalasidan ma’lum bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, muomala insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Bir-birimizga bo‘ladigan muomalamiz, munosabatimizning zamirida ham chiroqli muomalaning shartlari yotadi.

Nutq odobi – insonning umumiyligi axloqini belgilovchi asosiy mezondir. o’rta Osiyoda axloqiy tarbiya o’z an`analariga egadir. Axloq haqidagi ibratli, dastlabki fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarining asarlarida va boshqa

yozma yodgorliklarda bizgacha etib kelgan. Nutq shaxsiy hodisa, Nutqni har bir shaxs o'zi tuzadi. Normativlarni tanlash, baholash ham shaxs tomonidan bajariladi.

Insonning muomalasiga qarab, axloqiga ham baxo beriladi. So‘z orqali insonlarning tafakkuri, fikri anglashiladi, muomala madaniyati orqali u kishining odobi, kelib chiqishi, naslu - nasabi, ota - onasi va ustozining bergen ta’lim tarbiyasi namoyon bo‘ladi. Til -inson tafakkurining maxsuli. U inson madaniyati, fikriy go‘zalligini, yaxshi, ibratli, havas qilsa arziyidigan fazilatlarni yuzaga chiqaruvchi vositadir. Uning insonga ta’siri ham shunga yarasha. Xar bir so‘zni o‘z vaqtida so‘zlash, so‘zlashdan oldin puxta o‘ylab ko‘rish kerak. Shuning uchun ham o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarimiz tilga, so‘zga hurmat bilan yondoshishni ta’kidlaganlar.

Husayn Voiz Koshify so‘z qadri, kamgaplik to‘g‘risida ibratli fikrlarni bayon etgan: «Har zabon tig‘i haq g‘uzorlikda noqildur ango tez-tez tig‘ zaboni birla sazo bermak kerak» yoki «Haq vaqtiki so‘zlar aytursizlar yaxshi so‘zdin bo‘lakni aytmangizlar va ko‘p so‘zlamak ko‘ngilni qaro qilur, xor aylar» yoki «Mumkin ersa, yaxshi so‘z qil oshkor, yaxshi so‘zdin ho‘b yo‘qtur yodgor», «Nasihatni shirin so‘zu muloyimlik birla ibtido qilgay, chunki bu zamonda yumshoqlik va xushho‘ylik ko‘rguzmayin nasihat korga kelmas», -deydi va inson har doim yaxshi so‘zni so‘zlashi lozimligini uqtiradi. Koshify bunday kishilarni hech bir so‘zida qadr-qimmati yo‘q, og‘zidan nima chiqayotganini bilmaydigan kishilardir, deb baxolaydi.

Husayn Voiz Koshify ham chiroyli so‘z xaqida shunday deydi – “Agar bu so‘zlarning ma’nosи nimadir, deb so‘rasalar, degilki, odam o‘zidan ustun kishiga yetganda, odob saqlab sukut qilsin va undan o‘rgansin. O‘zidan tubanroqqa yetganda, haq so‘zlarni aytib, uning ko‘nglini ilitsin va haqqa hidoyat etsin, hulqu karam bilan foyda yetkazsin. O‘ziga barobar odamga yetganda esa, shafqat va marhamat yo‘lini tutsin.”¹

Ular e’tiborsiz, so‘z so‘zlovchilardir. Bu kishilar jununga, Sherga ittifoqchi sanaladi.

¹ Husayn Voiz Koshify. Axloqi Muxsiniy. T. Mexnat. 1991. B.51

Ko‘p gapirmaslik, so‘zni mensimaslik, qolaversa, faqat yaxshi gapni aytib yodgorlik qoldirish kerakligini ko‘p bor ta’kidlaydi.

Oldiga kelganin yomok xayvonning ishi,

Og‘ziga kelganni demak nodonilig ishi

A.Navoiy

Islomiy manbalarda ham iymon qalbdadir deb bejizga ta’kidlanmagan. Biroq, uni so‘z bilan ifoda qilmasa, foydasi yo‘q. Namoz ham amaldir, u ham muqaddas so‘zlardan tashkil topgan. Inson «so‘zning ahamiyati yo‘q» deyishi bilan o‘z-o‘zingni inkor etadi. Chunki shu fikrni ham so‘z bilan ifoda qilayotganligini bilmay qoladi. Islom dini insonlarni shirinso‘z bo‘lishga chaqirishi bejiz emas. Zero, Qur’onda «Bandalarimga aytgin, ular eng go‘zal bo‘lgan narsani aytsinlar. Albatta, shayton oralarini buzib turadi» (Isro surasi, 53 oyat) . Alloh mana shu oyatda musulmonlarni o‘zaro suhbatlarida, gap-so‘zlarida shirinso‘z bo‘lishga buyuradi. Agar ular buyruqqa itoat etmay, yomon so‘zlarni ixtiyor qilsalar, albatta shayton oralarini buzadi va natijada yomonlik va dushmanlik sodir bo‘ladi. Qur’onning Baqara surasi, 83-oyatida esa Alloh aytadiki, “Va odamlarga yaxshi gaplar ayting”.¹

So‘z inson tanasiga turlicha ta’sir etadi. Inson xar doim navqiron, bardam bo‘lishi uchun boshqa insonlarni ranjitmasliklari, dilini vayron qilmasliklari hamda o‘zlari ham xushtabiat bo‘lishlari lozim.

Uquv va bilimning tarjimoni ham tildir. Kishiga rushnolik, yaxshilik va ezgulik til tufayli keladi. Agar tilga e’tibor bermasa, uni noo‘rin ko‘llansa, insonning boshiga kulfatlar keltiradi.

Til arslon misoli yotar qafasda,

Bexabar boshini u er nafasda

Tilidan tutilgan ne deyar, eshit,

Amal qil bu so‘zga, o‘zingga esh et.

Bolo keltiradi boshga bu til

So‘zingni ttiyib yur, boshing yorilmasi

¹ Qur’oni Karim. T.: Cho‘lpon nashriyoti. 1992. B.168.

Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin.

Yusuf Hos Xojib

Shirinso‘zlik ko‘pgina muvoffaqiyatlarning omilidir, u taraqqiy etgan jamiyat tashkil etishning asoslaridan biridir. Shuning uchun ham bu narsaga barcha buyuk donishmandlar katta ahamiyat berib kelganlar. Ular doimo boshqalarga yaxshi so‘zlarni aytish, muloyim gaplarni tanlashga undaganlar. Yaxshi, muloyim gapni ishlatish insonning obro‘sini orttiradi, do‘sstlarini ko‘paytiradi, hammaning hurmatiga sazovor qiladi.

Donolar ayтиbdurlar: "Ey farzand. So ‘z turt nav bo ‘ladi: birinchisi- bilishga aytishga hojati yo ‘q so ‘zlar; ikkinchisi - bilishga va aytishga zarur bo ‘lgan so ‘zlar; uchinchisi - bilishga zaruri yuq ammo aytsa bo ‘ladigan so ‘zlar; to ‘rtinchisi - bilsa bo ‘ladigan, ammo aytishga hojati yo ‘q so ‘zlar.

Ammo aytildigan va bilinadigan so ‘z shunday bo ‘ladiki, dunyoning yaxshiliги shu so ‘zga bog‘liq bo ‘ladi. Bunday so ‘z dunyo uchun foydalidir. Bunday so ‘zni aytuvchiga ham, eshituvchiga ham ko ‘p manfaati bor.

Bilish mumkim – u, gapirish mumkin bo ‘lmaydigan so ‘zlar shunday bo ‘ladiki, bir dust kishining aybi senga ma ’lum bo ‘ladi. Aql tomonidan o ‘ylagan vaqtida uni aytish bexayodikdir. Shu aybni aytsang, do ‘stingni jaxli chiqadi, u sendan xafa bo ‘ladi yoki o ‘z boshiga katta g‘avg‘o ortirib alasan, shuning uchun bu so ‘zni bilish kerak, ammo aytmaslik lozim....

Ey farzand, hamma vaqt to ‘g‘ri so ‘z gapir. shoshilishdan qochgil. xar bir so ‘zga qulog sol, tezlik qilma. O ‘ylasmasdan so ‘zlama xar bir so ‘zni o ‘ylab gapir, to aytgan so ‘zingdan po ‘shaymon bo ‘l magaysan. Sovuq, so ‘z so ‘zlama. Sovuq so ‘z bir ypyg‘, undan dushmanlik hosil bo ‘ladi¹

Alisher Navoiy ham so‘zning xashamadorligidan ko‘ra, haqqoniyligini ulug‘laydi. Shirin so‘zli, el uchun foydasi tegadigan notiqlarga yon bosadi. Ularning xizmatini masjid imomlarining qilayotgan ishlaridan yuqori ko‘yadi. Shu tufayli ular uchun imomlarga nisbatan ancha ko‘p mablag‘ ajratishni tavsiya etadi: "Voizga yillik naqdi besh yuz oltun, bug‘doy un yuq. Imomg‘a masjidi jome‘da xatib bo ‘lib,

¹ Kaykovus. Qobusnoma. T.:Istiqlol 994. B 39-41

*maktabdag'i tutgay, yillik nafi ikki yuz oltun, bug'doy un yuq."*¹

Demak, shirin so'zli bo'lish tarbiyalanganlik belgisidir. Kuch bilan erisha olmagan narsaga so'z bilan erishish mumkin.

«Muomala» so'zi zamirida butun insoniyat taqdiri mujassam» ekanligini e'tirof etgan adabiyotshunos olim N.Bekmirzaev muomala va shirinso'zlikning inson hayotidagi o'rni, ahamiyati, qimmatiga doir ma'lumotlarni keltiradi. Ayniqsa sansirab murojaat qilish odobsizlik ekanligi, do'q-po'pisa betayinlik va beburdlik nishonasi ekani haqida ta'kidlab, «Har bir odam o'zining shaklu-shamoyil go'zalligiga vaqt va pul sarflash hisobiga erishadi. Agar odamlardagi shakl go'zhalligiga ma'naviy -axloqiy go'zallik, muomala madaniyati ham qo'shilsa bormi, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Bundaylarni komillikka intilish yo'lidan borib, odamlarga shirin so'zleri bilan ruhiy madad beradiganlar safiga kiritish lozim»² - deydi.

Darhaqiqat, chiroyli muomalaning qudrati inson bilimi bilan ham belgilanadi. Zero, oqilonalik so'z, nutq bevosita tafakkur mahsuli, tafakkur esa bilimsiz vujudga kelmaydi. Shu bois, bilimsizlik o'zaro muloqotda, insonlararo munosabatda pand berib qo'yishi, aksincha, oqil kishining tili so'zda erkli, mushohadali bo'lib, ko'plarga naf keltirganligi haqida pandnomalarda bitilgan.

Bugungi kunda insonlararo muloqotda, odamlar orasida andishasiz so'zlar, behayo gaplar, tuturuqsiz fikrlar, mantiqsiz mulohazalar va shallaqilik ko'payib borayotganligi achinarli xoldir. Ayniqsa, bozorlarda, jamoat transportlarida, ko'chakuyda bunday illatlar tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Eng achinarlisi shundaki, yomon so'zlar bilan murojaat qilish, so'kinib gapirish ziyo maskanlari hisoblanmish ta'lim muassasalarida, madaniyat o'chog'i bo'lmish san'at saroylariga ham kirib borayotganligini kishini ajablantiradi. Ayrim qizlarimiz va o'g'il bolalarimizning bir-biriga aytayotgan gapini, muomalasini ko'rib xijolatli xolatga tushasan. Xattoki global tarmoqlarda ham yozma nutqlardagi savodsizlikdan tashqari behayo, xaqraratli so'zlarni bemalol ishlatayotgan insonlar ko'payib borayotganligi achinarli

¹ Alisher Navoiy. Asarlar. T13. B.178

² Bekmirzaev N. Notiqlik san'ati asoslari. T. Universitet. 2005. B.14

xol xisoblanadi.

Bejizga «Inson gapiruvchi hayvondir». Uning xususiyati hayvonlikdan va gapirishdan iborat»-deb ta’kidlagan edi mavlono Jaloliddin Rumi. Hayvonlik unda doimiydir, ayrilmasdir. So‘z ham shundoq. Inson ko‘rinishidan hech narsa demasa ham, ichida hamisha gapiradi. Bu xol go‘yo loy qorishgan suv toshqiniga o‘xshaydi. Toshqinning toza suvi insonning so‘zi (nutqi) balchig‘i esa hayvonligidir. Biroq, balchiq unda o‘tkinchi bo‘lib, vaqt kelib ulardan asar ham qolmaydi. Yaxshi yoki yomon bo‘lishiga qaramay, so‘zlar, hikoyalar va bilimlar qoladi. Odamlarning yomonliklariga sabr qilmoq go‘yo o‘z nopoligini ularga surtib tozalangan kabitidir. Sening fe’li huying tahammul bilan yaxshilanadi. Ularniki esa zulm va yomon muomala sababli buziladi. Buni eslab olding va endi o‘zingni pokla»-deydilar¹

Darhaqqat, so‘z inson qalbini ilitadi va shu bilan birga so‘z inson qalbini jarohatlaydi ham. Shu bois xalqimizda «Tig‘ yarasi ketar, so‘z yarasi ketmas», degan maqol bekorga aytilgan emas. Chunki so‘zning qudrati benihoya katta. Husn jamoli yo‘q odam shirin so‘z bo‘lsa, go‘zal va shirin so‘zi bilan barchani qo‘lga oladi aksincha tili yomon odam xalq ko‘nglini jarohatlaydi.

Notiq shaxsiga qo‘yiladigan talablar. Notiq birinchi navbatda o‘zini shaxs sifatida shakillantirishga xarakat qilishi kerak. Insoniy fazilatlar unda mujassam bo‘lishi lozim. Notiq kamtar, shirin so‘z, odamjonli, sermulohazali, bamani va diyonatli inson bo‘lishi kerak. Bunday axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan insonlarni fikrlarini to‘g‘riligiga hech kim shubha kilmaydi.

Shirinsuxan, axloqli insonlarni alohida, maxsus joylarda etishtirilmaydi. Ular ham bizning jamiyatimizda kamol topib boradilar.

Notiqlik san’atidaadolat va haqiqat masalalari haqida juda ko‘p fikrlarni berish mumkin. Bugungi kunda TV, radio, internet orqali xar - hil ma’lumotlar berib kelinmoqda. Lekin bu ma’lumotlarni barchasini ham to‘g‘ri deb bulmaydi. Ya’ni siyosiy informatsion kurash ketmoqda. Bu ma’lumotlarni tug‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi o‘z ishining yetuk mutaxasnlari o‘z nutqlari bilan joylarda, yoki o‘sma TV,

¹ Mavlono Jaloliddin Rumi. Ichingdagi ichingdadir. T.Yozuvchi. 1997. B.67

radio orqali jamoaga etkazishlari lozimdir.

Donolar chiroyli so‘z va nutq haqida:

So‘zni chertib so‘zlasang, har kim siylar. **Abay.**

Har tilni biluv bani odama jondir, Til vositai robitai olamiyondir. **Avaz O‘tar.**

Yaxshi so‘zga uchar qushlar el bo‘lur,

Yomon so‘zga pashsha kuchi fil bo‘lur. **Andalib.**

Aqli kalta kishining odatda tili juda uzun bo‘ladi. **Aristofan.**

Aniq-ravshanlik — nutqning bosh fazilatidir. **Aristotel.**

So‘zni ishonch bilan gapir, eshituvchilarga ta’sir etish o‘z-o‘zidan kelib qoladi.

I. V. Gyote.

...Kishi nimaniki his etsa va tushunsa, albatta uni ifodalab beradi. O‘zlar yaxshi tushunmaydigan narsa to‘g‘risida gapiradigan kishilardagina so‘z kamlik qilib qoladi. Kishi tafakkurga ega bo‘lsa, aniq-ravshan ayta oladi, tafakkurga egalik qilgan vaqtida yanada ravshanroq ifodalab bera oladi. **V. G. Belinskiy.**

Yaxshi yozish –bu shu bilan bir vaqtida yaxshi fikrlash hamdir, yaxshi histuyg‘u va yaxshi bayon qilish – bu aql-idrok, qalb va didga ega bo‘lishdir. **J. Byuffon.**

Gapirish zarurlig‘i, hech narsa aytolmaslik natijasida mushkul ahvolga tushib qolish va donolik ko‘rsatish istagi – hatto eng ulug‘ kishini ham kulgili holga tushirib qo‘yadigan uch narsa mana shudir. **F. Volter.**

Durga to‘lar so‘zla mano dengizi, So‘zdir inson taqqan zirak-yulduzi. Eski charxning sadaf, billuri aro, So‘zdir unga loyiq gavhar bebah. Abdurahmon Jomiy. Doimo bilgan narsangni aytib yurma, ammo nima demoqchi bo‘lganiningni hamisha bilib yur. **Klavdiy.**

Yo‘sinsiz ravishda xotiriga kelgan har bir so‘zdan jumlalar to‘qimoq fazilat sanalmaydir, – so‘z – qolip, fikr uning ichiga quyilgan g‘isht bo‘lsin, ko‘pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo‘lib yotsin... **A. Qodiriy.**

Ko‘p gapiruvchi kishi ko‘p muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. **Lao-Szi.**

Katta aqlning farqiy belgisi – oz so‘z bilan ko‘p narsani aytishdir, kaltafahm, aksincha, ko‘p gapirish va hech narsa aytolmaslik qobiliyatiga ega. **F. Laroshfuko.**

Ma'rakada ma'nosi yo'q bad gapdan –
 Bir shivillab esadigan yel yaxshi.
 So'zlaganda so'z ma'nosin bilmagan,
 Insonlardan so'zlayolmas lolu yaxshi. **Maxtumquli.**

Agar so'zlasang betinim zo'r berib,
 Qolursan birov so'zidan benasib.
 Durust-nodurust so'zga sabr aylagan,
 Erur yaxshi hozirjavob laqmadan.
 Mag'zini avval chaqib, so'ngra gapir,
 Ey azizim, yo'qsa tut og'zingda sir!
 Rost aytib bandga tushmoq yaxshidir,
 Ushbu yolg'ondanki banddan qutqazur. **Sa'diy Sheraziy.**

Tilingni so'zlashga soz, muhayyo qil, So'zingni o'q qilu aqlni yo qil. **A. Firdavsiy**¹.

Tayanch iboralar:

Adolat va haqiqat, Insoniy fazilatlar, shirin muomala, san'at, ovoz, ohang, shirin so'z, ishonch, qalb, so'z, yuz va ko'z, tilning ko'rki, muomala, madaniyat, aql, kuch, til, muomala odobi, qadr-qimmat, izzat, axloqiy me'yor, xushfe'lllik, xushmuomalalik, hayo-ibolilik, beozorlik, shirinso'zlik, ochiqko'ngillik,

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Chiroyli so'zlashning axloqiy funksiyalari deganda nimani tushunasiz?
2. Notiqlik san'atidaadolat va xaqiqat masalalari haqida fikringiz.
3. Xar bir shaxsning o'z fikrini bildirish huquqi deganda nimani tushunasiz?
4. Notiq shaxsiga kuyiladigan talablar haqida nimalar deya olasiz?
5. Nutq odobi.
6. Nutqda xalqparvarlik deganda nimani tushunasiz?

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar va axborot manbalari.

¹ Aql aqldan quvvat oladi (hikmatli so'zlar, aforizmlar va maqollar) «o'zbekiston» nashriyoti toshkent 1967 to'plovchi va tuzuvchi Mirbarot Fozilov

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birligida barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev SH.M. – Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., O‘zbekiston. 2017.
3. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odobaxloq namunasi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” (*O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 9-son, 94-modda*)lex.uz
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. -T., Ma’naviyat. 2008.

Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:

1. L.A.Muhammadjonova, D.O.Ortiqova, F.A.Abidjanova, G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018y.
2. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.
3. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
4. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
5. L.Muhammadjonova,F.Abidanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018.
6. Bekmirzasv N. Ritorika asoslari. -T.: Yangi nashr, 2008.
7. Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat, 2005.
8. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati.T.: Ta’lim nashriyoti, 2009.
9. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev YO. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.: O‘qituvchi, 1992.
- 10.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T. “O‘qituvchi”. 1993.
- 11.Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

- 12.Pulatova D.A., Jalolova O‘.K., Ro‘zmatova G.M. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma – T.: Premier print, 2011.
- 13.Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtieod-molil, 2009.
- 14.Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma – T.: Universitet, 2014.
- 15.Muhammadjonova L.A. Abidjanova F.A. Etiket. o‘quv qo‘llanma. –T., Universitet. 2012.

Qo‘srimcha adabiyotlar:

1. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. - T “O‘zbekiston”. 1981.
2. Apresyan G.R. Oratorskoe iskusstvo.- M 1978
3. Husain Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. T.: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2010.
4. Aristotel Ritorika. - M 1998
5. Abdiev M. Til boyligi el boyligi. “Muloqot” № 5 2001 B31-32
6. Aserenseva S. Oratori Gretsii. – M. «Xud. lit» 1985.
7. Golub I.B. Kniga o xoroshey rechi - M 1997.
8. Ivanova S.F. Uchitsa ubejdat. Beseda ob oratorskom iskusstve – M.1989.
9. Qur’oni Karim - T. “Cho‘lpon” 1992
- 10.Bobomurod A. - Islom odobi va madaniyati. - T.”Cho‘lpon” 1995
- 11.Bezmenova N.A. Ocherki po teorii i istorii ritoriki.- M. Nauka 1991
- 12.Mixnevich A.E. O krasnorechi v shutku i vseryoz. – M. Znanie. 1989
- 13.Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - T “O‘qituvchi”. 1995.
- 14.O‘zbekiston Milliy Endiklopediyasi. T. 6. 2003

8-Mavzu. Taqdimot marosimining ritorik qoidalari va notiqning imiji

Reja

- 1.Taqdimot va uning qoidalari.
- 2.Taqdimot marosimi – hamkorlikni yo‘lga qo‘yuvchi vosita sifatida.
- 3.Taqdimot turlari.

- 4.Taqdimotchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar.
- 5.Taqdimot o‘tkazish qoidalari.
- 6.Notiq imiji.

Bugungi kunga kelib tafakkur madaniyatining sifati, zamonaviyligi, qamrovining kengligi, ta’bir joiz bo‘lsa jahon andozalariga mos kelishi haqida ko‘plab fikrlar bildirilmoqda. Tafakkur – insonning noyob xususiyati, miyaning maxsuli, obektiv olamning tushunchalar, muhokamalar, nazariyalar va hokazolardagi in’ikosining faol jarayoni bo‘lib, amaliy faoliyatga bog‘liq bo‘lgan inson faoliyatining alohida ma’naviy shaklidir. Shu bois tafakkur madaniyati insonni jamiyatda mavjud bo‘lgan, ajdodlar va avlodlar tomonidan yaratilgan qadriyatlarni o‘zlashtirish darajasini, insonning ongi bilan faoliyati orasidagi o‘zaro aloqadorlikning mustahkamligini, ma’naviy intellektual faoliyatining o‘ziga xos shakli, ko‘rinishini ifodalaydi.

Tafakkur madaniyati inson ijtimoiy qiyofasining muhim ta’rifi bo‘lib, uning sivilizatsiyalashgan xolati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini o‘zlashtirish darajasini ifodalaydi, insonning ongliligi, bilimdonligi, madaniyatligidan dalolat beradi. Har bir shaxsning tafakkur madaniyati ijtimoiy muhit, uning sharoitlari, mehnati va turmush tarzi, boshqalar bilan munosabatda bo‘lishi zaminida shakllanadi, mustahkamlanadi.

Taqdimot marosimi etiketi ushbu masalalarni qo‘llay bilish, ulardan foydalanish va tafakkurga asoslanib o‘tkaziladigan ta’lim yoki ma’lumot berishning zamonaviy ko‘rinishidir.

Taqdimot – bu o‘zlashtirish, ma’lumotlarni ko‘pchilik oldida ochiq taqdim etishdir. Taqdimot *turlari*: *hisobot*, *ma’lumotnoma*, *press-relliz*, *dayjest*, *axborot*, *reklama* shaklida bo‘lishi mumkin. Ochiq taqdimot deganda odatda, loyiham, mahsulotlar, dasturlarning ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etilishi va taqdim etilayotgan narsaning u yoki bu ko‘rinishda foydalilik mezonlarini ko‘rsatib berish tushuniladi. Aslida taqdimot bugungi kunda tijorat va siyosatda, ma’rifat va madaniyatda, ta’lim va tarbiyada keng qo‘llanilayotgan marosimlardan biridir.

Taqdimot yo‘nalishlariga qarab tijoriy (kommersiya), boshqaruv, reklamali, ilmiy, siyosiy, pablik rileyshnz kabi turlarga bo‘linadi. Shunga kura taqdimot o‘z oldiga tinglovchilar muomalasi va muloqotiga ta’sir ko‘rsatishni asosiy maqsad qilib oladi.

Tijoriy taqdimot. Savdo hodimlari o‘zlarining tijoratga doir takliflari va ko‘rgazmalarini seminar yoki muloqot jarayonlari orqali taqdim qiladilar. Masalan, tibbiyot mahsulotlari bilan savdo qiluvchilar esa yangifarmuskunalar va farmmahsulotlarni taqdimot qiladilar.

Boshqaruvchi taqdimoti. Bunda rahbar o‘z hodimlariga korxonaning kelajakdagi vazifalari va global muammolarini miting, majlisni va yig‘ilish ko‘rinishida taqdim etadi. O‘rta tabaqa xisoblangan menedjerlar o‘zlarining g‘oyalari, loyihalari va erishgan natijalarini yuqori tabaqa hisoblangan rahbariyatga taqdim qiladilar.

Pablik rileyshnz va reklama taqdimoti. Mazkur soha mutaxassislari kompaniyalarning axborot almashish strategiyasi va yangi tarmoqlarning istiqbollariga doir masalalarni ilgari suradilar. Jamoat arboblari madaniy va ijtimoiy dasturlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga doir olib boriladigan ishlarni taqdimot qiladilar.

Ilmiy taqdimot. Bunda olimlar o‘zlarining ilmiy g‘oyalarni, tadqiot o‘tkazishga oid ilmiy zahiralar manbaini taqdimot qiladilar.

Ijtimoiy-siyosiy taqdimot. Bunday taqdimot marosimi ko‘proq siyosatchilar hamda ijtimoiy soha mutaxassislari tomonidan amalga oshiriladi. Bunday taqdimot davra suhbati, debat, breyn ring, yuzma-yuz muloqot hamda matbuot konferensiysi ko‘rinishida o‘tkazilishi mumkin. Masalan, deputatlar o‘zlarining saylovoldi dasturlarini saylovchilarga taqdim etadilar, davlat arboblari esa taqdimot orqali o‘z konsepsiyanini bayon qiladilar. Tashabbuskorlik, tadbirkorlik va liderlikning elementlari mavjud bo‘lgan barcha sohalarda taqdimot eng samarali vosita vazifasini bajaradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda, taqdimot marosimi - shaxs va jamoat fikrini, g‘oyasini, qarashlari va konsepsiyanini omma oldida ko‘rsatish, isbotlash va ishontirishga asoslangan axborot almashuvning vositasidir.

Taqdimot marosimi paytida taqdim qiluvchi o‘zi ilgari surayotgan g‘oyalardan tinglovchilar xulosa qilish son bo‘lishi uchun muayyan imkoniyatlarni tashkil qilishi lozimki, toki ilgari surayotgan g‘oyalaringizni tinglovchilar amalda tadbiq eta olishlari, o‘z faoliyatlariga qo‘llay bilishlari tezlashsin. Shuning uchun

ham taqdimot marosimining axborot uzatishning boshqa vositalaridan farq qiluvchi jihatlari talaygina. Shulardan eng muhimi bilim va ma'lumotlarni uzatish usullaridir.

Avvalo, ma'lumot namadan iborat bo'lishi lozimligini aniqlab olish lozim. Bir qarashda bu jarayon juda oddiy ishdek ko'rindi, aslida esa ma'lumotni tushunish, uni o'zlashtirish bir qadar murakkab jarayondir. Zero, hech qachon bilmagan, hayotda to'qnash kelmagan narsalarni odamlarga tushuntirish muayan mahorat, bilim va aniqlikni talab etadi. Shuning uchun ma'lumtlarni yetkazishda ayrim to'siqlarga duch kelishimiz shubhasiz.

1-to'siq. Ma'lumotda xatoga yo'l qo'yishi. Oddiygina bo'lib ko'ringan xato ham aytayotgan fikringizning mazmunini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Olaylik, mehnat bozori shakllanishining O'zbekistonga xos xususiyatlariga doir ma'lumotni taqdim qilmoqdasiz. Ma'lumki, Andijon viloyati aholisining zichligi bo'yicha vodiydigina emas, respublikada ham birinchi o'rinda turadi. Biroq, 1 kv. km ga nechta odam to'g'ri kelishi haqida xato yo'l qo'yish, ularning raqamini xato ko'rsatish taqdim etayotgan ma'lumotingizning mazmun-mohiyatini o'zgartiradi. Natijada, fikringiz tinglovchilarda shubha uyg'otishi mumkin. Bunday xolatlar tarixiy sanalar, raqamlar, terminlar bilan bog'liq ma'lumotlarda ko'proq uchraydi.

2-to'siq. Ma'lumotingiz ikki ma'noni aks ettirishi mumkin. Ayrim so'zlar ikki xil ma'noni anglatishini bilamiz. So'zlardan o'rinli foydalanmaslik natijasida taqdim etilayotgan ma'lumotda jiddiy o'zgarish yuzaga kelishi, ilgari surayotgan g'oyangiz samarasiz yakunlashishi mumkin. Bunday so'zlar, odatda gazeta, jurnal sarlavhalarida va su'ratga berilgan izohlarda uchrab turadi.

3-to'siq. Ma'lumotingizdagagi tayanch so'zlar noto'g'ri talqin etilishi mumkin. Ma'lumki, o'quvchi kitob o'qiyotib biror-bir ma'lumotga shubha bildirsa, avvalgi betlarni ochib ularni taqqoslash va fikrini to'g'ri yo'naltirish imkoniyatiga ega. O'quvchidan farqli o'laroq, tinglovchida bunday imkoniyat yo'q: "Aytilgan so'z – otilegan o'q". Berilgan ma'lumotni tezlik bilan taxlil qiluvchi, taqqoslovchi tinglovchilar kamchilikni tashkil etadi. Shunday ekan, ma'lumot yetkazilayotganda so'zning mazmuniga, vaziyatning mohiyatiga, jarayonni talqin etishga jiddiy e'tibor

qaratish talab etiladi. Zero, noto‘g‘ri talqin qilish natijasida qilingan qatiy hukm kelajakda insonning taqdirini salbiy tomonga o‘zgartirib yuborishi mumkin.

4-to‘siq. Ma’lumotingizdagi muhim xolatlar noto‘g‘ri tushunilishi mumkin. Shunday xolatlar bo‘ladiki, ma’lumotning ko‘pligidan tinglovchi ularni bir-biri bilan chalkashtirib yuboradi. Chunki, tinlovchiga ma’ruzachi to‘xtash, ma’lumotlarni taxlil qilish imkoniyatini bermaydi. Shuning uchun taqdim qilinayotgan ma’lumot tushunarli bo‘lishi uchun goxida mavzu doirasiga mos qiziqarli voqealar, latifalar, kayfiyatni ko‘taruvchi hodisalarni aytish, mavzudan chetlashib ketmagan xolda tinglovchilarni biroz chalg‘itish tavsiya etiladi.

5-to‘siq. Ma’lumotingizga tegishli muhim jihatlar esdan chiqib ketishi mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, axborotni odamlarning - 83% ko‘rish orqali, 11% eshitish orqali, 35% xidlash orqali, 15% paypaslash orqali, 1% tatib ko‘rish orqali yaxshi qabul qiladi. Shuningdek, agar tinglovchiga ma’lumotlar yozib olish yoki ko‘z bilan ko‘rish imkoniyatlarisiz faqat og‘zaki taqdim qilinsa, uch kundan so‘ng tinglovchining esida taqdim etilgan ma’lumotning 10 foizigina saqlanib qolishi mumkin ekan. Bunga ma’lumotlardagi muhim jihatlarning o‘rinli joylashtirilmasligi, yo‘nalishni to‘g‘ri belgilanmasligi asosiy sabablardandir. Shu sabab taqdim etilayotgan ma’lumotlarning muhim jihatlarini yozib olish, taqdimotda ko‘rgazmali vositalar – slaydlar, prektorlar, plakatlar, kompyuter grafikasi, shuningdek tarqatma materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

6-to‘siq. Axborotning subekti talqin etilishi. Mazkur to‘siq doim ham ko‘zga tashlanavermaydi, gohida ma’lumotni mensishmay tinglashadi. Yuqoridagi to‘siqlarni bartaraf etganingizda ham mazkur to‘siq o‘zini u yoki bu ko‘rinishda namoyish etadi. Masalan, tinglovchi ko‘zingizga tik qarab turadi, lekin e’tibori boshqa narsada. Yoki so‘zlariningizni miyig‘ida kulib turib tinglayveradi, doimo kallasini inkor ma’nosida qimirlatib turadi va hokazo. Bu toifa tinglovchilar aytilgan fikrni tinglash haqida emas, balki o‘ylangan fikrni aytish paytini poylaydilar. Bunday paytlarda ular taqdimotchiga qaltis savollar, qitmirona luqmalar, keskin e’tirozlar bilan murojaat qiladilar.

Ishbilarmonlik muloqotidan farqli o‘laroq, muloqotning taqdimot shaklida taqdimotchi auditoriya uchun ajratilgan vaqtning aksariyat qismida gapiradi, auditoriyani esa jim tinglay olishiga erishishi lozim. Bu taqdimotchidan yuksak muomala san’ati va etiket madaniyatini talab etadi.

Shu bois taqdimotchi amal qilishi lozim bo‘lgan ayrim xolatlarni e’tiboringizga tavsiya etamiz.

1. *Taqdimot marosimining mas’uliyatini xis etish.* Bunda siz avvalo, taqdimot o‘tkazish sizga nasib etganligini, bunday vazifa sizga bildirilgan yuksak ishonch ekanligini ichdan xis eting. Zero, o‘zining g‘oya va qarashlariga ishontirish iqtidori so‘z, ilm va muomalada “pishib yetilgan” insonlargagina nasib etadi.
2. *Taqdim qiluvchi bilan auditoriya o‘rtasida o‘zaro hamkorlik.* Bunda «Men sizlarsiz, sizlar esa mensiz biror natijaga erisha olmaymiz» tamoyili ustuvor ahamiyatga ega. Chunki auditoriya ma’ruzachi yoki taqdim qiluvchidan o‘zi uchun zarur bo‘ladigan nimanidir kutadi. Anashu narsa yoki g‘oyani taqdimotchi ayta olishi mumkin.
3. *Taqdimot matnini tayyorlash.* Aytmoqchi bo‘lgan fikrlaringizni dastlab qog‘ozga tushirishingiz, so‘ngra matndagi har bir jumla, har bir g‘oyani mukammal o‘zlashtirib olishingiz zarur. Bu borada qisqacha tarqatma material, ko‘rgazmali vositalar tayyorlash hamda turli rasmlar, su’ratlar va chizmalardan foydalanish, mavzuning asosiy g‘oyasini tashkil etadigan jihatlarga alohida urg‘u berish maqsadga muvofiq.
4. *Taqdimotga tayyorgarlik.* Har bir taqdimot yuksak saviyada o‘tishiga, kelajakda samarali hamkorlikni yqlga qo‘yilishini istsangiz katami kichikmi har bir taqdimotga jiddiy tayyorgarlik ko‘ring, fikru-hayolingiz taqdimot marosmini o‘tkazish haqida bo‘lsin. Do‘stingiz yoki yaqin hamkasabangizdan sizni tinglab ko‘rishini iltimos qiling, ma’ruzangizni diktafon yoki magnit lentasiga yozib olib so‘ngra uni bir necha bor eshiting, ortiqcha fikrlar bo‘lsa qisqartiring.

5. Taqdimot marosimi vositalari. Odatda taqdimot marosimlari uchun katta zal yoki kichik auditoriya tanlanadi. Zalda sahna, minbar va shu kabi jihozlarning bo‘lishi tabiiy. Siz iloji boricha minbardan kamroq foydalanishga harkat qiling.

Chunki minbar:

- A) muloqot jarayonida sizni auditoriya bilan ajratib qo‘yadi;
- B) minbardan auditoriyani chalg‘ituvchi va keraksiz ma’lumotlar aytib yuboriladi;
- V) ko‘pchilik nazdida minbar juda baland joy hisoblanadi.

Agar minbardan foydalanish talab etilsa, undan zinhor o‘zingizdan oldin chiqqan ma’ruzachilarini tanqid qilish uchun foydalanmang. Minbarga chiqingda, bir-ikki minutdan so‘ng uni tark eting: tanglovchilar bu xolatga albatta baho beradilar.

Taqdimotchining sahnada harakatlanishi: birinchidan - o‘zining jonli muloqot jarayonida ekanligini eslatib turadi, ikkinchidan - kuchli hayajonlanishning oldini oladi, uchinchidan – tinglovchilarning diqqatini jalb etadi.

1. Taqdimotda vaqt masalasi. Hamma vaziyatda bo‘lgani kabi taqdimotga ham vaqt o‘z hukmini o‘tkazadi: har bir daqiqa hisobli. Dastlabki 90 soniyani tinglovchilarning ko‘ngliga yoqadigan gaplarni aytish bilan boshlang, g‘oyangizni ular bilan o‘rtoqlashayotganligingizdan va muloqot qilayotganligingizdan hursand ekanligingizni bildiring. Aks xolda barcha “mug‘ombirliklaringiz” befoyda.

Taqdimotda auditoriya bo‘ylab harakatlanish, tashqi ko‘rinish, imo-ishora o‘zining samarali natijasini beradi.

2. Taqdimotda hayajonning kuchi. Bu ijobiy xolat, chunki hayajon mas’uliyatni oshiradi. Biroq, hayajonga qarshi kurashish mumkin emas, aksincha uni yo‘naltira bilish lozim.

Hayajonni bosish uchun esa:

- So‘zga chiqish oldidan 2-3 daqiqa tez-tez yuring, bu muskullarning zo‘riqishini oldini oladi;
- So‘zga chiqish oldidan oyog‘ingizni chalishtirib o‘tirmang;
- Qo‘llaringizni pastga tushirib, o‘zingizni erkin tuting;
- Boshning kalla, jag‘, og‘iz qismini qattiq-qattiq harakatlantiring;

- Chuqur nafas olish va sehrli so‘zlarni aytish kabi hayot sinovlaridan o‘tgan vositalarni rad etmang.

3. *Tinglovchilarni qiziqtirish*. Dastlab tinglovchilarning ayrim alohida urg‘u berib, iltifot ko‘rsatishingiz «Sizning ishtirok etishingiz, taqdimotning samarali o‘tishini ta’minlashidan umidvorman», “Siz qatnashsangiz o‘zimni doimo himoyachim bordek xis qilaman” va hokazo kabi munosabat tinglovchilarning sizga nisbatan munosabati va qiziqishini orttiradi. Agar notanish auditoriya bilan muloqot qilishingizga to‘g‘ri kelsa, avvalo auditoriyaning xolati, kontengenti, imkoniyatlarini obdon o‘rganing. Noqulay vaziyatdan chiqish maqsadida tinglovchilarning manfaatlariga mos keluvchi hazil-mutoyiba so‘zlardan foydalaning.

4. *Omma – taqdimotchi uchun oyna vositasi*. Taqdimotingiz qanday chiqqanligini auditoriyada o‘tirgan yoki sizni eshitgan ommagina xolis baxolaydi. Agar taqdimot natijasi qay xolatda ketayotganligini bilishni istsangiz tanaffusni kutib turishning yoki ishtirokchilar bilan suhbatlashishning xojati yo‘q: siz tinglovchilarning ko‘zlariga qarang, vassalom. Agar yuz o‘qish san’atidan habardor bo‘lsangiz, ularning harakatlari, qiyofalaridan taqdimotni qanday o‘tkazganligingizni bilib olasiz.

5. *Taqdimotda savol-javob*. Taqdimotni yakunlar ekanmiz, uning natijasi bilan albatta qiziqib ko‘ramiz. Buni bevosita savol-javob jarayoni orqali bilib olish mumkin. Biroq, savolning bo‘lmasligini tadqiqotni ko‘ngildagidek chiqmaganligiga yo‘yish mumkin. Chunki savolning bo‘lmasligi:

- Taqdimot hech kimga foyda bermaganligini;
 - Taqdimotdagи muammolar bir-biri bilan bog‘lanmaganligi va fikrlar cho‘zilib ketganligini;
 - Siz tinglovchilarning “og‘riq nuqtalari”ga tegib ketganligingizni va ular bu og‘riqni qaytalanmasligini xoxlaganlarini;
 - Sizni tushunmaganlarini;
 - Taqdimotingizning tizginini yo‘qotib qo‘yganligingizni bildiradi.
- Biroq, savollarning hammasi ham kishini quvontira olmaydi. Muallif savol va

javob variantlarni turlarga ajratar ekan, ularning hayotda uchrashi va aksincha mutlaqo uchramasligini tushuntirishga harakat qiladi. Shunga ko‘ra savol berilganda:

- Savollarni yozib oling. Chunki yozishingiz bilan bir paytda javobni o‘ylab olish uchun imkoniyat yaratiladi.

- Agar savolga javob berishga qiyalsangiz, tinglovchilarga bu savolga javob topib, ularga albatta yetkazishga va’da Bering. Buning uchun esa tinglovchilarga yana bir bor o‘zingizni tanishtirib, ish joyingiz manzilini berishni unutmang.

Umuman olganda, taqdimot marosimi etiketiga doir yuqorida qayd etilgan fikr va tavsiyalarga riosa qilish taqdimot marosimining samarali yakunlanishiga olib keladi.

Tashqi ko‘rinish – insonning kim va qanday ekanligi haqida dastlabki ma’lumotni beruvchi, uning turmush tarzi va hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat.

Insonning tashqi go‘zalligi nafaqat o‘ziga, balki boshqalarning faoliyatiga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zero, tashqi ko‘rinish :

Odamning o‘tayotgan kunini sermazmun va xayrli etadi;
Insonning hayotdan bahramand bo‘lish onlarini shirin qiladi va unga zavq bag‘ishlaydi;

Odamni ochiq ko‘ngilli, sertakalluf va oljanob etadi;
Insonning hurmatini oshiradi va uning kelajagini belgilaydi.

Imij. Imijni sotib olib bo‘lmaydi. U yaratiladi. Avvaliga siz imidj ustida ishlasangiz, keyin u siz uchun xizmat qiladi. -deydi Jan Koto

Imidjning vazifalari: Shaxsni yuksaltiruvchi vazifa.

Shaxs atrofida jozibadorlik fazilati shakllanishi tufayli u o‘zining eng yaxshi sifatlarini nomoyon etishda jamoaga ma’qul keladi, o‘zini erkin sezadi. Shaxslararo munosabatlarni qulaylashtirish vazifasi.

Bu vazifaning mohiyati shundan iboratki, kishilarning jozibadorligi ular uchun muloqtlarda yoqimtoylilik va xayrixohlikni vujudga keltirsa bular o‘z

navbatida bag‘rikenglik va odobning ma’naviy me’yorini yaratib beradi. Ruhan davolash vazifasi

Shaxs o‘zining favqulodda o‘zligini anglaganligi tufayli barqaror ko‘tarinki kayfiyatda yuradi va o‘ziga ishonch xosil qiladi.

Isonning eng yaxshi sifatlarini yoritib beradi.

Munosib imij inson uchun u bilan muomalaga kirishadigan kishilarga uning eng yaxshi fazilatlarini ko‘zga ko‘rinadigan qilib namoyish etishga, uni aynan yoqimtoy qiladigan yoki kishini o‘ziga tortadigan jihatlarini ko‘rib olishiga imkon yaratadi.

Kishining shaxsiy salbiy xususiyatlarini pardalash.

Pardoz-andoz, libos bezaklari, bichimi, soch turmagi va hokazolar vositasida insondagi mavjud nuqsonlardan kishilar e’tiborini chalg‘itish mumkin. E’tiborni o‘ziga tortish.

Jozibador imij kishilar e’tiborini beixtiyor o‘ziga tortadi, boshqalarda yaxshi ta’ssurat qoldiradi, shu bois ular jozibador imidjga ega kishining gapirayotgan yoki ko‘rsatayotgan narsalariga ruhan osonroq ishonadilar.

Tayanch iboralar:

Taqdimotga tayyorgarlik, taqdimot marosimi, taqdimot vositalari, tinglovchi, qoidalar, taqdimot matni, taqdimot turlari, ma’lumot uzatish, auditoriya, hamkorlik, savollar, taqdimotdagi muammolar, Tinglovchilarni qiziqtirish, taqdimotda hayajon, taqdimotda vaqt,

Mavzu buyicha savollar:

1. Taqdimot marosimi – hamkorlikni yo‘lga qo‘yuvchi vosita sifatida.
2. Taqdimotchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatlar.
3. Taqdimot o‘tkazish qoidalari.
4. Taqdimot turlarini sharxlang?
5. Taqdimotda ma’lumot uzatish xususiyatlarini aniqlang?
6. Taqdimotchi bilan auditoriya o‘rtasidagi hamkorlik nimalardan iborat?

Asosiy va qo‘srimcha adabiyotlar va axborot manbalari.

Rahbariy adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. – Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz.- T.,O‘zbekiston. 2016.
2. Mirziyoev SH.M. – Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., O‘zbekiston. 2017.
3. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunasi qoidalalarini tasdiqlash to‘g‘risida” (*O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 9-son, 94-modda*)lex.uz
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. -T., Ma’naviyat. 2008.

Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:

1. L.A.Muhammadjonova,D.O.Ortiqova,F.A.Abidjanova,G.K.Masharipova. Professional etika va etiket.Darslik. - T.: "Adabiyot uchqunlari" 2018y.
2. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma - T.: Universitet, 2017.
3. B.Husanov. Boshqaruv etikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2017.
4. M. Kaxxarova, N Agzamova. Etika Uchebnoe posobie. Rizograf imeni Nizami. 2018 god.
5. L.Muhammadjonova,F.Abidjanova Etiket. O‘quv qo‘llanma. T.: Universitet. O‘zMU, 2018.
6. Bekmirzasv N. Ritorika asoslari. -T.: Yangi nashr, 2008.
7. Jumaniyozov Rahimboy. Nutqiy mahorat. -T.: Adolat, 2005.
8. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati.T.: Ta’lim nashriyoti, 2009.
9. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.T.: O‘qituvchi, 1992.
- 10.Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T. “O‘qituvchi”. 1993.
- 11.Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari

milliy jamiyati, 2010.

12. Pulatova D.A., Jalolova O‘.K., Ro‘zmatova G.M. Axloqshunoslik. O‘quv qo‘llanma – T.: Premier print, 2011.
13. Husanov B., Gulamov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtieod-molil, 2009.
14. Muhammadjonova L. Davlat xizmatchisi etikasi va imiji. O‘quv qo‘llanma – T.: Universitet, 2014.
15. Muhammadjonova L.A. Abidanova F.A. Etiket. o‘quv qo‘llanma. –T., Universitet. 2012.

Qo‘sishimcha adabiyotlar:

1. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. - T “O‘zbekiston”. 1981.
2. Apresyan G.R. Oratorskoe iskusstvo.- M 1978
3. Husain Voiz Koshifiy. Axloqi muhsiniy. T.: O‘zbekiston fanlar akademiyasi. Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti nashriyoti, 2010.
4. Aristotel Ritorika. - M 1998
5. Abdiev M. Til boyligi el boyligi. “Muloqot” № 5 2001 B31-32
6. Aserenseva S. Oratori Gretsii. – M. «Xud. lit» 1985.
7. Golub I.B. Kniga o xoroshey rechi - M 1997.
8. Ivanova S.F. Uchitsa ubejdat. Beseda ob oratorskom iskusstve – M.1989.
9. Qur’oni Karim - T. “Cho‘lpon” 1992
10. Bobomurod A. - Islom odobi va madaniyati. - T.”Cho‘lpon” 1995
11. Bezmenova N.A. Ocherki po teorii i istorii ritoriki.- M. Nauka 1991
12. Mixnevich A.E. O krasnorechi v shutku i vseryoz. – M. Znanie. 1989
13. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. - T “O‘qituvchi”. 1995.
14. O‘zbekiston Milliy Endiklopediyasi. T. 6. 2003

MUSTAQIL ISH

1. Qadimgi dunyoda notiqlik san’atining paydo bo‘lishi. Yunoniston.
2. Qadimgi Rimdagi notiqlik san’ati
3. Buyuk mutafakkir notiqlar xususida.

4. Arastuning "Ritorika" kitobida notiqlik xususida.
5. Protagor
6. Demosfen
7. Aristotel
8. Sitseron
9. Bobilon va qadimgi Misrdagi Ritorika
10. Qadimgi Xindiston va Xitoydagi notiqlik san'ati.
11. O'rta asrlar musulmon Sharqida notiqlik san'atining vujudga kelishi
12. O'rta asrlar musulmon sharqi mutafakkirlarining Ritorikaxususidagi ta'limotlari
13. Notiqlik san'atining tasavvufiy mohiyati
14. Imom G'azzoliy
15. Jaloliddin Rumiy
16. Axmad Yassaviy
17. Baxoviddin Nakshbandiy.
18. Boboraxim Mashrab
19. Tasavvufda hilmlik, muloyimlik, shirinso'zlik to'g'risida
20. Ritorikadiniy - xadisiy yo'nalish buyicha (Al Buxoriy, At Termiziy)
21. Qur'oni Karim va Hadisi sharifda muomala, chiroylis o'sz xususida
22. Mashshoiiyun faylasuflarining ta'limotlari: Farobi, Ar Roziy,
23. Ibn Sino, Ibn Rushd
24. Mavorounnaxrda badiiy notiqlik.
25. Abu Nosir Forobi: fikrni qanday bayon etish kerak.
26. Kaykovus: notiq so'zining ma'nolari.
27. Navoiy va so'zga ta'rif
28. Notiqlik san'atining xususiyatlari va turlari.
29. Til va nutq. Til boyligi.
30. Ichki va tashki nutq. Nutqning aniqligi.
31. Ritorika va san'at.
32. Ritorika turlari.
33. Ijtimoiy - siyosiy nutq.

34. Akademik nutq.
35. Huquqiy - nutq,
36. Ijtimoiy - urf odatlarga asoslangan nutq.
37. Diniy nutq.
38. Notiqlik san'atining mazmuni va tuzilishi
39. Notiqlik madaniyati.
40. Notiq shaxsiga qo'yiladigan talablar. Nutq odobi
41. Nutq madaniyatida unuminsoniylik va milliylik
42. Or-nomus, qadr-qimmat, sharm-xayo xaqida badiiy uslubda esse yozing.
43. Siyosatning axloqqa munosabati haqida siyosiy nutq tayyorlang.
44. Muxabbat haqida esse yozing.
45. Ilmoqli so'zlardan tashkil topgan 40 ta gap to'zing.
46. Axloq bilan san'at munosabatlari haqida publistik maqola tayyorlang
47. Ona haqida esse yozing.
48. Farzand burchi. Esse yozing.
49. "Mening universitetim" publistik usulda maqola tayyorlang.
50. TV dagi ko'ngilochar ko'rsatuvdagi nutq.

TEST SAVOLLARI.

1. Nutq nima?

- A*. Tildan foydalanish jarayoni
- V. Gap.
- S. So'zlaryig'indisi.
- D. Muomala.

2. Til nima?

- A.* Nutq uchun moddiy material.
- V. Ikki lab o'rtasidagi bir larcha go'sht
- S. Avtomat.
- D. Boshga balo.

3.Til nima uchun xizmat qiladi?

- A*. Fikr almashuvga.
- V. Dilga ozor berishga.
- S. Qorin to‘ydirishga.
- D. Muomala qilishga.

4.Sof nutq nima?

- A.* Axloq me’yorlari tan olmaydigan so‘zlardan xoli bo‘lgan nutq.
- V. Chiroyli nutq.
- S. Muloyim nutq
- D. estetik go‘zal nutq.

5.Qanday xolatlar nutq sofligiga putur etkazadi?

- A.* Shevada, jargon hamda vulgar so‘zlar ishlatish.
- V. Qo‘shninng gaplari.
- S. Ilmiy fikrlar.
- D. Parazit va kanselyariya so‘zları.

6. Adabiy til necha hil ko‘rinishga ega?

- A.* 2ta
- V. 3ta
- S. 4 ta
- D. 5 ta

7.Og‘zaki nutqning qanday vazifaviy ko‘rinishlari mavjud

- A.* Kundalik so‘zlashuv nutqi
- V. Lektorlar nutqi.
- S. Radio va televideenie nutqi
- D. Saxna nutqi.

8.Notiqlik san’atining nazariy asoslari dastlab qayerda yaratilgan?

- A. *Qadimgi Yunonistonda
- V. Amerikada.
- S. Afrikada.

D. O‘zbekistonda.

9. Sud notiqligining namoyondasi kim?

A.* Demosfen.

V. Sitseron.

S. Protagor.

D. Navoiy

10. "Notiq xaqida "Notiq", "Brut" asarlari kimning qalamiga mansub?

A.* Sitseron.

V. Arastu

S. Demosfen.

D. Protagor.

11. Sillogizm u nima?

A. *Aqliy xulosalar yigindisi.

V. Sheriy fikrlar.

S. Dono so‘zlar

D. Axmoqona fikrlar yig‘indisi.

12. Arastuning ritorikasi necha kitobdan iborat?

A. *3 ta

V. 5 ta

S. 4ta

D. 2ta

13. Arastu notiqlik san’atini egallahshni necha qismga bo‘lib o‘rgatadi?

A. *5 ta

V. 2ta

S. 4 ta

D. Zta

14. Akademik suhbat - diologlarning ustasi kim?

A.* Suqrot.

V. Protogor.

S. Arastu

D. Sitseron.

15. "Birinchidan ifodalash, ikkinchidan ifodalash va uchinchidan yana ifodalash" degan fikr kimga qarashli?

A. * Demosfen

V. Sitseron

S. Suqrot.

D. Protogor.

16. "Hamki jun narsalar xaqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o'rta darajada, ulug' hodisalap haqida esa zavq-shavq bilan gapisra, shu odam so'z san'atining chinakam ustasi bo'ladi" degan fikr kimga tegishli?

A. *Sitseron.

V. Protogor.

S. Suqrot

D. Demosfen.

17. Rim maktabi Ritorikanecha usulga bo'linadi?

A. *2ta

V. 3ta

S. 4 ta

D. 5ta

18. "Futuvvatnomai Suyatoni" yohud javonmardlik tariqati asarining muallifi kim?

A.* Xusayn Voiz Koshifyi.

V. Navoiy.

S. Farobi.

D. Bobur.

19. "Agar so'z senikimi Yoki sen so'znikimi, deb so'rasalar, aytgil: men so'zniki

va so‘z menikidir” degan fikrni kim aytgan?

A*. Xusayi Voiz Koshifiy.

V. Bobur.

S. Farobiy.

D. Navoiy.

20. Til boyligi deganda nimani tushunasiz?

A*. So‘z boyligi ko‘p, sinonim so‘zlar va fraziologizmlar.

V. Shirin nutqni

S. Chiroylı nutqni.

D. estetik go‘zal nutq

21. Monolog nima?

A.* So‘zlovchining o‘ziga Yoki tinglovchiga qaratilgan nutqdir.

V. mantiqsiz nutq.

S. chiroylı nutq.

D. Birovning nutqni

22. Mantiqiy fikrlash usullariga nimalar kiradi?

A.* Solishtirish, analiz, sintez, abstraqlash va umumlashtirish.

V. kelishtirish,to‘g‘irlash,joylashtirish.

S. absrakdillash va xaylot dunyosi

D. teatrlashtirish.

23. Muxokama nima?

A.* biror narsani tasdiqlab Yoki inkor qilib aytilgan fikrni solishtirish.

V. Bir necha insonning suhbatи.

S. Ayollar suhbatи.

D. Futbol haqidagi baxs.

24. Raddiya nima?

A. *Biror tezisning noto‘g‘riliği yoki asossizligini isbotlash.

V. biror narsani tasdiqlab solishtirish.

S. Qizikarli fikr.

D. Inkor qilish.

25. Suhbat nima?

A. *Ma'lum bir mavzu, masala yuzasidan dialog Yoki (polilog) tarzida ikki Yoki bir necha kishi o'rtasida bo'lib o'tgan nutqiy muloqot.

V. Chiroyli muomalalar yig'indisi

S. Inkor qilib aytilgan fikr

D. Bir necha insonning gaplari.

26. Tashvniy nutq nima?

A.* Muallif ko'zda tutgan biron bir voqeа-hodisani bajarishga tinglovchilarni da'vat etuvchi, undovchi nutq.

V. Oldi - qochdi gaplar

S. Maqtov gaplar

D. Mubolag'ali gaplar.

27. Tanqidiy nutq nima?

A.* Hodisalar, shaxslar hatti xarakatlariga e'tirozli munosabatda buluvchi nutq.

V. Ortiqcha gaplar.

S. His - hayajonli gaplar.

D. Jaxl ustida gapiraladigan fikrlar.

28. Nutq madaniyati qanday ko'rinishlarga ega?

A.* Nutqning til madaniyati, nutqning psixologik madaniyati, Nutqning aloqa madaniyati (kommunikatsiyasi)

V. Nutqning estetik madaniyati

S. Nutqning axloqiy madaniyati

D. His - hayajonli gaplar.

29. Lug'at sostavi deganda nimani tushunasiz?

A.* Tilda bo'lgan hamma so'zlarning jami

V. Lug'atdagi ba'zi so'zlar

- S. Hamma so‘zlar yig‘indisi
- D. Kitobdag'i hamma fikrlar.

30. So‘zlashuv uslubiga nimalar hos?

- A.* Oddiylik, soddalik, betakaluflik, xayajonlilik.
- V. Ortikcha gaplar
- S. Mulozamat.
- D. Lirik gaplar

31. Rasmiy uslubga nimalar kiradi?

- A*. E'lonlar, qonunlar, sud va davlat idoralari xujjatlari
- V. Fabrikadagi fikrlar.
- S. Bozorchilarning gaplari
- D. oddiy gaplar.

32. Ilmiy uslubga nimalar kiradi?

- A.* Fanining turli soxalariga aloqador so‘z va atamalardan foydalangan xolda fikr bildirish.
- V. Aqilli kitobdag'i fikrlar.
- S. Lektorinig fikri.
- D. Xokimning nutqi

33. Publitsistik uslubda nimadan foydalaniladi?

- A.* Ta'sirchan so‘z va birikmalardan, maqol va aforizmlardan foydalaniladi.
- V. Kitobdag'i gaplardan
- S. Oddiy, sodda so‘zlardan
- D. Vazirning nutqidan.

34. Badiiy uslubning boshqa uslublardan farqi nimada?

- A.* O‘zining obrazliligi, estetikligi va ta’sir etish vazifasi bilan.
- V.TV dagi gaplardan foydalangan xolda tuzilganligi bilan.
- S. Mulozamatga boy so‘zlari bilan
- D. Talaffuzning go‘zalligi bilan.

35. Nutqning psixologik madaniyati nimalarni qamrab oladi?

- A.* Nutqning mazmundorligi, tushunarligi, ifodaliligi va ta'sirchanligini o'z ichiga oladi
- V. Xissiy - tug‘yoniy xolatlar.
- S. Shevaga hos so‘zlar bilan.
- D. Ilmoqli so‘zlar bilan.

36. "Oldiga kelganin emak xayvonning ishi,**Ogziga kelganin demak nodoning ishi"****kimning qalamiga mansub?**

- A. *Mir Alisher Navoiy.
- V. Xusayi Voiz Koshifiy,
- S. Farobiy.
- D. Bobur.

37. Sarkazm nima?

- A.* Achchiq, zaxarxanda, istexzoli ta’na, piching gaplar.
- V. Shirin so‘zlar.
- S. Ilmoqli so‘zlar bilan.
- D. Shevaga hos so‘zlar.

38. "Nodonlardek so‘zlab so‘zni qilma qator,**Donolardek bir so‘z degil, lek ma’nodor". Kimning kalamiga mansub?**

- A*. Bobur.
- V. Farobiy.
- S. Navoiy
- D. Sa'dim Sheroziy.

39."Qiska so‘zlik, qara, ne yaxshi xoldir,**Sergaplik bo‘lsa -chi, dilga maloldir" kimning kalamiga mansub?**

- A.* Xusras Dexlaviy
- V. Hamid Olimjon.
- S. Navoiy

D. Muqimiy

**40. "Kimki so‘zni qadrlasa xar qachon,
O‘z - o‘zini qadrlagay begumon" kimning kalamiga mansub?**

A.*Mir Alisher Navoiy

V. Jomiy.

S. Xusras Dexlaviy

D.Xamid Olimjon

**41 Bahs, suhbat chog‘ida tomonlarning bir-birini noto‘g‘ri tushunishlariga
asosiy sabab nima?**

A.* Ularning suhbat mavzuini tashkil etgan so‘z va tushunchalarni har-xil tushunishlari.

V.Ularning bilim-saviya darajasining turlichaligi.

S. Tomonlarning dunyoqarashlari o‘rtasidagi farq.

D. Tomonlarning turli soha vakili bo‘lganligi.

42. Hujjatchilikda matn asosan qaysi shaxs tilidan yoziladi?

A.* Birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs tilidan.

V. Uchinchi shaxs tilidan;

S. Ikkinci shaxs tilidan;

D. Birinchi shaxs tilidan;

43.Suhbat samaradorligining asosiy shartlari.

A.* Tilning umumiyligi, suhbat uchun mavzuning mavjudligi;

V.Ikki va undan ortiq suhbatdoshning mavjudligi;

S. Suhbatdoshlarning o‘z fikrida qat’iy turishi va uni har qanday sharoitda yoqlashga harakat qilish.

D. Suxbatdoshni xis tuyg‘ulariga bog‘liq.

44. Notiqlik san’atining zarur shartlari:

A.* Nutqning tozaligi, aniqligi, ifodaliligi, uslubiy sayqaldorligi, badiiy jozibadorligi, yorqinligi.

V. Suhbatdosha hurmat hissi, adabiy til normalariga qat’iy amal qilish;

S. Adabiy til normalariga qat’iy rioxaya qilish, qisqa va lo‘nda so‘zlash.

D. Munosabatlarda axloq normalariga rioxaya qilish.

45. Nutqning uslubiy turlari:

A.*Ilmiy, rasmiy-idoraviy, badiiy, siyosiy, publitsistik.

V. yozma va og‘zaki;

S. rasmiy va norasmiy;

D. Badiiy, dramatik

46. Nutqning aniqligi deganda nimalarni tushunasiz?

A.*So‘zlarni mazmunidan kelib chiqib aniq ishlatish, sintaktik vositalardan to‘g‘ri foydalanish, ravshan talaffuz.

V. Atamalarni to‘g‘ri ishlatish, tinglovchiga noma’lum atamalarni ishlatmaslik;

S. Nutqdagi mantiqiylik qoidalariga rioxaya etish.

D. Nutqdagi falsafiy qonuniyatlargacha rioxaya qilish.

47. Ifodalini nutqning afzalligi nimada?

A.*Ifodalilik nutqning ta’sirchanligini va samaradorligini oshiradi;

V. Uning afzalligi yo‘q va faqat nutq so‘zlovchining o‘ziga xosligini belgilaydi;

S. Badiiy nutq ifodali nutqning yagona namunasi bo‘lib, ko‘proq badiiy asarlarda qo‘llaniladi.

D. Faqat she’r, qasidalar o‘qishda ishlatiladi.

48. Tarjimai xol qaysi uslubda yoziladi?

A.* Rasmiy uslubda.

V. So‘zlashuv uslubida.

S. Ilmiy uslubda.

D. Publitsistik uslubda.

48. Adabiy tilga to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni toping.

A.*Umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma’lum me’yorga solingan Shakli;

V. Badiiy asar tili adabiy til hisoblanadi;

S. Qadimgi turkiy til adabiy til deb ataladi;

D. ilmiy asar tili adabiy tildir.

49. Shevaga xos so‘zlar qaysi uslubga mansub bo‘ladi?

- A.* So‘zlashuv uslubiga;
- V. Badiiy uslubga;
- S. Rasmiy uslubga;
- D. Publitsistik uslubga.

50. Nutqning tozaligi deganda nima tushuniladi?

- A.* Nutqning Sheva, jargon va vulgar so‘zlardan, chet tillardagi so‘zlarni o‘rinsiz qo‘llashdan, parazit so‘zlardan holiligi.
- V. Adabiy til normalaridan chet ga chiqmaslik.
- S Nutqning qisqa va mantiqiy bo‘lishi
- D. Nutqning barcha qoidalarga amal qilinishi.

51. Qaysi qatorda “*baland*” so‘zining antonimi qo‘llangan?

- A.* Bu arning daraxtlari past ekan.
- V. Uning bo‘yi ancha uzun edi.
- S Lazizning qo‘lida katta kitob bor edi.
- D. Alpomish qalin o‘tloq oralab bordi.

52. Qaysi bandda “*kuchli*” so‘ziga sinonim bo‘lgan frazeologik birlik keltirilgan?

- A.* Tog‘ni ursa talqon qiladi;
- V. Oyog‘idan o‘t chaqnaydi
- S Xursandligidan og‘zi qulog‘iga etdi
- D. Ahmoqni ahmoq desang arpa bo‘yi qo‘shiladi

53. Bildirgi (e’lon) qaysi uslubda yoziladi?

- A.* Rasmiy uslubda.
- V. Badiiy uslubda.
- S Publitsistik uslubda.
- D. Ilmiy uslubda.

54. Shevaga xos so‘zlar qaysi uslubga mansub bo‘ladi?

- A.* So‘zlashuv uslubiga

- V. Badiiy uslubga
- S Rasmiy uslubga
- D. Publitsistik uslubga.

**55. «Ziqna» so‘zining ma’no ifodasini beruvchi ibora (frazelogizm)
qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A.* Uyda tursa sasir oshim, birovga bersa esiz oshim.
- V. Tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi.
- S Og‘zi qulog‘ida.
- D. Tepa sochi tikka bo‘ldi.

56.“Hursand” so‘zi ma’nosining ifodasini beradigan iborani toping?

- A. *Og‘zi qulog‘ida.
- V. Chumchuq pir etsa yuragi shir etadi.
- S Biti to‘kildi;
- D. Oyog‘ini qo‘liga olmoq;

**57.O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tiliga qachon davlat tili maqomi
berildi?**

- A.* 1989 yil 21 oktyabr.
- V. 1991 yil 1 sentyabr.
- S. 1989 yil 21 avgust.
- D. 1990 yil 11 noyabr.

**58. “1991 yil 1 sentyabrdan O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilindi” Bu gap
qanday uslubga xos?**

- A.*Rasmiy uslubga;
- V. Shevaga xos.
- S. Badiiy uslub.
- D. So‘zlashuv uslubiga.

**59.Qaysi uslub kitobxonga ma’lumot beribgina qolmay, ta’sir ham
ko‘rsatadi?**

- A.* Badiiy uslub.
- V. Ilmiy uslub.

S So‘zlashuv uslubi.

D. Rasmiy uslub.

60.Imo-ishora qaysi uslubga xos?

A.* So‘zlashuv uslubiga.

V. Badiiy uslubga

S Ilmiy uslubga

D. Publitsistik uslubga

61.“Tishini tishiga qo‘yib yurdi” gapidagi iborani qaysi javobdagi so‘z bilan almashtirish mumkin?

A.* Chidab.

V. G‘azablanib

S Kuzatib

D. Jasorat ko‘rsatib

62.Qaysi gapda “engil” so‘zi ko‘chma ma’noda ishlatilgan?

A.* Es-hushingni yig‘, unaqa engil bo‘lma!

V.Yigirma minut o‘tgandan keyin engil ta’zim bilan Gulandom kirib keldi;

S. Yo‘lchi engil eshikchani ochib kirdi.

D.Davlatbekov radiodan aytilayotgan engil kuydan, xususan, uning so‘zlaridan zavqlanib tebrandi.

63.Qaysi qatordagi frazeologizmlar hayratlanish ma’nosini bildiradi?

A.* YOqasini ushlamoq, og‘zi ochilib qolmoq.

V.* O‘zini qo‘ygani joy topa olmaslik, yuragiga g‘ulg‘ula tushmoq.

S.* Oyoq osti qilmoq, mayna qilmoq.

D.* Ko‘ziga qon to‘lmoq, ko‘zining paxtasi chiqmoq.

64.Ma’lum hududdagina ishlatilib, faqat shu erda yashovchi kishilarga tushunarli bo‘lgan so‘zlar qanday ataladi?

A.* Shevaga xos so‘zlar.

V. Atamalar.

S.Terminlar.

D. Paronimlar.

65. Iboralar nutqning qaysi uslubida ko‘proq qo‘llanadi?

- A*. Badiiy uslubda.
- V. Rasmiy-idoraviy uslubda
- S. So‘zlashuv uslubida.
- D. Ilmiy uslubda.

66. “Po‘stagini qoqmoq” iborasining sinonimini belgilang.

- A.* Ayovsiz tanqid qilmoq
- V. Ozor etkazmoq
- S. Qattiq jazolamoq
- D. Talabchan bo‘lmoq.

67. Rasmiy uslubga xos xususiyatni belgilang.

- A.* Ibora va jumlalar ma’lum qolipda bo‘ladi
- V. Shevaga xos so‘zlar faol qo‘llanadi.
- S. Terminlar qo‘llanadi
- D. Ko‘p ma’noli so‘zlar ishlataladi

68. Quyidagi sinonimlardan rasmiy uslubga tegishli so‘zni belgilang?

- A.* Ozod qilinmoq.
- V. Tushmoq.
- S. Olinmoq.
- D. Ketmoq.

69. Rasmiy uslubda ko‘pincha qanday gaplardan foydalaniladi?

- A*. Asosan darak va buyruq gaplardan.
- V. Asosan buyruq va his-hayajon gaplardan.
- S. Darak, buyruq va his-hayajon gaplardan.
- D. Asosan buyruq gaplardan.

70. Quyidagi matn qaysi uslubga xos? “17-modda. Fuqarolarning huquq layoqati. Barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlarga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) teng ravishda e’tirof etiladi. Fuqaroning huquq layoqati tug‘ilgan paytdan e’tiboran vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi.

- A.* Rasmiy uslubga.
- V. Publitsistik uslubga.
- S. So‘zlashuv uslubiga.
- D. Badiiy uslubga.

71. Qaysi uslub turida tilning tasviriy-ta’siriy vositalari yordami bilan obrazlar vositasida kishiga estetik ta’sir ko‘rsatiladi?

- A.* Badiiy uslubda
- V. Ilmiy uslubda
- S. Publitsistik uslubda
- D. Rasmiy uslubda.

72. Asosan qanday uslubda so‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llanmaydi?

- A*. Rasmiy ish uslubda
- V. So‘zlashuv uslubida
- S Publitsistik uslubda.
- D. Badiiy uslubda

73. Qaysi gapda ko‘plik qo‘sishimchasi ma’noni kuchaytirishga xizmat qilgan?

- A.* Yo‘q, akamdan naq balolarga qolaman.
- V. Tumanli kunlarda muzlar erib, suvlar oqa boshladi.
- S. Ot turkumidagi so‘zlar birlik va ko‘plik sonda qo‘llanadi.
- D. Saodatning qo‘llari chaqqon xarakat qilar edi.

75. Quyidagi gaplarning qaysi birida mantiqiy nomuvofiqlik bor?

- A.* Dasht o‘rtasida bir tog‘ cho‘qqisi ko‘rindi.
- V. Bemorga uch mahal dori berib turdim.
- S. Bir burda non bir-birisiz tomog‘idan o‘tmasdi.
- D. Bir og‘iz gapim bor, shuni aytmoqchi edim.

76. Adabiy tilning faqat yozma Shakli uchun xos bo‘lgan me’yorlar qaysi qatordagi javobda ifodalangan?

- A.* Lug‘aviy va grammatik me’yor

V. Orfografik me'yor

S. Punktuation me'yor

D. Uslubiy me'yor.

77. "Kimap qattiq yo 'taldi" Ushbu gapdagi "qattiq" so'zining antonimi qaysi qatorda berilgan?

A*. Sekin.

V. YUmshoq

S. Baland ovozda.

D. Oxista.

78.Jahonning qaysi davlatida qadimda o'limga xukm qilinganida o'zining so'ngi so'zida notiqlik mahorati bilan jazodan ozod qilinishi mumkin bo'lган?

A*. Yunonistonda.

V. Xitoyda.

S Misrda.

D. Qadimgi Hindistonda.

79.O'rta asrlarda yashagan allomalarimiz orasida kuchli notiq sifatida e'tirof etilgan shaxslarning nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A.* Muin Voiz, Qozi O'shiy

V. Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy

S. Abu Rayxon Beruniy; Ibn Sino

D. Abduraxmon Jomiy va Mavlono Lutfiy.

80.Ruhiyat kuchi va ehtiros odamlarni ...

A.* Notiqqa aylantiradi.

V. Rahbarga aylantiradi.

S SHoirga aylantiradi.

D. Aktyorga aylantiradi.

81."Notiqlik" nutqning qaysi Shakliga to'g'ri keladi?

A.* Og'zaki nutqqa.

V. So'zlar birikmasiga.

S. Muloqot vositasiga.

D. Rasmiy nutqqa.

82. Mumtoz ma'nodagi notiqlik – bu

A.* Alovida shaxslarning nutqiy mahorati va san'atini ifodalaydi.

V. Jamiyat fuqarolarining umumiy madaniyatini ifodalaydi.

S. Akademik tilning mohiyatini ifodalaydi.

D. Jamoaning nutiy mahoratini ifodalaydi.

83. Notiqlik ko'proq nutqning qaysi jihatlariga e'tibor qaratadi?

A.* Nutqning mazmuni, mantiqiy asoslari va mundarijaviy tuzilishiga e'tibor qaratadi.

V. Muomala madaniyatining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratadi.

S. Muloqotni qay yo'sinda olib borish qulayligiga e'tibor qaratadi.

D. Nutq madaniyatini takomillashtirishga e'tibor qaratadi.

84. Nutqning mohiyati nima bilan belgilanadi?

A.* Madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qimmati bilan belgilanadi.

V. Siyosiyligi, foydaliligi va rasmiyligi bilan belgilanadi.

S. Ommaviyligi, hammabopligi va umumiyligi bilan belgilanadi.

D. Nazariyligi, ilmiyligi va amaliy ahamiyati bilan belgilanadi.

85. Voizlik san'atiga Yaqin turuvchi san'at turi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A.* Suhandonlik.

V. Va'zxonlik.

S. Gapga chechanlik.

D. So'zamollik.

86. Amir Unsurulmaoniy Kaykovusning "Qobusnama" asarida notiqlik san'atiga bag'ishlangan maxsus bobning nomi nima deb ataladi?

A.* «Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida».

V. «Suxandonlik bila amal egallamoq zikrida».

S. «Suxandonlik bila ilmli bo'lmoq zikrida».

D. «Suxandonlik bila tanilmoq zikrida».

87. Nutqiy mahorat - bu

A.* Fikrni sodda va chiroyli ifoda eta olishdir.

V. Fikrni sodda bayon etishdir.

S. G‘oyani safarbar qilishdir.

D. Aytmoqchi bo‘lgan gaplarini erkin gapishtirishdir.

88.Ritorikako‘proq qaysi fanlarga asoslanadi?

A.* Mantiq va psixologiyaga.

V. Matematika va siyosatshunoslikka.

S. dinshunoslik va estetikaga.

D. pedagogika va sotsiologiyaga.

89. «Haq vaqtiki so‘zlar aytursizlar yaxshi so‘zdin bo‘lakni aytmangizlar va ko‘p so‘zlamak ko‘ngilni qaro qilur, xor aylar», degan hikmat qaysi alloma tomonidan aytilgan?

A.* Husayn Voiz Koshifiy.

V. Abu Abdulloh Rudakiy.

S. Mavlono Muin.

D. Qozi O‘shey.

90. «Til shirinligi - ko‘ngilga Yoqimlidir, muloyimlik esa foydali. Shirin so‘z so‘ngillar uchun asal kabi totlidir», - deydi....

A.*Mir Alisher Navoiy.

V. Mavlono Jaloliddin Rumiy.

S. Abu Homid al-G‘azzoliy.

D. Amir Unsurulmaonoy Kaykovus.

91. Fazilatlarini «nutqiya» va «xalqiya» kabi ikkita turkumga ajratgan allomaning nomini ko‘rsating?

A.* Abu Nasr al-Forobiy.

V. Imom al-G‘azzoliy.

S. Bahouddin Naqshband.

D. Mirzo Abdulqodir Bedil.

92. «O‘z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go‘zal va lo‘nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisida o‘tirganlarni bugun

tushunish ham, oqlash ham qiyin» - degan hikmatni aytgan davlat rahbarining nomini ko‘rsating?

A.*O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

V. Ozorbayjon Respublikasi Ilhom Aliev.

S.Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboev.

D.Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin

93. Muloqotning asosiy vositalari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A.* Kommunikatsiya, paralingvistik, kinetik.

V. kommunikatsiya, imo-ishoralar, taftologiya.

S. kinetik, lingvistika, fonetika.

D. paralingvistik, grammatika, orfografiya.

94. Verbal muloqot – bu

A.* Tabiiy tovush nutqi.

V. Yasama tovush nutqi.

S. Nutqni notabiiy ko‘rinishi.

D. Nutqdagi so‘z birikmalari.

95. Noverbal muloqot qanday amalga oshiriladi?

A.* Imo-ishora, mimika va hatti-harakatlar vositasida.

V. So‘z, matn va hatti-harakatlar vositasida.

S. Nutq, muloqot va muomala vositasida.

D. Ko‘z qarashlari, ovoz va ohang vositasida.

96.Buyuk alloma Mahmudxo‘ja Behbudiyning maktub yozish odobiga bag‘ishlangan darsligi qanday nomlanadi?

A.* «Kitabal-ul atfol».

V. «Kitabal-ul avval».

S. «Kitabal-ul axloq».

D. «Kitabal-ul ahvol».

97.«Maktubg‘a haqorat, ta’na, hazl, fisq va gunohga taluq so‘zlar aslo yozilmasun» deb uqtirgan jadid-ma’rifatchisining nomini ko‘rsating?

A.* Mahmudxo‘ja Behbudiyl.

V. Abdulhamid Cho‘lpon.

S. Abdurauf Fitrat.

D. Ishoqxon Ibrat.

98. O‘rta asrlardagi voizlik san’atining uchta Shakli qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A*. Dabirlik, xatiblik, muzakkirlik.

V. Dabirlik, xatiblik, voizlik.

S. Xatiblik, muzakkirlik, jihodiya.

D. Jihodiya, dabirlik, suhandonlik.

99. Nutq so‘zlash kompozitsiyasining tartIbn qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A.* Muqaddima. Ishning mohiyatini bayon qilish. Rejadagi qismlarni ifodalash.

Asosiy mazmunni ta’kidlash. Xulosa-yakunlash.

V. Muqaddima. Xulosa-yakunlash. Ishning mohiyatini bayon qilish. Rejadagi qismlarni ifodalash.

S. Xulosa-yakunlash. Muqaddima. Ishning mohiyatini bayon qilish. Rejadagi qismlarni ifodalash.

D. Ishning mohiyatini bayon qilish. Muqaddima. Asosiy mazmunni ta’kidlash. Xulosa-yakunlash.

100. Notiqlik san’atidagi omillarning eng muhimlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A*. Mavzuga mos matn va manba tanlash. Rejaga ma’lumotlarni joylashtirish. Nutqni talaffuz qilish.

V. Mavzuga mos matn va manba tanlash. Rejaga ma’lumotlarni joylashtirish. Fikrni bayon etish.

S. Sanalardan foydalanish. Rejaga ma’lumotlarni joylashtirish. Nutqni talaffuz qilish.

D. Mavzuga mos matn va manba tanlash. Rejaga ma’lumotlarni joylashtirish. Rivoyatlarga asoslanish.

GLOSSARY

NOTIQLIK SAN'ATI. tinglovchi e'tiborini tortish asnosida chiroyli gapirish va mahliyo etish san'atidir. Amma nutqning faqat chiroyli bo'lishi notiq uchun kifoya qilmaydi: bema'ni safsatalarni ham juda chiroyli qilib gapirish mumkin. Bu esa notiqlik emas, vaysaqilik sanaladi. Notiqlik nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni etkazishni, ularni ma'lum maqsadlarga yo'naltirishni nazarda tutadi. Notiq nutqi 1-2 kishi uchun emas, keng auditoriyaga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga unda nutqning mazmuni, mantiiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga diqqat qilinadi. Notiqlikda notiq, oldindan qanday so'zlash, nimadan boshlab, nimadan tugatish rejalarini tuzib olishi rasm emas. U go'yo tayyorgarlik ko'rilmagan nutqqa o'xshaydi. Unda badihago'ylik, hozirjavoblik ustunlik qiladi. Nutq madaniyati tugal fikr, go'zal ifoda demakdir. Izchillik bilan birbiriga mantiiqan bog'lanmagan tugal fikr va uning ta'sirli ifodasi bo'lmasa, u kishi qalbi, ongiga sig'maydi, qabul qilinganda ham chuqur anglashilmaydi.

NUTQ - bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob kuoldan foydalanish jarayoni, til birlklari imkoniyatlarining borlik, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan muhim munosabatda nomoyon bo'lishidir. Nutq jarayoni - tilning o'z vazifasini bajarish hamda amalga oshirish jarayonidir. Nutq qaysi mavzu doirasida bo'lishidan qatiy nazar nutqda notiqning hayot yo'li, yillar mobaynida kechirgan jamiki murakkabliklari, chekilgan iztiroblar aks etmog'i va shunga uxhash narsalar hayajon bilan bayon etilmog'i kerak. Shuning uchun ham odamlar yubileyini nishonlayotgan insonga oxirida so'z bergenlarida uning so'zini butun vujudlari bilan eshitishga harakat qiladilar, nutqni gulduros qarsaklar bilan olqishlaydilar. Boisi, yubilyarning nutqida uning hayoti, hayajoni va samimiy mulohazasi aks etgan bo'ladi.

NUTQNING MOHIYATI - uning madaniyligi, ommaviyligi va ijtimoiy qimmati bilan belgilanadi. «Madaniy nutq», «nutq madaniyati», «notiqlik» degan iboralar bor. Nutqning xarakteri anashularning mohiyatini bilish bilan izohlanadi. Ularning lingvistik birlik sifatida o'z xususiyatlari mavjud bo'lib, ular insonlarning

o‘zaro fikr almashishdagi nutqiy jarayonning bosqichli Shakllari deyish mumkin. Anashu Shakllar to‘g‘ri nutq, nutq madaniyati – notiqlikdir.

MUOMALA - axloq ko‘rki sanaladi. Har bir kishining qanday dunyoqarashga egaligi, bilimliligi, uning boshqalarga qilayotgan muomalasidan ma’lum bo‘ladi. Shuni ta’kidlash lozimki, muomala insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa vositasi hisoblanadi. Bir-birimizga bo‘ladigan muomalamiz, munosabatimizning zamirida ham chiroyli muomalaning shartlari yotadi. Muomalada asosiy vosita til hisoblanadi. Shuning uchun ham til aloqa quroli deyiladi. Insonning tili shirin, muomalasi madaniyatli bo‘lsa, qisqa vaqt ichida xalq orasida obro‘-e’tibor topadi. Aksincha, sergaplik hech qachon kishiga obro‘ keltirmaydi. Ayniqsa, mahmadonalik yosh bolaga xos xususiyat bo‘lib, kattalar uchun bu qusur insonni doimo obro‘sizlantirgan. Shuning uchun ham o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarimiz tilga, so‘zga hurmat bilan yondoshishni ta’kidlaganlar.

MUHOKAMA - ma’lum bir masala yuzasidan ko‘pchilikni fikrini tuplashni, ma’lum to‘xtamlariga kelishini anglatadi. Muhokamada baxs predmetining hamma tomonlari nazarga tashlanadi. Xar bir ishtirokchi o‘zining erkin fikrlarini o‘rtaga tashlaydi. Mavzu ishtirokchilarning turli hajmdagi diologlari, monologlari asosida yoritiladi. Muhokamada fikrni og‘zaki bayon etishning xar-hil usullaridan foydalilanadi.

MUNOZARA- biror masala yuzasidan taraflarning baxsini, tortishuvini anglatadi. Baxo jarayonida xar bir ishtirokchi o‘zining haq ekanligini isbotlashga intiladi. Munozarada so‘zlanadigan nutq mavzu mazmunini ochuvchi dalillarga hayajonli, tinglovchilarni qiziktiradigan va muhokamaga tortiladigan bo‘lishi lozim. Munozarada notiq o‘zini vazmin tutadi. Suhbatdoshini hurmat qiladi. Uning shaxsiga tegadigan so‘zlardan foydalanmaydi.

MIMIKA - Inson yuzini qalb ko‘zgusi deb atash mumkin. Mimika, Ya’ni yuz muShaklarining harakati kishining ichki ruhiy holatini aks ettirib, u qanday hislarni boshidan kechirayotgani haqida to‘g‘ri axborot beradi.

MUROJAAT QILISH - Murojaat qilish (obrashenie) - insondan ko‘p narsani talab qilmaydi. U insonni tarbiya ko‘rganligidan dalolat beruvchi harakatlar

majmuasidir. Murojaat qilish har-xil bo‘lib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, suhbatdosh bilan o‘rtalaridagi munosabatdan kelib chiqqan holda bildiriladi. Murojaat qilib aytilayotgan so‘zlar nafaqat unga bo‘lgan hurmat, balki o‘z maqsadiga erishish uchun ham qo‘llanadi. Insoniy munosabatlar asosida aytilayotgan so‘zlar faqat axloq normalariga bo‘y sunadi, bu esa qarindoshlar o‘rtasidagi, sevishganlar o‘rtasidagi, er-xotin o‘rtasidagi, do‘srlar yoki mansabdor shaxs va qo‘l ostidagi inson bilan bo‘ladigan munosabatlarda qo‘llaniladigan so‘zlardan tubdan farq qiladi. Murojaat qilish ham bir necha turlarga bo‘linadi: ular –rasmiy, ishonchli, intim va nomsiz.

XUSHFE’LLIK. Ushbu axloqiy hatti-harakat me’yoriylik nuqtai-nazaridan g‘oyat muhim. Chunki har bir jamiyat darajasi ma’lum ma’noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining Yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe’l, shirinsuxan inson o‘zining har bir muvoffaqiyatsizligiga fojea sifatida qaramaydi, alam yoki g‘azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o‘tkazishga intilmaydi. Atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o‘ziga ham, o‘zgalarga ham ko‘tarinki kayfiyat, tarli-tuman omadsizliklarning o‘tkinchilagini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag‘ishlaydi. Jamiyat doimo o‘shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o‘rnak olishga intiladi.

XUSHMUOMALALIK. Muomalaning asosiy manbaini so‘z tashkil etishi barchamizga ma’lum. Shuningdek, so‘z insonning botinidan chiqishi, inson botindan chiqadigan so‘zga egalik qila olishini ham bilaniz. Biroq, tashqariga chiqqan so‘z insonning o‘zini qulga aylantirib qo‘yishini doim ham bilavermaymiz. Ya’ni, og‘izdan chiqqan yaxshi-yomon so‘z bevosita insonning ruxiyatiga o‘rnashadi: yaxshi so‘z bilan muomala qilinsa – yaxshilik topiladi, yomon so‘z bilan muomala qilinsa – yomonlik.

HAYO-IBOLILIK. Hondamir, Vosify va boshqa zamondoshlarning asarlaridan bilanizki, Navoiy g‘oyat tabiatni nozik, pok, xushxulq va o‘ta nazokatli kishilarni yaxshi ko‘rgan, o‘zi ham juda noziktabiat inson sifatida nom qozongan. Shu sababli u «Mahbubul qulub»dagi «tanbeh»larida hayo, beozorlik sifatlariga

alohida urg‘u berib ta’riflaydi. Vafo va xayoni uyg‘unlikda ko‘rgan shoir «vafosizda hayo yo‘q, hayosizda vafo yo‘q» deb ta’kidlaydi.

MULOYIMLIK. Muloyimlik barcha mutafakkirlar nazarida kishining maqbul sifatlaridan biri, deb e’tirof etiladi. Muomala madaniyatida muloyimlik «xilmli», «yumshoq tabiatli” degan tushunchalar bilan bir ma’noni anglatadi. Bu tushuncha achchig‘lanmaydigan, ehtiyotkor, so‘zini o‘ylab gapiradigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Biroq, muloyimlikning kamchiligi shuki, bunday sifat sohiblari aksar odamlarga yoqmaydi.

BEOZORLIK. Insonlarning tabiatidagi husumat, adovat, g‘azab kabi illatlar bu kabi odamlardan xoli. Ular barcha mas’uliyatni o‘z zimmalariga olsalar-da birovga yomonlikni ravo ko‘rmaydilar, og‘irliklarini o‘zgalarning zimmasiga yuqlamaydilar. Beozor kishilar matonatli bo‘la turib, o‘zidan ojiz kishilarga qahr bilan muomala qilmaydilar.

Umuman olganda, axloqiy me’yorlarning muomala madaniyatidagi ko‘rinishlari talaygina. Biz shulardan ayrimlarigagina to‘htalib o‘tdik. Shunday ekan, muomalada pirovard natijada quyidagicha xulosa chiqarish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz: agar axloqshunoslikning me’zoniy tushunchalari bir-biriga bog‘liq bo‘lsa, axloqiy tamoyillarning bog‘liqligi yanada mustahkamroq- ular biridan ikkinchisiga o‘tib turish xususiyatiga ega; axloqiy me’yorlar bir-biri bilan shu darajada chambarchaski, ba’zan birini ikkinchisidan aniq ajratish qiyin, zero ular xulq va odob doirasidagi axloqiy amaliyotlardir.

KO‘RISHISH ETIKETI. Ko‘rishish etiketi qoidalari milliy xususiyatlardan kelib chiqib turli xalqlarda turlicha ko‘rinishlarga ega. Ko‘rishish salomlashish, bosh qimirlatish, quchoq ochish, qo‘l berish, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish va xatto o‘pishish orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon xindlarda kaftlarni juftlab, peshonasining o‘rtasiga tekizish bilan, afg‘onlarda o‘ng qo‘lini manglayiga tegizib, ta’zim qilish bilan, tibetliklarda bir-birlariga qarab tillarini chiqarish bilan, o‘zbeklarda qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish bilan ko‘rishiadi.

SUHBATLASHISH QOIDALARI. Muomala suhbatlashishishning eng muhim vositasidir. Bunda ham umume’tirof etgan qoidalalar mavjud. Suhbatdoshni

gapini bo‘lmasdan eshitish nafaqat hurmat belgisi, balki insonning ziynati hamdir. Suhbatdoshingizni tinglayotganingizda iloji boricha boshqa narsalarga e’tibor qaratmaslikka harakat qiling, aytayotgan gaplarini tasdiqlash ma’nosida boshingizni silkitish, “darhaqiqat”, “to‘g“ri”, “topib aytingiz», “men ham qo‘shilaman”, “chiroyli ta’rifladingiz” kabi ma’qullah ma’nosidagi so‘zlarni aytishni unutmang. Sizga gapiroayotgan odamga teskari qarab o‘tirish, gapiroayotgan paytda biroor narsani o‘qib turish, bir vaqtning o‘zida boshqa kishi bilan gaplashish, hadeb soatga qarayverish, esnash, cho‘ntak kavlash yo boshqa shu kabi mayda-chuyda harakatlarni qilish suhbatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

bilan suhbatga bo‘lgan jonli qiziqishni ko‘rsatishga harakat qiling.

OHANG - Suhbatning tavsifini belgilab berish uchun so‘z boyligi va so‘zning gramatik qurilishi hali etarli emas, bu erda gaplashish ohangi va intonatsiya muhim rol o‘ynaydi. So‘zlashish ohangi iroda va emotsiyal ta’sirni, hissiyotni aks ettiradi. So‘zlashish ohangidan hatto kishining kayfiyatini bilish mumkin. Ohang ma’lum darajada kishining xulqini ham aks ettiradi. Yani suhbatdoshimizning tarbiyali Yoki tarbiyasizligini ko‘rsatadi. Yurish – turish vaziyatlari qanchalik ahamiyatga ega bo‘lsa, so‘zlashish ohangi ham shunchalik ahamiyatga ega. Bitta so‘z Yoki iboraning o‘zi qanday qanday ohangda aytiganligiga qarab bizga har xil ta’sir etishi mumkin. Ko‘pincha aytigan so‘z emas, balki haqoratomuz ohang kishini ranjitadi. Ohangizning chiroyligi yoki ingichkaligi bilan siz bevosita atrofdagilarda og‘ir yoki engil kayfiyat uyg‘otasiz. Ifodalanayotgan so‘zlarning ma’nosи umuman tinglovchilarga hech qanday ta’sir bermaydi. U suhbatdoshingizning javob berish imkoniyatini yaxshilash darjasida bo‘lsa bas. Haqiqiy ma’lumot so‘z ohangizdadir.

BAXS – shaxslar o‘rtasidagi u yoki bu mavzudagi tortishuvi hisoblanadi. Bahs qoidasi: hatto juda qulay vaziyatlarda ham odamlarni fikrini o‘zgartirish juda qiyin masaladir. Agar o‘z qarashlaringizni boshqa birovga o‘tkazishni istasangiz, uning fikrini hurmat qiling. Hech qachon odamga uning nohaqligini aytmang. Xato qilish ehtimolini o‘zingizda bo‘lishiga ham e’tibor bering. Bu barcha turdagи bahslarga yakun yasaydi hamda sizdagi bu fikrlashdagi haqqoniyligini o‘zida ham

yaratishga harakat qiladi. Shu bilan hamsuhbatingizni o‘zi ham siz kabi nohaq bo‘lishini tan olishiga imkon beradi.

SUHBAT – ikki yoki bir necha kishilar o‘rtasidagi muloqotga aytildi. Barcha holat va narsalarga yuzaki qaraydigan jamiyatga bir oz hazil va yengillik bilan hamma narsalar haqida komil ishonch bilan so‘zlash bilan shug‘ullanish – bu olim odam ham iste’dodli odam ham emin bo‘ladigan san’atdir. Har kimga ham aqlii gaplarni osonlik bilan yetkazish qobiliyati berilmaydi. Suhbat san’atida sergaplikka yo‘l qo‘ymay mashq qilish lozim, odamga moslashish kerak va uzoq tajribaga ega bo‘lgandan so‘nggina o‘z istiqbolini ko‘rish mumkin. Suhbatdagi har bir so‘z suhbatdosh uchun aniq va tushunarli bo‘lmog‘i lozim.

SALOMLASHISH ODOBI - Salomlashish insonning insonga bildirgan hurmati, odamlarning o‘zaro muomala munosabatlarining boshlanishi, bir – biri bilan suhbatlashayotgan ikki dilning kalitidir. Salom berilganda sizga yoqimsiz qarab turgan inson ham alik oladi. Salom berish kundalik hayotimizda eng ko‘p qo‘llaniladigan udum bo‘lib, xushmuomalalikni talab qiladi. Assalomu-alaykum, arabcha so‘z bo‘lib, "Sizga tinchlik tilayman" deganidir, bu so‘z to‘liq aytilishi kerak. "Assalom-alayka", "Va alayka", "Salom", "Salom alaykum", "Salom berdik", "Alaykum" kabi qisqa so‘zlar ishlatilmasligi kerak. Salomlashish kishilar orasidagi o‘zaro hurmat, muomala munosabatlarining avval boshi bo‘lgani uchun uning bajarilishida ham alohida qoidalar bor. Salomlashganda Yoki xayrlashganda aytiladigan “Assalom alaykum”, “salomatmisiz”, “omonmisiz”, “yaxshimisiz”, “salomat bo‘ling” deyiladi. Bu so‘zlarda, insonlarning bir-biriga hurmat extiromi, hayriroxlik izhori bilan birga bu so‘zlarda chuqur mazmun va mulohaza bor.

MUROJAAT QILISH - Murojaat qilish - insondan ko‘p narsani talab qilmaydi. U insonni tarbiya ko‘rganligidan dalolat beruvchi harakatlar majmuasidir. Murojaat qilish har - hil bo‘lib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, suhbatdash bilan o‘rtalaridagi munosabatdan kelib chiqqan xolda bildiriladi. Murojaat qilib aytidayotgan so‘zlar nafaqat unga bo‘lgan hurmat balki, o‘z maqsadiga erishish uchun ham qo‘llanadi. Insoniy munosabatlar asosida aytidayotgan so‘zlar faqat axloq normalariga bo‘y sunadi, bu esa qarindoshlar

o‘rtasidagi, sevishganlar o‘rtasidagi, er -xotin o‘rtasidagi, do‘stlar Yoki mansabdor shaxs va qo‘l ostidagi inson bilan bo‘ladigan munosabatlarda qo‘llaniladigan so‘zlardan tubdan farq qiladi. Murojaat qilish ham bir necha turlarga bo‘linadi: ular – rasmiy, ishonchli, intim va nomsiz.

XUSHOMADLAR - insonning tashqi qiyofasi, chiroyli so‘zлari, hatti-harakatidan ta’sirlanib, ma’qullahni ifodalash, maqtovning maxsus shaklidir. Nafis shaklga o‘rangan bu ifoda bilan hammamiz ham lazzatlanamiz – har birimizda ozgina miqdorda bo‘lsa ham o‘zimizga nisbatan muhabbat hamda g‘urur mavjud. Xushomadlar jamoatda yoqimli kayfiyat uyg‘otadigan hissiyotda asos bo‘lib xizmat qiladi. Xushomad yengil, sho‘x, oddiy, tabiiy va asosiysi, haqqoniy bo‘lishi lozim. Agar xushomadlarni kam, ammo o‘tkir va nazokatli qilib aytilsa, unda ular suhbatga ajib bir tarovat qo‘shadi. Aksincha, agar xushomadlarda bir muncha tayyorgarlik, ta’ma, oshirib yuborishlik bo‘lsa, ular kulgulik va yoqimsiz xususiyat kasb etadi. Qo‘pol xushomad doimo o‘rinsizdir va uni ifodalovchi odam yaxshi ko‘rsatmasligi aniq. Uni qabul qilish ham odamni kamsitadi. Xushomad o‘z vaqtida va joyida qo‘llanishi nur ustiga a’lo nurdir. Bunday nazokatga ko‘milgan xushomad hamisha odamga lazzat bag‘ishlaydi. U uyatchan odamga ishonch, odamovini ochiq bo‘lishiga, xomush odamni kayfiyatini ko‘tarishiga sabab bo‘ladi.

PERIKL. Perikl yirik siyosiy arbobgina bo‘lib qolmay, ko‘zga ko‘ringan notiq ham edi. Perikl nutqlarining birorta teksti ham bizgacha etib kelmagan. Lekin uning usta, ko‘zga ko‘ringan notiq bo‘lganligi haqida Yunon terixchisi Fukidid ma’lumot beradi. Perikl nutqi fikrning chuqurligi, formaning soddaligi, samimiyligi bilan, tinglovchilar psixologiyasini e’tiborga olganligi bilan xarakterlanadi. Periklning tajribasicha, yaxshi notiq faqat yaxshi gapirish bilan kifoyalanmay, balki ayditoriYani ham o‘zga jalb eta biladigan kishi bo‘lishi kerak.

LISIY. Eramizdan avvalgi Y asr oxiri va IY asr boshlarida yashab o‘tgan, ko‘zga ko‘ringan sud notiqlaridan biri Lisiy edi. Lisiyning notiq sifatidagi xususiyatlaridan biri, hamma notiqlar uchun zarur bo‘lgan usul – fikrni Yangicha Shaklga solishni juda oson egallaganligidir. U gapirishi lozim bo‘lgan kishinining

xarakterini, ijtimoiy axvolini juda ham aniq tasvirlab beruvchi nutq tekstini ishlab chiqishga usta ediki, bu nutq faqat o'sha so'zlovchigagina xos bo'lardi.

Lisiyning notiq sifatidagi ikkinchi xususiyati, hikoyachilik san'atini egallab olganligidir. U har qanday voqelikni sodda, jonli, qiziqarli Shaklda qiziqarli hikoya qilishga usta edi. Uning notiqlik san'atidagi uchinchi xususiyat – uslubidagi aniqlik, soddalik va tabiiylik edi. Uning fikricha, biror masala bo'yicha so'zlangan nutq ikkinchi takrorlanmasligi kerak, agarda shu nutqni avvalgi tinglovchilar bir necha marta takror eshitsalar, nutq o'z kuchini va ifodaliligin yo'qotadi. (Bir kuni Lisiy o'z himoyasidagi kishilardan biriga nutq tekstini yozib beradi. U bundan hursand bo'ladi... «Sen bir narsani unutyapsan, sud sening nutqingni faqat bir marta eshitadi», -deydi.) Bu juda to'g'ri ko'rsatma. Har bir ma'ruzachi shuni bilishi zarurki, bir auditoriyada ikki uch marta bitta ma'ruzani takror o'qish mumkin emas.

DEMOSFEN. Qadimgi Yunonistonning Buyuk notiqlaridan biri Demosfendir. Unga Ritorikasohasidagi faoliyatida sharaf keltirgan narsa ulkan siyosiy nutqlaridir. Demosfen notiqlik san'atini o'rganish uchun juda ko'p vaqt sarflaydi. Unda jismoniy kamchiliklar mavjud edi – ovozi past va diksiyasi yomon bo'lgan, kifti asabiy ravishda titrab turgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Demosfen ovozini o'stirish uchun og'ziga mayda toshlarni solib, dengiz qirg'og'ida nutq so'zlardi va to'lqin shovqin-suronni bosib ketishiga harakat qilardi. Kiftning titrashidan qutulish uchun shiftga qilichni shunday ildiradiki, uning o'tkir uchi kiftga Yaqin turadi va kifti titragudek bo'lsa, qilichning uchi tegib og'ritardi. Shu yo'sinda olib borilgan uzluksiz mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishga imkon bergen.

ARASTU. Arastu Ritorikanazariyasi – «Ritorika» asarini yaratdi. Bu asar uch qismidan iborat: 1. Nutq xizmat qilishi lozim bo'lgan prinsiplar taxlili. 2. Notiq uchun zarur bo'lgan shaxsiy xususiyat va qobiliyat. 3. Notiq nutqida qo'llaniladigan nutq texnikasi, nutq usulari. Arastuning fikricha ritorika fanining birinchi asoschisi Empidokl bo'lgan. Lekin uning bu sohadagi ishi bizgacha umuman etib kelmagan. Empedoklning Shogirdi Koraks ritorika haqida Yangi ish yozgan bo'lib, u ham bizgacha etib kelmagan. Eng muhimi Koraks chiroyli nutqni «Ishontiruvchi

xizmtkor» deb ta'riflaydi. Notiqlik san'atining rivojlana borishi uning prinsip va usullarini kashf etishga ham urinishga olib keldi. Natijada chiroyli so'zlash nazariyasi – ritorika maydonga kela boshladi.

SITSERON. Sitseron Rim notiqlariing yalovbardoridir. Sitseron mukammal bilim oldi va notiqlik san'atining muhim matabini bitirdi. Sitseron ijodida ikki an'ana asosiy rol o'ynadi. Bulardan biri, grek so'z ustalari maktabi keng bilim maydoni bo'lsa, ikkinchisi, eski Rim notiqlari tajribasi, birinchi navbatda Katon tajribasi edi.

Sitseronning notiqlik san'atidagi muvoffaqiyatida uning tabiiy qobiliyati – ta'sirchanlik, hayotiy idrok, chuqur sezgirlik muhim ahamiyatga ega bo'lган.

KAYKOVUS. Kaykovusning Sharq pedagogikasi tarixida g'oyat qimmatli asarlar qatorida turuvchi «Qobusnama»sida ham notiqlik sharxlari uchun alohida bob ajratilganligi bu san'atga bo'lган, uning san'atkoriga bo'lган qiziqishning orta borganligini ko'rsatadi. «Qobusnama»ning «Suhandonlik bilan baland martabaga ega bo'lish haqida» deb nomlangan ettinchi bobida va hunarni egallahsha bag'ishlangan oltinchi bobida notiqlik sirlariga doir o'gitlar bildiriladiki, bu fikrlar o'sha davrda ham hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

ALISHER NAVOIY. Navoiy notiqning so'zi bilan ishi bir bo'lmos'i lozimligini uqtiradi. Aks xolda nutqning ta'siri bo'lmaydi. «Ulki buyurib o'zi qilmag'ay, hech kimga foyda va asar aning so'zi qilmag'ay». Alisher Navoiy davrida ham notiqlik Yuksak darajaga ko'tarildi. U "Mahbub ul qulub" asarining 24-bobini asosan voizlikka bag'ishlagan edi. Alisher Navoiy notiqlikda qisqalik va ravshanlikni yoqtiradi. Bu jihatdan uning «Mahbubul qulub»idagi 60 tanbehi o'rinnlidir. «Chin so'z mo''tabar, yaxshi so'z muhtasar. Ko'p deguvchi mumil, muqarrar deguvchi loya'qil» (Ya'ni: Chin so'z e'tiborli, yaxshi so'z qisqa bo'ladi. Ko'p so'zlovchi zeriktiruvchi, qayta gapiradigan – aqldan ozgan), - deydi.

VOIZ IRSHOD. Fahriddin Safiyning shohidlik berishicha. Voiz Irshod minbarga chiqib, shunday mahorat va ehtiros bilan nutq so'zlar ekanki, uning nutqlari jome masjidiga yig'ilganlarni yig'latib yuborar, o'rni kelganda vaziyatni tezdan boshqa mazmunga burib, kuldirib ham yuborar ekan. uning nutqidan

ta'sirlanib ho'ng-ho'ng yig'laganlar. Shunda u o'z nutqining jozibador, maftunkor yana bir qirrasini namoyish qilgan: u o'z ma'ruzasi jarayonida shunday bir burilish yasaganki, yig'lab o'tirganlarning barchasi beihtiyor qah-qaha otib yuborganlar.

QOZI O'SHIY. Tarixchi Muhammad Majdiyning “Ziynat ul-Majolis” asarida ta'kidlanishicha, O'shiy voizlik san'atida mislsiz mahorat sohIbn sifatida dong taratgan va el nazariga tushgan. Qozi O'shiy “Miftoh un Najoh” ya'ni “So'z kaliti” rivolasida voizlik san'atining sir-asrorini mohirona ochib bergan. Bu esa uning o'tkir voizgina emas, balki nutq madaniyati bo'yicha etarli bilim sohIbn ekanligidan ham dalolat beradi. Masalan, u Eron mamlakatimining janubidagi Sinston viloyatining aholisi o'sha davrlarda qattiqqo'llligi bilan nom chiqargan bo'lib, xatto tilanchiga ham bir burda non bermas ekan. Bu ziqlalikni eshitgan Qozi O'shiy o'sha viloyatga boradi: vaziyatni o'rganadi, ularning ko'nglini topib ma'ruza qiladi, dardlarni va'z aylaydi. Natijada sinstonliklar allomani duolar qilib, hadyalar bilan birga 5.000 dinor tilla to'plab berishadi. Mazkur rivoyatdan shu narsa ayon bo'ladiki, xalqning dardini topib unga malham bo'ladigan so'z aytilda, uning qulf'i dili ochilib siz bilan murosa qilishi mumkin.

XO'JA MUAYYAD MEHNAGIY. U o'z zamonavining alloma notiqlaridan biri bo'lib, dunyoqarashi jihatidan oddiy mehnat ahliga juda Yaqin bo'lgan. U, mavlono Navoiyning shohidlik berishicha, bir qabristonning bechoraxol shayxi bo'lgan. E'tirof etishlaricha, Mehnagiyning voizligi uning donishmandligidan kam bo'lмаган.

MAVLONO RIYOZIY. U behad azobu-uqubatlar bilan g'ariblikda, ta'qibu malomatlar iskanjasida umr kechirgan. Bu xol uning voizlik san'atida ham o'z aksini topgan. Hayotning achchiq-chuchuklarini boshidan kechirgan Riyoziy ham voizgina bo'lib qolmay olim, murabbiy va shoirlik darajalariga ham erishgan. Murosasiz kurash va dahanaki janglar, hujum va mudofaalar girdobida chiniqqan Riyoziyning nutqlari jo'shqinligi, jasoratliligi, o'tkirligi bilan ajralib turgan. O'sha davrning mashhur notiqlaridan biri Mavlono Riyoziyning notiqlik faoliyatida nutqni harakat bilan, mimika bilan qo'shib olib borish ustun bo'lgan. Navoiying yozishicha, “Va'z aytib, minbarda o'z ash'orin o'qub, yig'lab vajdi xol qilur”.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY. U taxminan 1440-yillarda Xuroson viloyatidagi Sabzovor shaxrining Bayxaki kentida tug‘ilgan. Yoshligidanoq voizlik – so‘z san’ati bilan mukammal shug‘ullanadi. Natijada Sabzavorda o‘zi yosh bo‘lsada ko‘zga ko‘ringan voiz bo‘lib taniladi. Uning o‘g‘li Faxriddin Ali Safiy ham olim, shoir, yozuvchi, islom dinining targ‘ibotchisi sifatida butun Xuroson muzofatida mashhur bo‘lgan.

Koshifiyning nutqlari o‘zining jozibadorligi bilan har qanday kishini jalb qila olgan. Aytishlaricha, uning bunday so‘z san’atidagi mahoratini Navoiy bilan birga Sulton Husayn Bayqaro ham Yuksak baxolagan va ular o‘z asarlarini axoli o‘rtasida rasmiy ijro etish lozim bo‘lgan paytlarda, bu ishga Husayn Voizni munosib ko‘rganlar.

NOTIQ IMIJI - Zamonaviyligida; O‘z imkoniyatlardan foydalana olishida; Boshqalarga taqlid qilmasligida; Aniq maqsadi va tasavvurga ega bo‘lishida. Yoqimli tashqi qiyofa, jamoa orasida o‘zini tutish, samimiy muloqot jarangdor va ravon nutq chiroyli hatti-harakatlar

RAQOBATCHILIK USULI. Mazkur usul eng tipik xolat hisoblanadi. Ma’lumotlarga qaraganda, ziddiyatlarda o‘z manfaatlarini 70% qondirish, g‘olib bo‘lish hisoblanadi. Bunda raqib tomonga bosim o‘tkazish vujudga keladi. Uni kuchli irodaga ega bo‘lgan shaxsgina bajarishi mumkin. Bu usuldan o‘z fikri va kuchiga ishongan hamda ziddiyat natijasi muhim bo‘lgan insongina foydalana oladi. Buning uchun shaxs: a) imkoniyatlari keng, hokimiyat egasi, e’tiborli kishi bo‘lishi va tanlagan yo‘li to‘g‘ri ekanligiga ishonishi lozim. b) boshqa yo‘l yo‘qligiga ishonch hosil qilish. v) mazkur yo‘lni tanlash uchun etarli imkoniyatlarga ega bo‘lish. g) avtoritarlikni ma’qul ko‘rvuchi hodimlar bilan ishlashi kerak.

IJTIMOY-MAISHIY NOTIQLIK – bunga turli tadbir va yig‘inlarda, yubiley tantanalarida so‘zlanadigan qisqa va lo‘nda nutq Yoki suhan so‘zlar kiradi.

SAHNA NOTIQLIGI (kino, teatr aktyorlari, konsert boshlovchilari Yoki konsertni olib boruvchi aktyorlar nutqi) – bu og‘zaki notiqlikning alohida turi hisoblanib, tinglovchi tomonabinlar uchun umumtushunarli bo‘lgan adabiy tilda, chiroyli talaffuz orqali amalga oshiriladigan nutqdir. U yana boshqa nutqlardan

dialogik xarakteri bilan ham farqlanadi. Har bir nutq turlari o‘ziga xos mas’uliyatni talab qiladi va o‘ziga mos auditoriYani “tanlaydi”. Masalan, bayramlarda kadr ortidan matnni o‘qib turuvchi suhandon akademik ma’ruzada qiyalishi mumkin Yoki aksincha (O‘zbekiston xalq artistlari Afzal Rafiqov va Yoqub Ahmedov bayram shodiyonalarida chiroyli matn o‘qiydi. Suhandonlar Muslim Yo‘ldoshev, Abdimo‘min O‘tbosarov va O‘tkir Siddiqov konsert dasturlarini olib borishga usta. Aksincha shou konsertlarga esa “yaramaydi. (O‘.Siddiqov Chustiyning “Yaxshimisiz, tuzikmisiz” g‘azali). Eng zo‘r notiq esa har qanday auditoriya bilan muloqot qila olishi bilan xalq e’tiboriga tushadi.

TELERADIOJURNALISTLARI NOTIQLIGI – bunda ko‘rsatuv yoki eshittirish olib borayotgan jurnalist adabiy tilda omma uchun tushunarli bo‘lgan zaylda nutq so‘zlashi, so‘zlarni aniq va ravshan ohang bilan talaffuz etishi muhim. Shuningdek, fakt va voqealarni bayon etishda, o‘z nutqida qaytariqlarga yo‘l qo‘ymasligi uchun oldidagi matndan foydalanishi Yoki uni mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Til, nutq hamda yozuv o‘zaro bir butunlikni hosil etibgina qolmay, og‘zaki va yozma nutqning asosiy manbai hamdir. Nutqiy bo‘linishlar sirasidan o‘rin olgan telenutq va radionutq ommaga muayyan tilning jozibasi va boyligini namoyon etuvchi, etkazuvchi asosiy vositalardandir.

DINIY VA’ZXONLIK (NOTIQLIK) – bunga namoz jum’ada, amri-ma’rufda imom tomonidan qilinadigan ma’ruzalar kiradi.

HAMKORLIK. Bu usullarning ichidagi eng murakkabi va eng samaralisidir. Bu usulning afzal tomoni shundaki, ikkala tomon uchun ham murosali echim topilish ehtimoldan xoli emas. Mazkur usul ziddiyatni xal etish uchun ziddiyatning barcha a’zolarining ishtirot etishini talab etadi. Bu kabi yondashuv ish va shaxsiy hayotda omadga olib keladi. Bu usulni boshlashdan avval quyidagi so‘zlarni aytish maqsadga muvofiq: “Men ikkalamiz uchun adolatli yo‘lni tanlamoqchiman”, “Ikkalamiz nimani xohlashimizni bilib olaylik”, “Men muammoni echish uchun keldim” kabilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikkala tomonning g‘olib bo‘lishi qabul qilingan qarorlarning ijrosini muvoffaqitli garovidir. Biroq, bu uslub o‘z qarashlari va fikrlarini izohlab berish hamda ikkinchi tomonni tinglay olish

qobiliyatini talab qiladi. Mazkur usulni quyidagi ziddiyatli vaziyatlarda qo'llash mumkin: -muammoning echimi muhim bo'lib, murosaga yo'l qolmagan vaziyatlarda; -ziddiyatli tomon bilan uzoq muddatli aloqalar o'rnatish ko'zlanganda; -asosiy maqsad o'zaro tajribaga ega bo'lish bo'lganda;-fikrlarning integratsiyasi zarur bo'lsa hamda hodimlar shu jarayonga jalg etilsa.

MUROSA USULI. Murosa usulining asosiy maqsadi ikkala tomonni o'zaro kelishuvga keltirish hisoblanadi. Shu ma'noda bu usul hamkorlikka o'xshab ketadi, biroq ancha yuzaki amalga oshiriladi. Bu usul tomonlarning manfaati mos kelib buni qanday xal etishida juda samaralidir. Murosa kelishuvni amalga oshirishda ma'lum ma'noda ko'nikma bo'lishi lozim, har bir a'zo nimagadir erishishi zarur. Mazkur usulning kamchiligi shundaki, birinchi tomon ikkinchi tomonga nisbatan o'z imkoniyatlarini oshirib yuborsa ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Murosa usulini quyidagi ziddiyatli vaziyatlarda qo'llash mumkin: - ikkala tomon ham birday imkoniyatlarga ega bo'lsa; - bir tomonning ehtiyojlarini qondirish mumkin bo'lsa; - aniq qaror qabul qilinguniga qadar vaqtinchalik murosa yo'lini tanlash.

CHEKINISH USULI. Bu usul asosan tomonlarning to'g'ridan-to'g'ri manfaatlariga zid kelmasa Yoki muammo unchalik muhim bo'lmasa, ziddiyatning keskinlashuviga ta'sir etmasa Yoki tomon muammoni xal etish uchun o'z kuchlarini sarflashni istamagan xollarda o'zining samarasini beradi. Shuningdek, bu usuldan tomonlar teng kuchga ega bo'lмаган xolda foydalinshlari mumkin. Aks xolda aloqalar uzilishi mumkin. Ziddiyatli tomon bu usuldan agarda:- ziddiyat manbai asossiz va muhim bo'lmasa; - o'z manfaatiga xal eta olmasligini bilsa; - muammoni echish uchun etarli kuchga ega bo'lmasa; - ko'shimcha axborotga ega bo'lish uchun vaqtdan yutishni istasa; - zudlik bilan masalani xal etish xavfli bo'lsa; - hodimlarning o'zi bu muammoni xal eta olsa; - masalani xal etish sog'liqqa zarar bo'lsa; - ziddiyatda murakkab insonlar – qo'pollar, noluvchilar ishtirok etsa ishlatish mumkin. Bu usul muammodan qochish emas, aslida cheklashish ziddiyatli vaziyatlardan qo'l kelishi mumkin.

MOSLASHISH USULI. Bu usul ikkinchi tomon bilan aloqada bo'lib, muhitni yaxshilash uchun o'z manfaatlarini oqlamaslik tushuniladi. Tomas va

Kilmen fikricha, ayrim xollarda bu ziddiyatni xal etishning yagona yo‘li hisoblanadi. Chunki uning paydo bo‘lish paytiga kelib ikkinchi tomonning manfaatlari siznikidan zarurroq bo‘lib qolishi mumkin. Moslashish usuli quyidagi xollarda qo‘llanilishi mumkin:-asosiy vazifa tinchlikni saqlashga qaratilganda.-ziddiyat masalasi tomonlar uchun muhim bo‘lmasaga.-boshqalar bilan aloqani mustahkamlash o‘z manfaatidan ustun kelganda.-haqiqat siz tomonda ekanligini bilganda.-etarli kuch va imkoniyatlarga ega bo‘lmasaga.

TAQDIMOT – bu o‘zlashtirish, ma’lumotlarni ko‘pchilik oldida ochiq taqdim etishdir. Taqdimot turlari hisobot, ma’lumotnoma, press-relliz, dayjest, axborot, reklama Shaklida bo‘lishi mumkin. Ochiq taqdimot deganda odatda, loyihalar, mahsulotlar, dasturlarning ommaviy axborot vositalari orqali taqdim etilishi va taqdim etilayotgan narsaning u Yoki bu ko‘rinishda foydalilik mezonlarini ko‘rsatib berish tushuniladi. Aslida taqdimot bugungi kunda tijorat va siyosatda, ma’rifat va madaniyatda, ta’lim va tarbiyada keng qo‘llanilayotgan marosimlardan biridir.

«**IMIJ**» so‘zi «ko‘rinish, timsol va martaba» ma’nolarini anglatadi. imij — bu o‘zini nomoyon etish, o‘zini o‘zgalar uchun talqin etish belgisidir. Rahbarga o‘zgalar tomonidan beriladigan ma’naviy, shaxsiy, intellektual, professional va ahloqiy hislatlar baxosidir.

TARQATMA MATERIALLAR

1-Mavzu. Ritorika fanining tadqiqod doirasi, maqsadi va vazifalari.

Ritorika faniining asosiy maqsadi ommani umummadaniy saviyasini yuqsaltirishga hissa qo'shishdir.

Ritorika – amaliy jixatdan chiroqli nutq tuzishning qonuniyatları, sirları, til me'yirları, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan nuqsonlar va talaffuzga doir muammolarni xal etish yuzasidan baxs yuritadi.

Nutq - bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarini bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayon

Til nutq uchun moddiy materialdir.

Adabiy til uchun begona unsurlari bo'limgan ahloq me'yirlari tan olmaydigan so'zlardan holi bo'lgan nutq, sof nutq deyiladi.

Kishilarda madaniy nutq malakasini shakillantirish ya'ni adabiy til, umuman til mezonlariga, mavjud qoidalarga to'la amal qilgan holda nutq tuzish malakasini shakillantirish notiqlik san'atining asosiy vazifasidir.

**Mavzu -2. Qadimgi dunyoda ritorikaning
paydo bo‘lishi.**
Buyuk mutafakkir notiqlar xususida.

Qadimgi san’at turlaridan biri notiqlik dastlab Misr, Assuriya, Bobilon kabi qadimiy davlatlarda rivoj topgan bo‘lsa, keyinchalik Gretsya (Yunoniston)da va Rimda rivojlandi.

Perekl, Kleon, Lisi, Demosfen, Gipperid kabi davlat arboblari notiqliknini san’at darajasiga ko‘tardilar.

Yetuk inson bo‘lishi uchun, albatta notiqlik san’atini egalashi shart qilib qo‘yiladi. Shu ehtiyoj sababli notiqlik nazariyasi yaratildi va qo‘yidagi jarayonlar belgilandi.

Materialni xar
tomonlama
tayyorlash

Materialni
joylashtirish
rejasini

Materialni
o‘zlashtirish, nutq
qurilishini to‘g‘irlash;

Notiqning nutq
materialini
o‘rganishi

Materialni so‘z bilan ifodalash

Nutqni talaffuz qilish, ya’ni
nutq jarayoni.

Ellinizm davrining olimlari. Antifont, Andokid, Lisiy,
Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxin, Giperid va Dinarx

Sofistika – antik davrdagi aqliy oqim. Sofistlar til boyligini mohirona egallahshi va kerak paytda undan foydalanishni o‘rgatardi. Sofistlar so‘z va tilning nazariy asoslarini ham ishlab chiqdilar.

**3 – Mavzu. O‘rta asrlar musulmon sharqi
mutafakkirlarining Ritorika xususidagi ta’limotlari.**

O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi ham so‘zga chechan, badiiy didli kishilarni qadrlab kelganlar. O‘sha davrda ritorika voizlik, notiqlar voizlar, nutq esa va’z deb atalgan.

O‘rta asr fani madaniyati Xorazmiy, Farg‘oniy, Farobi, Ibn Sino, Beruniy Maxmud Qoshg‘ariy, Jomiy, Navoiy kabi ulug‘ siymolarning nomlari bilan xarakterlanadi. Bu mutafakkirlar vashaqan davr Sharo tarixida Uvg‘onish davri deb ataladi.

Ali Ibn Sino yaxshi tarbiyachi, notiqni yaxshi do‘sst sifatida tilga oladi va notiq kunitagilarga amal qilishi lozim deb biladi.

Nasixat ko‘pol ohangda berilishi kerak emas.

Suhbatdoshning ilm darajasini xisobga olish

Nasixatga ko‘p berilmaslik kerak, uni o‘rtoqlik suhbatni tarzida olib horish kerak

Nasixatni muloyim ohangda, yolg‘iz olib borish kerak

Agar ta’na kilmoqchi bo‘lsang, boshqalar kamchiligi bilan kiyoslab ta’na kil

Agar o‘z e’tiqodingni aytmokchi bo‘lsang, faqat bir ma’lumotga tayanma, balki ko‘p masalalar bilan isbotla, suhbatdoshingni buni yuragiga yaqin olishiga, shu narsa haqida o‘ylashga va xaqiqatni izlashga ishontir.

Agar suhbatdoshing sening gaplaringga e’tibor bilan quloq solayotgan bo‘lsa, suxbatni oxirigacha davom ettir va hech nimani sir saqlama, lekin uning e’tiborsizligini sezsang, gapni boshqa mavzuga bur.

Farobiy axloqli kishilarning 12 muxim sifatini ko‘rsatadi va shundan beshinchisi sifatida tilga olingan notiqlik haqida gapirib: "so‘zlari aniq bo‘lsin, fikrini va aytmoqchi bo‘lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin." – deydi.

**4-mavzu - Notiqlik san'atining xususiyatlari
va turlari**

Nutq – bu notiqning tinglovchilarga bilim, ko'nikma va malaka berishi, ularda yangi xaqiqatlarni ocha bilishiga qodir bo'lgan ijodiy, mantiqiy tafakkur tarbiyasidir.

Nutq - insonlarning til orqali bir - birlari bilan muomala va aloqa qilish usulidir.

Nutq to'g'ri bo'lishi uchun fikrlar aniq va muayyan, bir - biriga izchil suratda

Nutq og'zaki va yozma ko'rinishiga ega.

Til nutq uchun moddiy materialdir. Bu material asosida nutq tashkil topadi.

So'z bo'g'inlaridan birning boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz bilan aytilishi urg'u deyiladi

Dialog deganda ikki va undan ortiq kishilarning o'zaro suhbati tushuniladi.

Nutqning quyidagi turlari mavjud bular:

Ijtimoiy - siyosiy nutq

Akademik nutq

Xuquq tartibot tashkilotlari dagi nutq

Ijtimoiy va urf - odatlarga asoslangan nutq

Diniy nutq

5 - mavzu. Ritorikaning mazmuni va tuzilishi

Xar qanday nutq birinchi navbatda ma'lumot berishi lozim

Zamonaviy notiqlik san'atidagi muammo - ma'lumotlarni to‘g‘ri ajrata bilish.

Notiq qaerdan va qanday ma'lumotni olishi uning nutqini qurilishining asosiy poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Nutqdagagi birinchi ma'lumotni ochib berish uchun keltiriladigan siyosiy, ilmiy, axloqiy, ma'naviy, ruhiy taxlillar orqali u ikkinchi darajadagi ma'lumotga aylanadi.

Notiq nutqning ravonligi, ma'noli go‘zal nutqi bergen ma'lumotlarining yangiligini, badiiy asarga o‘xshatish mumkin.

Nutqda xar bir fikr mantiqan asoslangan taqdirdagina, uning ta'sirchanligi kuchli bo‘ladi

Mantiqiy fikrlash usullari bular: - solishtirish, analiz, sintez, abstraqlash va umumlashtirish.

Fikrlashning asosiy formalari - tushuncha, muhokama va aqliy xulosalardan iborat.

Ta’rif - ta’riflashning to‘rt qoidasi bor.

Ta’rif mutanosib bo‘lmog‘i kerak. Ya’ni aniqlanuvchi tushuncha bilan aniqlovchi tushuncha teng bo‘lmog‘i kerak.

Ta’rifda aylanma bo‘lmasligi kerak. M: "Kulgi qistaydigan narsa – kulgili narsadir".

Ta’rifda inkor bo‘lmasligi kerak. M: "yorug‘lik - qorong‘ilikning yo‘qligidir" kabi ta’rif yorug‘ilikning ta’rifini tushuntirib bera olmayli.

Ta’rif kisqa, ravshan va aniq bo‘lmog‘i lozim.

6 - mavzu. Ritorikaning uslublari, so‘z va xarakat birligi.

Nutq uslublari aloqaning maqsadga muvofiq so‘zlovchining so‘z boyliklaridan tanlab foydalanishi tufayli nutqning tarixan shakllangan ko‘rinishidir.

Nutq uslublari aloqaning maqsadga muvofiq so‘zlovchining so‘z boyliklaridan tanlab foydalanishi tufayli nutqning tarixan shakllangan ko‘rinishidir.

Til boyliklarini tanlab ishlatishga qarab nutq ko‘rinishlari bir nescha turga ajratiladi. Ana shu hilma-hilik nutq usullari (stilar) deb ataladi.

Nutq madaniyati quyidagi ko‘rinishlarga ega:

Nutqning til madaniyati

Nutqning psixologik madaniyati

Nutqning aloqa madaniyati

Nutqlar quyidagi uslublar orqali auditoriyaga yetkaziladi.

So‘zlashuv uslub

Badiy uslub

Ilmiy uslub

Rasmiy uslub

Publistik uslub

7 - mavzu. Ritorikaning axloqiy tamoyillari



Muomala axloq ko‘rki sanaladi.
Nutq odobi – insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir.



*Oldiga kelganin yomok xayvonning ishi,
Og‘ziga kelganni demak nodonilig ishi*
A.Navoiv




Alisher Navoiy ham so‘zning xashamadorligidan ko‘ra,
haqqoniyligini ulug‘laydi
Insonning muomalasiga qarab, axloqiga ham baxo beriladi.

Til -inson tafakkurining maxsuli.
U inson madaniyati, fikriy
go‘zalligini, yaxshi, ibratli,
havqilsa arziydigan fazilatlarni
yuzaga chiqaruvchi vositadir.




So‘z inson tanasiga turlichay
ta’sir etadi. Inson xar doim
navqiron, bardam bo‘lishi uchun
boshqa insonlarni ranjitmasliklari,
dilini vayron qilmasliklari hamda
o‘zlari ham xushtabiat bo‘lishlari
lozim.

**8-Mavzu. Taqdimot marosimining ritorik qoidalari va
notiqning imiji**



**Taqdimot – bu o‘zlashtirish, ma’lumotlarni ko‘pchilik
oldida ochiq taqdim etishdir.**



**Taqdimotchi amal qilishi lozim bo‘lgan
ayrim xolatlar:**

**Taqdimot marosimining
mas’uliyatini xis etish**

**Taqdim qiluvchi bilan
auditoriya o‘rtasida o‘zaro
hamkorlik.**

**Taqdimot
matnini
tayyorlash.**

Taqdimotga tayyorgarlik.

**Taqdimot marosimi
vositalari.**

**O‘rta asrlar musulmon sharqi mutafakkirlarining Ritorika xususidagi ta’limotlari mavzuini zamonaviy pedagogik texnologiyani "Fikrlar hujumi" usulida tashkil etish va o‘tkazish
SENARIYSI**

Dars mavzusi: (amaliy mashg‘ulot) O‘rta asrlar musulmon sharqi mutafakkirlarining Ritorika xususidagi ta’limotlari

Darsining ta’limiy maqsadi: O‘rta asrlar musulmon sharqi mutafakkirlarining Ritorika xususidagi ta’limotlari xaqida ma’lumotlar berish.

Darsining tarbiyaviy maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, muomala madaniyatining ahamiyatini tushuntirishdan iborat.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuksaltirish, O‘rta asrlar musulmon sharqi mutafakkirlarining Ritorika xususidagi ta’limotlari xaqida ma’lumotlar berish.

Darsda foydalaniladigan texnologiya: "Fikrlar xujumi" texnologiyasi

Darsning borishi:

1. *Tashkiliy qism.*

2. *Talabalarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, miqsadi va borishi bilan tanishtirish.*

Darsni o‘qituvchi kirish so‘zi bilan ochadi. U kirish so‘zida amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda muomala madaniyatining jamiyatdagi axloqiy munosabatlardagi o‘rni, taraqqiyotidagi roli haqida ma’lumotlar beradi hamda buyk mutaffakirlarning fiklarini vazifa qilib beriladi.

3- "Fikrlar xujumi" o‘yinni o‘tkazish.

Bu metoddan maqsad, mumkin qadar katta miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir hil fikrlash inersiyasidan xoli qilish, ijodiy vazifalarni echish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni engishdir. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq xolda baxslashishga hamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Auditoriya 5 yoki 6 ta kichik guruxlarga bo‘linadi. Xar bir kichik gurux xal

qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo‘yicha 15 minut davomida mustaqil ravshda to‘g‘ri "Fikirlar hujumi" o‘tkaziladi. Shundan so‘ng guruhdan bir kishi chiqib o‘zlarini g‘oyalari xaqida axborot beradilar. Barcha gurux eshitib bo‘lingandan so‘ng o‘kituvchi tomonidan muammo bo‘yicha fikrlar umumlashtiriladi va baxo beriladi.

1-vazifa

*Oldiga kelganin emak xayvonning ishi,
Og‘ziga kelganni demak nodonning ishi A.Navoiy*

2 - vazifa

Agar so ‘z senikimi yoki sen so ‘znikimi, deb so ‘rasalar, aytgil: men so ‘zniki va so ‘z menikidir. Kaykovus

3- vazifa

*Qora boshning yovi kizil tildir,
U qancha boshlarni edi, yana ham eydi.
Boshim omon bo ‘lsin desang tilingni extiyot kil,
Tiling istalgan bir kunda boshingni eydi. Yusuf Hos Xojib*

4 – vazifa

Befoyda so ‘zni aytma va foydali so ‘zni ko ‘p eshiturdan kaytma. A.Navoiy

5-vazifa

Sunnat ermish, kofir bo ‘lsa, berma ozor, Ko ‘ngli qattiq dilozordan xudo bezor. Axmad Yassaviy

6 - vazifa

*Til arslon misoli yotar kafasda, Bexabar boshini u er nafasda
Tilidan tutilgan ne deyar, eshit,
Amal kil bu so ‘zga, o ‘zingga esh et.
Balo keltiradi boshga bu til
So ‘zingni tiyib yur, boshing yorilmasin
Tilingni tiyib tur, tishing sinmasin. Yusuf Hos Xojib*

Nuqt madaniyati va notiqlik san'atining xususiyatlari va turlari mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Agar men" zanjirli rolli o'yin usulida tashkil etish va o'tkazish

SENARIYSI

Dars mavzusi; (amaliy mashg'ulot) Notiqlik san'atining xususiyatlari va turlari

Darsning ta'limi maqsadi: Ritorikapremeti - og'aki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta'sirchan etkazish malakasini egallash haqida tushuncha berish

Darsning tarbiyaviy maqsadi; Ritorikapredmeti - og'zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta'sirchan etkazish malakasini egallash haqida tushuncha beradi. Chiroqli so'zlash nazariyasi - ritorika. Til va nutq. Ichki va tashki nutq. Til boyligi. Nutqning aniqligi ma'lumot berish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuqsaltirish, nutq madaniyatini inson xayotidagi o'rmini xis qilish hamda qo'llay bilish ko'nikmalarini paydo qiluvchi madaniyatni rivojlantirishdan nborat.

Darsda foydalaniladigan texnologiya:

Rolli zanjir usuli. "Agar men "

Darsning borishi:

1.Tashkhiy qism.

2.Talabalarni amaliy mashgulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish

Darsni o'kituvchi kirish so'zi bilan ochadi. U kirish so'zida amaliy mashg'ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarni tanishtirib, bugungi kunda jamiyatda muomala madaniyatining o'rni uni ko'llash usullari, ichki va tashki nutqdan unumli foydalanish, tilning boyligidan faxrlanish, nutqning aniqligi haqida fikr bildiradi.

3. Rolli o'yinni o'tkazish.

Bunda 15 ta talaba qatnashadi. Berilgan ob'ekt sifatida rolga kirib, obrazga kirib

o‘qib beradilar.

Ularning nutqlari eshitilgandan so‘ng ularga talabalarning o‘zi baxo beradilar. O‘yin oxirida o‘kituvchi tomonidan xulosalanadi. Jami bu o‘yni orqali 25-30 kishini baxolash mumkin.

Bozorga tushgan edim. Ish kuni bo‘lishiga qaramay odam!

Mazzam yuqroq, ertaga ishga borolmayman; Mazza qilib dam oling, yaxshilab sog‘ayib keting, keyin gaplashamiz.

O‘rtoq rafiqam! Ijozat bersangiz, xushchaqchaq xayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali bajarib kelayotganimizga bir yil to‘lgan kunda bevosita tabrik etishga, bu kamchiliklarga qaramay, turmushimizni a’lo darajada olib borayotganimizga, hech qanday shak - shubha bo‘lishi mumkin emas, deb hisoblash mumkin. (A.Qaxxor)

Ota uni ko‘rib qarg‘ishga og‘iz ochdi - yu, lekin qarg‘ayolmadi, "Bo‘ying o‘zilmasin bolam" deb xungrab yubordi. Xoling shu bo‘lsa, axvolingga voy, er olmaydi, boshimga yostiq bo‘lasan. (A.Qaxxor)

Hali yurt surib yotganlaring shular, degin. Qovog‘ini qara, qovog‘ini. Vey o‘sha obergan shaharingni sholvoringga solib beray.. Choy - chaqasini undan - bundan qilib, taralasini tortib yurgan Toshpulating etti yarim so‘lkavoyni tag‘in kaysi go‘sxo‘rdan olsin, a, yo bobog‘imni sotib beraymi? Yoki sayratmamnimi? Etigim bo‘lsa-ku, o‘n besh kundan beri garovda, choponni bo‘lsa o‘tkan kuni ko‘zingni oldida uch so‘lkavoyga sotdim. O‘rgildime! Quy endi. Xudo xaqi, galavam aynadi.

Umed bilan kellim, bozordan quruq kaytmay deyman, bunga 50 tillo beray; xay deng endi. (S. Ayniy)

Yildan yilga zamonani er yutvotti, egachi! Erkak – ku, erkak, yoshlarni ham xudo teng teppasidan urib, tovonidan chiqarvotti, men sizga qoqindiq! Sizga yolg‘on, xudoga chin, jonim o‘rgilsin, bir zamon terazadan muralasam, bir uy xotin - erkak aralash! Jonim "xiqq" etdi - yu xalqumumga keldi turdi.

Buni qarangki, ikkam o‘ttiz yildan baqqa mana shu behosiyat ostonai nomuborakda mingdan ortiq xotin. Bizdaqa peshonasi to‘mtok, sho‘rpeshona qurumsoqqa birortasi ham tegmapti - e! Voy seni bekorchilikda yaratgan xudoyimdan

urgilay. Bu deyman, bizning peshonamizga xotin bitishga kelganda yo qalami qudratning siyoxi ado bo'lib qolgan, yo xudoyimning qulog'i bizdaqa kambag'allarning orasiga jabroil degan besunaqay qanotlarini to'sib olganda. Bo'lmasam naxot bir kam qirq yildan beri xotin so'rashni qilaverib og'zimiz xalta bo'b ketti - yu, bir alvastigayam uchramasak – a! O'rgilib qo'ydim. (Maysaraning ishi)

Shukurkim, o'zligimizni anglay boshlashimiz shaharsozlik soxasida ham ma'lum o'zgarishlar yasab, bu xududga e'tibor berila boshladi. So'ngra 3-4 yil ichida hukumatimizning eski shaharni saqlab qolish buyicha qarorlari, "maxalla" dasturi qabul qilindi.

Adabiy asarning mazmuni, undagi g'o Yanning oliyjanobligi, tasvir etilgan odamlar va hodisalarining go'zalligi Yoki xunukligi -hammasi o'quvchiga asarning tili orqali etali. Shu sababli til soxasidagi mahorat yozuvchi qobiliyatining eng yorqin alomatidir.

(Izzat Sulton)

*Tun bilan yiglaydi bulbul
G'uncha xajri dog'ida.
Ko'z yoshi shabnam bo'lib
Qolmish uning yaprog'ida
Sevgi saxrosida qolmish
Necha Majnundan g'ubor,
Necha Farxod gardi yotgay
Bistunning tog'ida
G'unchadek chexramda Erkin
Jon fido etgay sanam,
Qatra qonidin gul unsun
To muxabbat bog'ida. (E.Voxidov)*

Ritorikaning axloqiy tamoyillari mavzusini zamonasiy pedagogik texnologiyaning "FSMU" usulida tashkil etish va o'tkazish

SENARIYSI

Dars mavzusi: (amaliy mashgulot) Ritorikaning axloqiy tamoyillari

Darsning ta'limiy maqsadi: Talabalarga ritorikaning axloqiy tamoyillari xaqida, yaxshilikning ziynati va yomonlikning illatlari, yaxshi so‘zning qudrati, haqida ma'lumot berish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: Talabalarli chiroyli so‘zlashning axloqiy fuknsiyalari. Notiqlik san’atida adolat va haqiqat masalalari. Notiq shaxsiga qo‘yiladigan talablar haqida fikr bildirish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: Talabalarning axloqiy tafakkurini yuqsaltirish, etikaning mezoniy tushunchasi yaxshilik va yaxshi so‘zning uyg‘unligi ularni inson xayotidagi o‘rnini xis qilish hamda qo‘llay bilish ko‘nikmalarini paydo qiluvchi madaniyatni rivojlantirishdan iborat.

Darsda foydalaniladigan texnologiya:

FSMU texnologiyasi

Darsning borishi:

1. *Tashkidiy qism.*
2. *Talabalarni amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan tanishtirish.*

Darsni o‘kituvchi kirish so‘zi bilan ochadi. U kirish so‘zida amaliy mashg‘ulotning mavzusi, maqsadi va borishi bilan talabalarli tanishtirib, bugungi kunda jamiyatda yaxshilik va yaxshi so‘zning qudrati ularning jamiyat xayotidagi, muomala madaniyatidagi, oilaviy munosabatlardagi amaliy ahamiyatlarini yoritib berishga bag‘ishlanganligi haqida fikr bildiriladi.

3. FSMU o‘tkazish.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni xal etish hamda o‘quv jarayonini baxs - munozarali o‘tkazishda qo‘llaniladi. Bu texnologiya tinglovchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq xolda baxslashishga hamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o‘rgatadi.

Auditoriya 5 Yoki 6 ta kichik guruxlarga bo‘linadi. Ularga FSMU ning 4 ta bosqichi yozilgan qog‘oz va baxs uchun vaziyatlar tarqatiladi. Vaziyatdan kelib chiqib, ular 4 ta bosqich bo‘yicha qog‘ozga o‘z fikrlarini tushiradilar. Guruxdan biri kishi chiqib o‘zlarini fikrini himoya qiladi, qolganlari ko‘sishma qilishlari mumkin. Barcha gurux eshitib bo‘lingandan so‘ng o‘kituvchi tomonidan muammo buyicha fikrlar umumlashtiriladi.

FSMUning 4 bosqichi:

- F – fikringizni bayon eting.
- S - fikringiz bayon iga sabab ko‘rsating
- M - ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keyatiring
- U - fikringizni umumlashtiring

1 - vaziyat

Bizga ma’lumki, barcha davr, barcha xalqlar uchun bir hil bo‘lgan yaxshilikning bo‘lishi mumkin emas. U davr, jamiyat taraqqiyotiga qarab o‘zgarib, Yangi ma’no kasb eta beradi. Yaxshilik va yomonlik tushunchalari ham xuddi shunday o‘zgarib boraveradi. Bir paytlar yaxshilik ma’nosini bildirgan hodisa vaqt o‘tishi bilan yomonlikka aylanishi Yoki teskari bo‘lishi ham mumkin. Inson tafakkurining boshqa sohalarida bo‘lgani kabi axloqda ham muttasil taraqqiyot sodir bo‘lib turadi. Natijada yaxshilik va yomonlik xar bir jamiyatda o‘ziga hos xarakter kasb etadi. Sizning fikringiz?

2- vaziyat

Oldingda o‘lim turganini sezishing g‘am eyishing uchun kifoyadir. Demak, xali o‘lim kelmagan ekan, o‘z g‘amingni eb qol, odamlarga yaxshilik qilish bilan nomingni yaxshilar qatoriga ko‘shib ket.

Aqilli kishida uchta xislat bo‘ladi: o‘ziga berilgan savollarga odob bilan javob

beradi, birovdan yomonlik kursa ham yaxshilik qiladi, xalqi uchun foydali fikrlarni olga suradi.

3 – vaziyat

O‘z fursatida qilinmagak yaxshilik - yomonlikka yo‘l ochishi mumkin.

Yomonlarni extiyot qiling! Yomon yo‘k bo‘lsa, yaxshining kadri bilinmay qoladi! Mexr - yaxshilik, kaxr - yomonlik belgisi. Shunaqa-ku, mabodo teskarisi bo‘lsachi? Tasavvur qiling bir iflos kimsa begunox odamni o‘ldirib qo‘ydi. Siz mexr ko‘rgazib ming yoqqa yugirdingiz. Bo‘lgan hodisani «tasodifga» yo‘nib uni jazodan qutqarib qoldingiz. Ertasiga esa u boshqa odamni o‘ldirdi. Sizning mexringiz yaxshilikka xizmat qildimi, yomonlikkami? Dunyoda soat kapgiridek tebranib turadigan xaqiqatlar ham bo‘ladi.

4 – vaziyat

Billur guldon bilan tosh to‘qnashsa, toshga balo ham urmaydi, gul idishi sinadi. negaki guldon bag‘rida gul bor. Yaxshi bilan yomon to‘qnashsa, yomonga baloyam urmaydi, yaxshining dili vayron bo‘ladi. Negaki yaxshining qalbida ezbilik bor.

5 – vaziyat

Yomonlikka yaxshilik bilan javob bersang bir xissa savob olasan. Yaxshilikka yomonlik bilan javob bersang, un xissa gunohga botasan. Negaki, bu dunyoda yomonlikka yaxshilik qiladiganlardan ko‘ra yaxshilikka yomonlik qiladiganlar o‘n xissa ko‘p.

6-vaziyat

Bir kuni bir yaxshi kishi ko‘chadan o‘tib borg‘onida bir necha xayosiz kishilar orqasidan yamon so‘zlar ila so‘kib qoldilar. Bu kishi alarning so‘zini(ng) eshitib, ko‘lini ko‘tarib: «Yo Rab, bu nodonlarg‘a o‘zing aql bergil va tug‘ri yo‘lga solgil!»-deb duo qildi. Bu xoldan xabardor bir kishi so‘radiki, «Nima uchun siz ul kishilarning xaqqiga yaxshi duo qildingiz?»-deb. Ul kishi :»Ey birodar, xar kim o‘zida borini berur. Menda yaxshilik bor edi, shuni berdim, onlarda yamonlig‘ bor ekan, oni

berdilar. O'zingda yo'k narsani qaydan olib berursan, xar kim qilganicha topar, yamonning yamonligi o'z boshiga etar», -deb javob berdi.

7 - vaziyat

Yaxshi hamsuhbat xuddi mushku anbar olib yurgan kishiga uxshaydi. Birga bo 'lsang, mushkidan beradi Yoki o'zing undan sotib olasan, hech bo 'lmaqanda esa, uning xush bo 'yidan baxramand bo 'lasan. Yomon hamsuhbat esa, xuddi temirchining bosqoniga o'xshaydi: yo kiyimingni kuydiradi, Yoki uning badbuy xidi senga ham urib qoladi». Do'st tanlashdagi islam ta 'limotlari mana shulardan iborat. Ular doimo bizni yaxshilikka etaqlaydi va yomonlikdan saqlaydi.

8 - vaziyat

Shirinso 'zlik va muloyimlikning shartlaridan biri ovozni pastlatib, mayin gapirishdir. Shuning uchun Allox ovozni pastroq qilib gapirishga chaqirib, qattiq, baqirib gapirishni xuddi eshshakning xangrashiga o'xshatadi: «So 'zlaganda ovozingni pastrok tushirgin, zero eng yomon ovoz - eshshakning ovozidir» (Lukmon surasi, 39 oyat).

MUNDARIJA

Kirish-----	3
1- mavzu. Ritorika fanining tadqiqod doirasi, maqsadi va vazifalari-----	4-14
2- mavzu. Qadimgi dunyoda notiqlik san'atinpng paydo bo'lishi Buyuk mutafakkir notiqlar xususida-----	14-34
3-mavzu. O'rta asrlar musulmon sharqi mutafakkirlarining Ritorika xususidagi ta'limotlari-----	34-51
4-mavzu. Ritorika fanining xususiyatlari va turlari-----	51-61
5-mavzu. Ritorika fanining mazmuni va tuzilishi -----	61-84
6-mavzu. Ritorika fanining uslublari, so'z va harakat birligi-----	84-96
7-mavzu. Ritorika fanining axloqiy tamoyillari -----	96-105
8- mavzu. Taqdimot marosimining ritorik qoidalari va notiqning imidji.---	105-116
Mustaqil ishlar ro'yxati-----	116-118
Ritorika fanidan test savollari-----	118-137
Glossariy-----	138-151
Tarqatma materiallar diogrammada-----	152-159
Zamonasiy ped. texnologiyaga asoslangan senariylar -----	160-168
Mundarija-----	169